



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

**“GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA TIZIMLI
YONDASHUVNING IJTIMOIIY, IQTISODIIY, SIYOSIIY
VA HUQUQIIY ASOSLARI”**

mavzusidagi

RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYA TO‘PLAMI

22.05.2026

Navoiy shahri



Mazkur to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-yanvardagi №11-sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan “Giyohvandlikka qarshi kurashda tizimli yondashuvning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslari” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiya materiallaridan iborat.

Mazkur to‘plamda giyohvandlikka qarshi kurashishda tizimli yondashuv, jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri, yoshlar ongiga zarar yetkazuvchi omillar hamda ushbu muammoni bartaraf etish qaratilgan nazariy masalalarning tahliliy materiallari jamlangan.

Xalqaro ilmiy konferensiya maqolalar to‘plamini tayyorlash uchun mas’ullar:

Mas’ul muharrir:

N.Safarova, falsafa fanlari doktori, professor

Navoiy davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası mudiri

Ilmiy muharrirlar:

Sh.Madayeva, falsafa fanlari doktori, professor

O‘zbekiston Milliy universiteti “Falsafa va mantiq” kafedrası mudiri

N.Shamsutdinova, falsafa fanlari doktori (DSc),

Navoiy davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti

Texnik muharrir:

M.Norqobilov, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Navoiy davlat universiteti Tarix kafedrası dotsenti

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

KIRISH SO‘ZI

Giyohvandlik - bu nafaqat biror shaxsning sog‘lig‘i va hayotiga tahdid soluvchi tibbiy muammo, balki global miqyosdagi eng jiddiy ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy va siyosiy inqirozdir. Ushbu illat Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan uzoq yillardan beri transchegaraviy uyushgan jinoyatchilik, terrorizmning moliyaviy manbai va iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda korrupsiyaning asosiy omili sifatida tan olinadi. Giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishi (NMA) global iqtisodiyotga milliardlab zarar yetkazadi, ayniqsa sog‘liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish ijtimoiy ta‘minot tizimlari uchun katta xarajatlarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, giyohvandlik tufayli ijtimoiy kapitalning yemirilishi, mehnat resurslarining qisqarishi va xavfsizlikka tahdidlarning ortishi bevosita oqibatlardir.

O‘zbekiston Respublikasi uchun bu muammo geostrategik joylashuvi tufayli ayniqsa dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston Afg‘onistondan (dunyodagi eng yirik afyun va heroin yetkazib beruvchi manba) Rossiya va Yevropaga yo‘naltirilgan "Shimoliy yo‘nalish" deb ataluvchi asosiy kontrabanda yo‘li ustida turadi. Bu holat mamlakatning hududiy xavfsizligi va ijtimoiy barqarorligi uchun doimiy xavf tug‘diradi. NMA dan himoyalaniş uchun O‘zbekiston yirik moddiy-texnik resurslarni safarbar qilishga majbur bo‘ladi. Shuningdek, ichki iste‘molning o‘sishi va ayniqsa, yoshlar orasida giyohvand moddalar tarqalishining kuchayishi mamlakatning demografik va ijtimoiy kelajagiga bevosita tahdid solmoqda. Shuning uchun, giyohvandlikka qarshi kurashishni faqat jinoiy javobgarlikni belgilash nuqtai nazaridan emas, balki kompleks metodologiya - ya‘ni profilaktika, jazo, nazorat va rehabilitatsiya kabi uzviy bog‘liq bo‘lgan huquqiy va ijtimoiy choralar majmuasi sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Giyohvandlikka qarshi kurashish metodologiyasining samaradorligi bugun butunlay yangi xavf-xatarlar bilan yuzma-yuz turibdi. Bu tahdidlarning ikkitasi kurashish strategiyasini tubdan o‘zgartirishni talab qilmoqda: Yangi psixoaktiv moddalar (YPM) inqirozi va jinoyatchilikning kiber makonga ko‘chishi.

Yangi psixoaktiv moddalar (YPM) bu mavjud qonunlar bilan nazorat qilinmaydigan, biroq psixotrop ta’sirga ega bo‘lgan moddalarning keng guruhi. Xalqaro terminologiyada ular “legal highs” (qonuniy kayfiyatni ko‘taruvchilar) deb ham ataladi. Bu moddalarning kimyoviy formulasi tez-tez o‘zgarib turadi. Masalan,

Osiyo va Yevropa davlatlarida bir modda nazorat ostiga olinsa, kimyogarlar darhol uning tuzilmasini bir necha atomga o'zgartirib, yangi, qonuniy (nazorat ro'yxatiga kirmagan) mahsulotni yaratishadi. Bu hodisa "kimyoviy ruletka" deb ataladi. Natijada, milliy qonunchilik (shu jumladan O'zbekistondagi nazorat ro'yxatlari) har doim jinoyatchilardan orqada qolmoqda. Kurashish metodologiyasi endilikda "tezkor qonunchilik reaksiyasi" mexanizmlarini talab qiladi, ya'ni, xavfli moddalarni tasdiqlash jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish kerak.

Giyohvandlik jinoyati natijasida olingan noqonuniy daromadlarga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy mexanizmlarini kuchaytirish:

– Aktivlarni musodara qilishning xalqaro asoslarini kengaytirish: Giyohvandlik jinoyatlari orqali topilgan mol-mulkni muzlatish va musodara qilish bo'yicha xalqaro huquqiy yordam ko'rsatish mexanizmlarini to'liq ratifikatsiya qilish. Shu bilan birga, "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun" normalarini BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyalari talablariga muvofiq yanada mustahkamlash. – Mintaqaviy axborot almashinuvini huquqiy jihatdan mustahkamlash: Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazi (CARICC) doirasida YPM tarkibi, ularning tarqalish yo'nalishlari va kiber-savdo platformalari haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida tezkor va shifrlangan axborot almashinuvini ta'minlovchi huquqiy bitimlarni tuzish orqali xalqaro hamkorlik metodologiyasini kengaytirish.

Xulosa. O'zbekiston qonunchiligida giyohvandlikka qarshi kurashish kompleks va ko'p bosqichli (jazo, nazorat, profilaktika va rehabilitatsiya) metodologiyaga asoslangan. Jinoiyhuquqiy ta'sir usuli (JK 273-modda) kurashishning asosini tashkil etsa-da, uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlash uchun profilaktika va ijtimoiy rehabilitatsiya choralarining huquqiy mexanizmlarini yangi zamon talablariga mos ravishda doimiy takomillashtirib borish lozim. Taklif etilgan chora-tadbirlar tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Navoiy davlat universiteti rektori
professor B.M.Kalonov

ГИЁҲВАНДЛИКНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ

Мамадиярова Малика Таджиевна,

Навоий вилояти ҳокими ўринбосари – оила ва хотин-қизлар бошқармаси
бошлиғи

Бугунги кунда жаҳон ҳамжамияти, хусусан, жадал ривожланиш йўлидан бораётган Янги Ўзбекистонмиз олдида инсоният цивилизациясига таҳдид солаётган бир қатор глобал муаммолар кўндаланг бўлиб турибди. Ана шундай аср ваболари ичида энг хавфлиси, миллат генофондини илдизидан қуритадиган, жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий барқарорлигига жиддий путур етказадиган иллат — гиёҳвандлик ва наркожиноятчиликдир.

Бу шунчаки бир шахснинг фожиаси эмас, бу — миллат келажагига, фарзандларимиз қалбига қаратилган яширин ва эълон қилинмаган урушдир!

Мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев куюниб таъкидлаганларидек: “Биз соғлом авлодни тарбиялаб вояга етказишимиз керак. Агар фарзандларимизни зарарли таъсирлардан, гиёҳвандлик ва сохта ғоялардан асрай олмасак, келажагимизни бой берамиз”.

Бугунги республика илмий-амалий конференциясининг айнан “**тизимли ёндашувнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва ҳуқуқий асослари**” мавзусига бағишлангани бежиз эмас.

Зеро, гиёҳвандликка қарши фақатгина ҳуқуқ-тартибот органларининг куч ишлатиш ёки маъмурий жазо чоралари билан курашиш кутилган натижани бермайди. Ушбу курашда ижтимоий ва ҳуқуқий муносабатларнинг бош бўғини, энг асосий пойдевори ва мустаҳкам қалъаси — бу муқаддас **оила** институтидир.

Бугунги маърузамда биз ўзига хос ижтимоий-демографик ва саноат тузилмасига эга бўлган **Навоий вилояти** мисолида гиёҳвандликни олдини олишда оиладаги тарбия ва маънавий муҳитнинг ўрнини фундаментал таҳлил қиламиз ҳамда мавжуд тизимли муаммоларга амалий ечимларни таклиф этамиз.

Навоий вилояти республикаимизнинг йирик саноат ва иқтисодий ўсиш марказларидан бири ҳисобланади. Сўнгги йилларда ўтказилган криминологик ва тиббий-ижтимоий тадқиқотлар гиёҳвандликнинг “қиёфаси” ва характери кескин ўзгарганини кўрсатмоқда. Илгари анъанавий ўсимликсимон (афюн, кўкнор, марихуана) моддалар учраган бўлса, бугун уларнинг ўрнини инсон руҳиятини бир неча сонияда вайрон қилувчи ва тез қарамлик чақирувчи **синтетик наркотиклар** (мефедрон, “соль”, “альфа-PVP”) ҳамда кучли таъсир қилувчи психотроп дори воситалари эгалламоқда. Бу оғу айниқса ёшлар қатламига таҳдид солмоқда.

Келинг, Навоий вилояти контекстидаги аниқ тизимли рақамларга эътибор қаратайлик:

-Вилоят аҳолисининг 60 фоизга яқинини 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этади. Бу оилаларда ёшлар тарбиясига ва уларнинг бўш вақтини назорат қилишга бўлган ижтимоий масъулиятни икки баробар оширади.

-Бугунги кунда сунъий (синтетик) воситаларни истеъмол қилиш ва уларнинг ноқонуний айланмасига аралашиб қолаётганларнинг ўртача ёши **18-28 ёшни** ташкил қилмоқда. Бу — инсоннинг энг фаол илм оладиган, касб эгаллайдиган ва оила қурадиган давридир.

-Вилоятда девиант (салбий) хулқ-атворга эга бўлган ёки ҳудудда наркожиноятларга аралашиб қолган ёшларнинг қарийб **65 фоизи** ноқобил оилалар, ота-оонаси ажрашган ёки узоқ муддатга хорижга кетган, ёхуд оилада доимий зўравонлик ва низолар гирдобиди яшаётган оилалар вакиллари дир.

Ушбу рақамлардан кўриниб турибдики, муаммонинг илдизини фақатгина кўчадан ёки мактабдан эмас, биринчи навбатда, бола вояга етаётган оила муҳити ичидан излашимиз шарт!

Нисбатан иқтисодий барқарор, фаровон ва зиёлилар вилояти ҳисобланган Навоийда айрим ёшлар нима сабабдан бу ботқоққа ботмоқда? Илмий кузатувлар оиладаги учта энг оғриқли тизимли хатони юзага чиқармоқда:

Навоий вилоятида кўпгина оилаларда даромад даражаси юқори. Бироқ, айрим ота-оналар *"болам ҳеч кимдан кам бўлмасин"* деган хато тушунча билан фарзандини пул, қимматбаҳо телефон ва машиналар билан таъминлаб қўймоқда, аммо унга **вақт ва меҳр** ажратмаяпти. Фарзанднинг ички дунёсида маънавий бўшлиқ пайдо бўлмоқда. Ушбу бўшлиқни эса ижтимоий тармоқлардаги яширин оғуфурушлар жуда тез ва "жозибали" тарзда тўлдирмоқда.

Бугун ота ҳам, она ҳам фарзандининг интернетдан фойдаланишини деярли назорат қилмаяпти, ота-оналарнинг **70 фоизи** қизиқмайди. Синтетик наркотиклар савдоси бугун кўчада эмас, интернет орқали яширин жойлаб кетиш усулида бўлаётгани сабабли, ота-оналарнинг рақамли саводхонлиги пастлиги боланинг жиноятга кириб қолганини вақтида сезишга йўл бермаяпти.

Баъзи оилаларда боланинг хулқидаги ўзгаришлар (кўз қорачиғининг кенгайиши, уйқусизлик, тажовузкорлик, пул йўқолиши) сезилса-да, "махалла-қўй нима дейди", "ор-номус қиламан", "менинг болам бундай қилмайди" деган сохта андиша билан муаммо яширилади. Натижада, дастлабки босқичда шифокор ёрдами билан даволаш мумкин бўлган касаллик сурункали босқичга ўтиб кетади.

Юқоридаги ҳолатлар бўйича вилоятимиз ҳудудида содир бўлган (шартли равишда исмлари ўзгартирилган) ижтимоий-ҳаётий мисолларга эътибор қаратишингизни сўрайман.

Навоий шаҳрида истиқомат қилувчи, зиёли ва ўзига тўқ оила фарзанди, 20 ёшли талаба Абдор интернет орқали психотроп моддалар истеъмолига аралашиб қолади. Ота-онаси унинг вазн йўқотаётгани, тунлари ухламай, кўчага чиқиб кетаётганини кўрса-да, *"ўқишда чаршаяпти, имтиҳонларга тайёрланыпти"* деб эътибор бермайди. Ачинарлиси, бу йигит кейинчалик пул топиш мақсадида Навоий шаҳридаги хиёбонлар ва дарахтлар тагига наркотик моддаларни яшириб кетувчи "курьер" (закладчик) сифатида ҳуқуқ-тартибот органлари томонидан қўлга олинди. Биргина оилавий назоратсизлик туфайли бир йигитнинг ҳаёти панжара ортида барбод бўлди.

Кармана туманидаги оилалардан бирида ота-онанинг сурункали жанжаллари ва уйдаги оғир руҳий босимлар сабабли 19 ёшли қиз уйдаги стрессдан қочиш, тинчланиш йўлини қидиради. Кўчадаги "сохталиқ билан дарддош бўлган дўстлар" унга "руҳиятни тинчлантирувчи" деб психотроп таблеткаларни таклиф қилишади. Бугун бу қиз вилоят наркология диспансерда оғир аҳволда даволанмоқда.

Юқорилагилардан кўриниб турибдики, оила бола учун тинчлик воҳаси бўлиши керак эди, аммо у жаҳаннамга айлангани боис, фарзанд оғу ичидан нажот излади.

Бу мисоллар кўриниб турибдики, гиёҳвандлик — бу шунчаки касаллик эмас, бу оиладаги эътиборсизликнинг ва меҳрсизликнинг исёнидир!

Бугунги конференциянинг кун тартибига киритилган мавзудан келиб чиқиб, “Гиёҳвандликни олдини олишда оиланинг ўрни”ни янада мустаҳкамлаш, оилаларимизда гиёҳвандликка қарши иммунитетни ошириш учун қуйидаги таклифларни эътиборингизга ҳавола этаман:

Биринчидан, рақамли назорат тизимини кучайтиришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш. Навоий вилоятидаги барча маҳаллаларда хотин-қизлар фаоллари ва ИТ-мутахассислар иштирокида ота-оналарнинг рақамли саводхонлигини ошириш курсларини ташкил этиш зарур. Ота-оналарга фарзандларининг телефонига “ота-она назорати” дастурларини ўрнатиш ва уларнинг кибердунёдаги ҳаётини назорат қилиш тизимли ўргатилиши шарт.

Иккинчидан, ота-оналар мажлисларини сифат жиҳатдан такомиллаштириш: Мактаб ва ОТМлардаги мажлисларни фақат баҳо ёки давомад таҳлили билан чекламай, унга вилоят Наркология диспансери шифокорлари ва психологларни жалб этиш лозим. Ота-оналарга синтетик наркотикларнинг илк биологик ва психологик белгиларини таниб олиш бўйича амалий тренинглар ўтказилиши керак.

Учинчидан, хавф гуруҳидаги оилалар билан манзилли ишлаш. Вилоятнинг барча ҳудудларида ота (она)си миграцияда бўлган, васийлик ва ҳомийликка берилган, муқаддам маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган, нотинч ва низоли оилалардаги ёшларга индивидуал тарзда мураббийлар бириктириш ва уларни бепул спорт ва ИТ тўғаракларига жалб этиш лозим. Бўш вақти бўлмаган, спорт ёки илм билан банд боланинг гиёҳвандликка чалиниш эҳтимоли илмий таҳлилларга кўра 98 фоизга камаяди.

Тўртинчидан, ота-оналарнинг масъулияти ва жавобгарлигини ҳуқуқий жиҳатдан такомиллаштириш. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси ва Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда ота-оналарнинг фарзанд тарбиясига оид масъулиятсизлиги оқибатида боланинг девиант (салбий) ҳуқ-атворга эга бўлиши бўйича ҳуқуқий нормаларни янада кучайтириш лозим.

Хулоса ўрнида айтиш лозимки, гиёҳвандликка қарши энг самарали кураш ҳар бир хонадонда, ҳар бир оилада, фарзандимизга берган меҳримиз ва эътиборимизда бошланиши керак.

Оила — бу давлат ичидаги кичик давлатдир. Агар шу кичик давлатда хавфсизлик, меҳр-оқибат, тўғри тарбия ва тизимли назорат ўрнатилса, ҳеч қандай ташқи таҳдид, ҳеч қандай кимёвий оғу бизнинг келажагимизни — фарзандларимизни ўз қулига айлантира олмайди!

ГИЁХВАНДЛИККА ҚАРШИ КУРАШНИНГ СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Ж.Ё.Мавлонов –
Навоий инновациялар университети ректори,
сиёсий фанлар доктори, профессор

Гиёҳвандлик – бу инсоннинг психологик ва физиологик жиҳатдан бирор бир наркотик моддага қарам бўлиб қолиши, ундан доимий фойдаланиш эҳтиёжини ҳис этиши билан тавсифланадиган ҳолатдир. Бу ҳолат, инсонни моддий ва маънавий жиҳатдан заифлаштириши, шахснинг ҳаёт сифатига салбий таъсир кўрсатиши билан ажралиб туради.

Президент Шавкат Мирзиёев 3 ноябрь куни миллат генофондини гиёҳвандликдан ҳимоя қилиш, кибержиноятларга қарши самарали курашиш ҳамда прокурор назоратини рақамлаштириш юзасидан таклифлар тақдироти билан танишди.

Сўнгги йилларда наркожиноятчилик бутун инсоният учун янги глобал хавф-хатарга айланаётгани қайд этилди. Таҳлилларга кўра, дунёда 400 миллиондан ортиқ одам бу иллатга дучор бўлган, унинг оқибатида йилига 300 мингга яқин одам вафот этапти.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти берган маълумотларга кўра, 2022 йилда наркотик моддалардан фойдаланадиган одамлар сони **292 миллионга** етган ва бу кўрсаткич ўтган 10 йил ичида 20 фоизга ошган. Дунёда тахминан **64 миллион киши** эса наркотик моддалар истеъмоли билан боғлиқ касалликлардан азият чекаётган бўлса-да, фақат ҳар 11 кишидан биттаси даволанмоқда.

Афсуски, мазкур иллат мамлакатимизни ҳам четлаб ўтаётгани йўқ. Йил бошидан 11 мингдан зиёд наркожиноят аниқланиб, 2,5 тоннага яқин гиёҳванд моддалар ушлаб қолинди. Бундай жиноятларнинг шакл ва турлари йилдан йилга кўпайиб, қамрови ортиб бораётгани наркожиноят ва гиёҳвандликка қарши курашишни комплекс равишда ташкил қилиш кечиктириб бўлмайдиган вазифа эканини кўрсатмоқда.

Хусусан, БМТ томонидан 1961 йилда Гиёҳвандлик воситалари тўғрисидаги Ягона Конвенция, 1971 йилда **Психотроп моддалар тўғрисидаги Конвенция**, 1988 йилда эса Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларни ғайриқонуний равишда муомалага киритишга қарши кураш тўғрисидаги Конвенцияси қабул қилинган.

Гиёҳвандликка қарши курашда Исландия, Швейцария, Нидерландия, Норвегия, Австралия ва Сингапур каби давлатлар яхши тажрибага эга давлатлар сирасига киради. Ушбу давлатларнинг кўпчилигида ушбу муаммони бартараф этишда асосий эътибор аҳолининг соғлиғини таъминлашга ҳамда гиёҳвандлик моддаларининг ноқонуний айланмаси билан боғлиқ жиноятлар учун жазоларни кучайтиришга қаратилган. Хусусан, **“Исландия модели”** – бу гиёҳвандликни олдини олишда жамоавий ҳамкорликка асосланган ёндашув бўлиб, Исландияда сўнгги 20 йил ичида

ёшлар орасида наркотик моддаларга қарамликни бошланишининг сезиларли даражада камайишига олиб келган.

Ўтган асрнинг 90-йилларидан бошлаб мамлакатимизда ҳам гиёҳвандлик моддалари ва психотроп моддаларининг ноқонуний айланмасига чек қўйиш, шунингдек, наркожиноятларга қарши кураш бўйича ҳуқуқий механизмлар яратиш мақсадида кенг қўламли ислохотлар амалга оширила бошланган. Ушбу ислохотлар доирасида, давлат органлари, жамият ва шахслар ўртасида ўзаро ҳамкорлик йўлга қўйилиб, мамлакатда наркобизнес фаолияти билан шуғулланаётган шахсларни аниқлаш ва уларга қонуний чора кўриш ишлари жадаллашган. Шу мақсадда Ўзбекистон ҳам **1995 йил 24 февралда** Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг тегишли қарорлари билан юқорида санаб ўтилган БМТ Конвенцияларига қўшилган.

Маълумки, давлатлар томонидан халқаро конвенцияларга қўшилиш – бу давлатлар ўз зиммасига бир қатор мажбуриятларни олишни англатади. Хусусан, БМТнинг 1961 йилдаги Гиёҳвандлик воситалари тўғрисидаги Ягона Конвенциясининг **4-моддасида** томонлар зиммасига ушбу Конвенция қоидаларини ўз ҳудудларида амалга ошириш ва бажарилишини таъминлаш, ушбу қоидаларни бажаришда бошқа давлатлар билан ҳамкорлик қилиш, наркотик моддаларни ишлаб чиқариш, тайёрлаш, экспорт, импорт, тарқатиш, улар билан савдо қилиш, улардан фойдаланиш ва сақлашни фақат тиббий ва илмий мақсадлар билан чеклаш каби чораларни амалга ошириш учун зарур бўлган қонунчилик ва маъмурий ҳужжатларни қабул қилиш каби мажбуриятларни юклаган. Шу сабабли ҳам Ўзбекистон Республикасида 1999 йил 19 августда “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги 813-И сонли Қонуни қабул қилинган. Ушбу Қонунда гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорларнинг муомалада бўлиши билан боғлиқ фаолиятни амалга ошириш шартлари ва уни лицензиялаш, шунингдек, улардан фойдаланишнинг алоҳида тартиблари аниқ белгиланди.

Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорларнинг ноқонуний айланмаси ҳақида сўз борар экан, бунда асосий масала ҳар доим аҳолининг, айниқса ёшларнинг соғлиғи билан боғлиқ эканлигини унутмаслигимиз керак. Шу сабабли ҳам ушбу соҳада давлат назоратининг ўрнатилиши муҳим ҳисобланади. Ўзбекистонда Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 30 апрелдаги 229-сон қарори билан Наркотик моддалар устидан назорат қилиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Давлат комиссияси тузилган. Ушбу Комиссия наркотик моддаларнинг ноқонуний муомалада бўлишига қарши курашни мувофиқлаштириш, ҳам миллий, ҳам минтақалар даражасида наркотик моддалар тарқалиши олдини олишнинг самарали чоратadbирларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, наркотик моддалар устидан назорат қилиш юзасидан халқаро мажбуриятларни бажариш масалалари бўйича идоралараро орган этиб белгиланган. Наркотик моддаларнинг ноқонуний ишлатилишига қарши курашишни кучайтириш, Ўзбекистон Республикасининг ушбу соҳадаги халқаро

мажбуриятларини бажариш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 7 ноябрдаги 382-сон қарори билан наркотик моддаларни назорат қилиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Давлат комиссияси котибияти Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Наркотик моддаларни назорат қилиш миллий ахборот-таҳлил марказига айлантирилган.

Сўнгги йилларда янги турдаги синтетик гиёҳвандлик воситалари ва кучли таъсир қилувчи моддалар пайдо бўлаётганлиги, улар билан зарарланган шахсларни эса даволаш эса айрим муаммоларни келтириб чиқариши мумкинлиги ҳеч кимга сир эмас. Энг ачинарлиси эса бундай гиёҳвандлик воситалари моддий дунёда инсон омили орқали эмас, балки виртуал муҳитда турли сайтлар, ижтимоий тармоқлар орқали ноқонуний олди-сотдиси амалга оширилиши бундай қилмишни содир этган шахсларни ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан аниқланишида қийинчиликлар туғдиради. Мисол учун, Тошкент шаҳар Ички ишлар бош бошқармаси томонидан берилган статистик маълумотларга кўра, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи орган ходимлари томонидан бу турдаги жиноятларга қарши курашиш йўналишида олиб борилган чора-тадбирлар натижасида биргина пойтахтимиз – Тошкент шаҳрида 2024 йил давомида аниқланган ҳолатлар юзасидан 3 447 та жиноят ишлари қўзғатилган. Ушбу жиноятларнинг 2 413 таси ёки 70 фоизи интернет тармоғи билан боғлиқ ҳолда содир этилган. Бу эса республикамызда гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасининг барвақт олдини олиш, аҳолида уларни истеъмол қилишга нисбатан “иммунитет”ни шакллантиришда янгича механизмлар яратиш заруратини кўрсатиб берди. Шу мақсадда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига чек қўйиш орқали уларнинг аҳоли саломатлиги ва мамлакатимиз генофондига салбий таъсирини бартараф этиш стратегик чора-тадбирлари тўғрисида” 2024 йил 6 майдаги ПФ-73-сон Фармони қабул қилиниши билан давлатимизнинг ушбу соҳадаги ички сиёсатида янги даврни бошлаб берди, десак муболаға қилмаган бўламиз. Ушбу Фармон билан илғор хорижий тажриба, халқаро, шу жумладан БМТ экспертларининг хулоса ва тавсиялари асосида ишлаб чиқилган Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик ва наркожиноятларга қарши курашиш бўйича 2024 — 2028 йилларга мўлжалланган Миллий стратегия тасдиқланган. Ушбу Миллий стратегияда аҳолида гиёҳвандликка қарши иммунитетни шакллантириш, гиёҳвандлик ва наркожиноятларнинг олдини олишга қаратилган сифат жиҳатидан янги механизмларни белгилаш, наркожиноятларга қарши курашиш фаолиятига замонавий ишлаш усуллари татбиқ қилиш, аҳолига сифатли наркологик ёрдам кўрсатиш тизимини янги методлар асосида ривожлантириш, гиёҳвандликнинг тиббий-ижтимоий реабилитациясини янада такомиллаштириш, гиёҳвандлик ва наркожиноятларга қарши курашиш соҳасида илмий-тадқиқот фаолиятини ривожлантириш каби олти аниқ мақсадлар ҳамда ушбу мақсадларга эришишнинг устувор йўналишлари ва чора-тадбирлари белгилаб қўйилди. Бу

мақсадларни амалга оширишда эса ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ҳамда фуқаролар ўртасида ўзаро ҳамкорликни самарали йўлга қўйиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик ва наркотик моддаларни, ноқонуний айланишини олдини олишга қаратилган профилактик ишлар тизимли равишда олиб борилади.

Жумладан, «Наркотик моддаларнинг суистеъмоли ва, ноқонуний айланишига қарши кураш бўйича 2011–2015 йилларга мўлжалланган комплекс чоралари» дастурида, аҳоли орасида гиёҳвандлик ва наркожиноятларни олдини олишга қаратилган профилактик тадбирлар самарадорлигини ошириш, наркологик ҳизмат кўрсатиш тизимини ҳамда гиёҳванд беморлар реабилитациясини юксалтириш ва модернизациялаш каби вазифалар белгиланган.

Аҳоли орасида соғлом турмуш тарзини оммалаштириш, наркотик воситаларни истеъмолига салбий муносабатни шакллантириш, шунингдек, наркотик воситаларни, ноқонуний айланиши билан боғлиқ жиноятларга қонун доирасида кўзда тутилган жазо чораларини оммавий ахборот воситалари орқали ёритишга катта эътибор қаратилган.

Таълим тизимида педагогларни малака ошириш махсус ўқув цикларида тизимли равишда гиёҳвандликни олдини олиш мавзусида кадрларни салоҳиятини ошириш ташкиллаштирилган.

Профилактик тадбирларда асосий эътибор, аҳолининг «хавф гуруҳи»га кирувчи қатламлари, айниқса ёшларга катта урғу берилган. Ўқув муассасаларида, «хавф гуруҳи»га кирувчи ўқувчи ёшлар мониторинги олиб борилмоқда, улар билан соғлом турмуш тарзини шакллантириш мавзусида тушунтириш ишлари ва суҳбатлар доимий тарзда уюштирилмоқда, бўш вақтларини унумли ўтказиш мақсадида қизиқишлари бўйича турли спорт мусобақалар ва тўғаракларга жалб қилинмоқда, шунингдек, зарурат туғилган вақтда педагог-устозлар бириктирилмоқда. Профилактик ишларга комплекс ёндошув катта аҳамиятга эга, шунинг учун бу йўналишдаги тадбирларни амалга оширишга нафақат вазирлик ва идоралар, балки «Камолот» ЁИХ, «Махалла» хайрия фонди, Хотин-қизлар кумиталари каби жамоат ташкилотлари ҳам бириктирилган.

Республикада барча олиб борилаётган профилактик чоралар наркотик воситалар ва бошқа психоактив моддаларга талабни қисқартиришга, гиёҳвандлик воситаларини истеъмолига мойил бўлган юқори хавф гуруҳига кирувчи шахсларни сони ҳамда гиёҳвандлик билан касалланиш кўрсаткичларини камайишига қаратилган.

Бошқа давлатларда бўлгани каби, ҳар йили Ўзбекистон Республикасида 26 июн Ҳалқаро гиёҳвандликка қарши кураш куни кенг нишонланади. Июнь ойи давомида, гиёҳвандликка қарши кураш ойлиги режасига асосан бир қатор тадбирлар амалга оширилади.

Ойлик давомида «Соғлом турмуш тарафдоримиз» шиори остида ёшлар орасида турли спорт мусобақалари, концерт дастурлари, гиёҳвандлик оқибатларини ёритувчи бадий ва хужжатли фильмлар ва спектакллар намойиши амалга оширилади, шунингдек, аҳоли орасида ҳуқуни муҳофаза қилиш ва соғлиқни сақлаш идоралари ходимларини жалб этган ҳолда давра суҳбатлари ва учрашувлар уюштирилади. Барча тадбирлар оммавий ахборот воситаларида кенг ёритилиб борилади.

Эришилган ютуқлар билан бир қаторда, юзага келаётган янги наркотахдидларни инобатга олиб, профилактик тадбирларни давом эттириш лозим.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, гиёҳвандлик моддалари ва психотроп моддаларининг ноқонуний айланмасига чек қўйиш, шунингдек, наркожиноятларга қарши кураш нафақат Ўзбекистон Республикасини, балки бутун халқаро ҳамжамиятни ўйлантириб келаётган муаммолардан бири ҳисобланади. Бу эса барча давлат органлари ва ташкилотлардан ушбу масалага жиддий ёндашишни, фуқаролардан эса огоҳликни ва қонунларга бир хилда оғишмай риоя этишни талаб этади.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA TIZIMLI YONDASHUVNING IJTIMOIY-IQTISODIY ASOSLARI

N.O.Safarova

NavDU Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, f.f.d., professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada giyohvandlikka qarshi kurashishda tizimli yondashuvning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi. Giyohvandlikning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri, yoshlar ongiga zarar yetkazuvchi omillar hamda ushbu muammoni bartaraf etishda davlat, oila, ta'lim tizimi va fuqarolik jamiyatining o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, profilaktika, reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish mexanizmlarining samaradorligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, tizimli yondashuv, ijtimoiy himoya, profilaktika, reabilitatsiya, iqtisodiy xavfsizlik, yoshlar tarbiyasi.

Аннотация. В данной статье анализируются социально-экономические основы системного подхода в борьбе с наркоманией. Освещаются негативные последствия наркомании для общества, факторы, оказывающие разрушительное влияние на сознание молодежи, а также роль государства, семьи, образовательных учреждений и гражданского общества в решении данной проблемы. Кроме того, рассматривается эффективность механизмов профилактики, реабилитации и социальной адаптации.

Ключевые слова: наркомания, системный подход, социальная защита, профилактика, реабилитация, экономическая безопасность, воспитание молодежи.

Bugungi globallashuv davrida giyohvandlik insoniyat oldida turgan eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu illat nafaqat inson salomatligiga, balki jamiyatning iqtisodiy barqarorligi, ma'naviy muhiti va demografik rivojlanishiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois giyohvandlikka qarshi kurashishda faqat huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, balki tizimli yondashuv asosida kompleks mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Tizimli yondashuv muammoni barcha jihatlar bilan o'rganish, uning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda davlat va jamiyat institutlari hamkorligida yechim topishni nazarda tutadi.

Giyohvandlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari-Giyohvandlikning keng tarqalishi jamiyat taraqqiyotiga katta zarar yetkazadi. Avvalo, bu holat aholining sog'lig'i yomonlashishiga, mehnat unumdorligining pasayishiga hamda jinoyatchilikning ortishiga olib keladi. Ayniqsa, yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishi inson kapitalining susayishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiy jihatdan esa davlat budjetidan sog'liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish va reabilitatsiya ishlari uchun katta mablag' sarflanadi. Natijada iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga salbiy ta'sir yuzaga keladi. Bundan tashqari, giyohvandlik oilaviy nizolar, ajrimlar, ishsizlik va ijtimoiy tengsizlik kabi muammolarni ham kuchaytiradi.

Tizimli yondashuvning asosiy yo'nalishlari

Profilaktik chora-tadbirlar-Giyohvandlikka qarshi kurashning eng samarali usullaridan biri profilaktika hisoblanadi. Bunda ta'lim muassasalarida targ'ibot ishlarini kuchaytirish, yoshlarni sport va madaniy faoliyatga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim va ma'naviy tarbiya-Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash giyohvandlikning oldini olishda muhim omildir. Oila, maktab va mahalla hamkorligi asosida sog'lom ijtimoiy muhit shakllantirilishi lozim.

Tibbiy va psixologik yordam-Giyohvandlikka chalingan shaxslarni davolash, ularni psixologik qo'llab-quvvatlash va reabilitatsiya qilish tizimli yondashuvning muhim qismi hisoblanadi. Reabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish orqali bemorlarni jamiyatga qayta moslashtirish mumkin.

Huquqiy mexanizmlar-Noqonuniy narkotik moddalar savdosiga qarshi qat'iy kurash olib borish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada qonunchilik bazasini mustahkamlash zarur.

Giyohvandlikka qarshi kurashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari Tizimli yondashuvning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari aholining turmush darajasini oshirish, bandlikni ta'minlash va yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. Ishsizlik, kambag'allik va ijtimoiy beqarorlik ko'pincha giyohvandlikka moyillikni kuchaytiradi.

Shu sababli davlat tomonidan:

- yoshlarni ish bilan ta'minlash;
- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- ta'lim sifatini oshirish;
- aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish kabi choralar amalga oshirilishi zarur.

Bunday mexanizmlar jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlikka qarshi kurashishda tizimli yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammoni samarali hal qilish uchun davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi zarur. Profilaktika, ma'naviy tarbiya, rehabilitatsiya va ijtimoiy himoya choralarining uyg'unligi jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 1999.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. World Health Organization. Drug Abuse Prevention and Treatment Guide. – Geneva, 2020.
5. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). World Drug Report. – Vienna, 2023.
6. Axmedov Q. Yoshlar orasida giyohvandlik profilaktikasi masalalari. – Toshkent, 2022.
7. Sodiqov A. Ijtimoiy xavfsizlik va zamonaviy tahdidlar. – Toshkent: Fan, 2021.

МЕЖДУНАРОДНОЕ ЗНАЧЕНИЕ БОРЬБЫ С НАРКОМАНИЕЙ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

Филиппов Ольгерд Александрович,
НУВО «PROFI UNIVERSITY», Навои, Узбекистан,
доктор философии по философским наукам (PhD),
olgerdphilippow@gmail.com, (93) 181-31-57

Тема борьбы с наркоманией в цифровом обществе требует сегодня не только медицинского, правового или педагогического анализа. Она требует более широкого - социально-философского - взгляда. Потому что речь идет не просто о распространении психоактивных веществ, а о состоянии человека в новой цифровой среде: о его свободе, уязвимости, способности к выбору, защищенности от манипуляции и праве на восстановление здоровья.

Наркомания разрушает не только здоровье отдельного человека, она разрывает связи между человеком и семьей, человеком и образованием, человеком и трудом, человеком и будущим. В этом смысле зависимость - это не только болезнь, но и социальная травма, которая показывает, где ослабла социальная жизнь: где не хватило поддержки, смысла, доверия, своевременной помощи, здоровой среды и ясных нравственных ориентиров.

В цифровую эпоху эта проблема становится еще сложнее, - с одной стороны, цифровые технологии открывают новые возможности профилактики: онлайн-консультации, просветительские платформы, горячие линии, дистанционную

психологическую помощь, анализ рисков, международный обмен данными; с другой стороны, та же цифровая среда используется для вовлечения молодежи в опасные практики: через социальные сети, мессенджеры, закрытые группы, даркнет, криптовалютные расчеты, анонимную рекламу и алгоритмическое распространение контента.

По данным 2025 года Управления ООН по наркотикам и преступности, в 2023 году наркотики, исключая алкоголь и табак, употребляли 316 миллионов человек, то есть около шести процентов населения мира в возрасте от 15 до 64 лет [3]. В этом же сообщении подчеркивается, что только один из двенадцати людей с расстройствами, связанными с употреблением наркотиков, получил какую-либо форму лечения в 2023 году [3]. Эти данные важны не сами по себе как статистика, они показывают масштаб моральной и институциональной ответственности: проблема зависимости уже давно вышла за пределы национальных границ.

Всемирная организация здравоохранения рассматривает расстройства, связанные с употреблением наркотиков, как сложные состояния, имеющие биологические, психологические, социальные и средовые причины; такие состояния требуют комплексных, междисциплинарных и ориентированных на общественное здоровье ответов [1]. Это означает, что зависимость нельзя сводить к «плохому выбору» или только к правонарушению, - перед нами человек, который нуждается не только в запрете, но и в помощи; не только в контроле, но и в возвращении к достойной жизни.

Главное противоречие цифрового общества состоит в следующем: технологии одновременно расширяют возможности человека и создают новые формы его уязвимости, интернет может стать пространством знания, поддержки и профилактики, но он же может стать пространством скрытой вербовки, нормализации опасного поведения, распространения ложной информации и вовлечения в криминальные сети.

Международный комитет по контролю над наркотиками в докладе за 2024 год отмечает значение интернета, включая социальные сети, в контексте незаконного оборота и употребления наркотиков; в этой связи подчеркивается необходимость международных механизмов реагирования на технологические возможности, используемые наркопреступностью [2, с. 10]. Особенно опасно то, что социальные сети могут распространять дезинформацию о психическом здоровье и провоцировать нерациональное употребление психотропных веществ [2, с. 72]. Поэтому борьба с наркоманией в цифровом обществе не может ограничиваться лозунгом «запретить», запрет необходим там, где речь идет о преступности и незаконном обороте. Но одной репрессивной логики недостаточно, если цифровая среда формирует новые способы вовлечения, то общество должно формировать новые способы защиты: интеллектуальные, культурные, образовательные, этические и международно-правовые.

Здесь особое значение приобретает искусственный интеллект, он может использоваться для выявления опасных цифровых тенденций, анализа анонимизированных данных, обнаружения незаконных онлайн-сетей, поддержки

специалистов, персонализации профилактических программ и расширения доступа к помощи. Но ИИ нельзя понимать только как технический инструмент, он становится частью социальной среды, где принимаются решения, распределяются риски, формируются нормы доверия и ответственности.

В исследованиях, посвященных искусственному интеллекту в современном обществе, справедливо подчеркивается: достижения ИИ имеют смысл только тогда, когда они соотносятся с подлинно человеческими ценностями [4, с. 590]. Это положение особенно важно для темы наркомании, если ИИ применяется в профилактике зависимости, он должен служить человеку, а не превращать его в объект безличной цифровой классификации. Алгоритм может помогать специалисту, но он не должен заменять человеческое понимание, сострадание и моральную ответственность.

Именно здесь возникает важнейший этический вопрос: как использовать цифровые технологии против наркомании, не разрушая достоинство человека? Можно ли анализировать поведение подростков в сети? Можно ли прогнозировать риск зависимости? Кто отвечает за ошибочную цифровую маркировку человека как «группы риска»? Как защитить персональные данные? Как не превратить профилактику в тотальное наблюдение?

Ответ может быть только системным. Необходимо различать несколько уровней проблемы. Первый уровень - личностный: человек, его здоровье, свобода, психическое состояние, способность сопротивляться манипуляции, второй уровень - семейный: доверие, внимание, поддержка, эмоциональная среда; третий уровень - образовательный: профилактика, цифровая грамотность, критическое мышление, культура ответственности, четвертый уровень - институциональный: медицина, право, социальные службы, молодежная политика, пятый уровень - международный: сотрудничество государств, обмен данными, контроль трансграничных цифровых каналов, согласование правовых и этических норм.

Без такого системного подхода цифровая борьба с наркоманией будет фрагментарной. Одни структуры будут блокировать сайты, другие - проводить лекции, третьи - лечить последствия, четвертые - фиксировать статистику. Но зависимость как социальное явление требует не разрозненных действий, а согласованной стратегии, где профилактика, лечение, социальная реабилитация, цифровая безопасность и международное сотрудничество соединены общей гуманистической целью.

Особое внимание следует уделить молодежи. Молодой человек в цифровом обществе живет не только в семье, школе или университете. Он живет еще и в потоках контента, рекомендаций, лайков, закрытых чатов, игровых сообществ, блогерских образов и виртуальных групп принадлежности. Поэтому профилактика наркомании должна учитывать не только биологический вред веществ, но и социальную привлекательность опасных практик. Для подростка или студента риск часто приходит не в форме прямого предложения «употребить наркотик», а в форме моды, вызова, принадлежности, псевдосвободы, эстетики риска.

Следовательно, образовательная профилактика должна быть деликатнее. Недостаточно показывать устрашающие плакаты, необходимо объяснять механизмы цифровой манипуляции, работу криминальных сетей, психологию зависимости, роль одиночества, тревоги, группового давления. Молодой человек должен понимать, что цифровая свобода без критического мышления легко превращается в управляемую зависимость.

Международное сотрудничество должно включать не только обмен оперативной информацией, но и согласование этических стандартов цифрового противодействия. В отношении ИИ исследователи отмечают отсутствие утвержденных на международном уровне этико-правовых норм и стандартов применения инноваций [4, с. 590]. Эта мысль применима и к цифровой антинаркотической политике. Если технологии становятся глобальными, то и нормы ответственности должны становиться международно согласованными.

Однако здесь важно избежать другой крайности. Борьба с наркоманией не должна становиться оправданием тотального контроля, цифровой мониторинг, искусственный интеллект и анализ данных должны быть прозрачными, законными, ограниченными целью защиты человека и подотчетными обществу. Иначе профилактика может превратиться в цифровое давление, а безопасность - в ограничение свободы.

Технологии ИИ не являются полностью нейтральными: они зависят от данных, целей, ценностей и решений разработчиков; поэтому их использование должно сопровождаться этическим анализом [4, с. 591–592]. В сфере профилактики наркомании это означает, что любые цифровые решения должны проверяться по нескольким вопросам: не нарушают ли они права человека, не усиливают ли стигму, не дискриминируют ли социально уязвимые группы, не подменяют ли живую помощь формальной автоматизацией.

Преодоление наркомании в цифровом обществе должно строиться на принципе гуманной безопасности. Это безопасность, которая защищает не абстрактный порядок, а человека. Она не отказывается от права и контроля, но соединяет их с профилактикой, лечением, социальной поддержкой и культурой доверия. Она видит в зависимом человеке не только нарушителя, но и личность, которую еще можно вернуть к жизни, труду, семье, образованию и обществу. Международная значимость этой задачи связана и с устойчивым развитием. Наркомания усиливает бедность, разрушает человеческий капитал, ослабляет семьи, повышает нагрузку на здравоохранение и правоохранительные органы, угрожает безопасности молодежи. Противодействие ей - это вклад в здоровье, образование, социальную стабильность, безопасность и культуру мира. Поэтому антинаркотическая политика должна быть не периферийной, а центральной частью гуманитарной политики цифрового века.

Важнейшее направление - создание позитивной цифровой альтернативы. Если преступные сети используют интернет для вовлечения, общество должно использовать его для поддержки. Если алгоритмы могут распространять опасный контент, они же могут помогать продвигать проверенную информацию, консультации, программы реабилитации, контакты служб помощи, образовательные

материалы. Если молодежь живет в цифровой среде, профилактика тоже должна быть там - но не как сухая административная инструкция, а как живая, убедительная, ценностно насыщенная коммуникация.

В заключение хочу подчеркнуть: преодоление наркомании в цифровом обществе - это не только вопрос борьбы с веществами. Это вопрос о том, каким будет сам человек в цифровую эпоху. Будет ли он свободным субъектом, способным к выбору и ответственности, или объектом манипуляции, зависимости и цифрового контроля? Будет ли искусственный интеллект инструментом помощи и защиты, или механизмом безличного надзора? Будет ли интернет пространством развития, или пространством скрытого разрушения?

Ответ зависит от того, какие ценности мы положим в основу цифровой политики. Если в центре будут только эффективность, скорость и контроль, мы получим технологически сильное, но морально слабое общество. Если же в центре будут достоинство человека, здоровье, справедливость, ответственность, солидарность и международное сотрудничество, цифровые технологии смогут стать не угрозой, а ресурсом преодоления зависимости.

Таким образом, международное значение борьбы с наркоманией в цифровом обществе состоит в защите человеческого будущего. Эта борьба требует объединения государств, научного сообщества, образовательных институтов, медицинских организаций, технологических компаний, семьи и гражданского общества. И самое главное - она требует ясного понимания: цифровые технологии должны служить человеку, а не пользоваться его слабостью; укреплять свободу, а не создавать новые формы зависимости; поддерживать жизнь, а не превращаться в инфраструктуру разрушения.

Список литературы

1. Всемирная организация здравоохранения. Improving prevention and treatment for drug use disorders [Электронный ресурс]. — URL: <https://www.who.int/activities/improving-prevention-and-treatment-for-drug-use-disorders>.

2. Международный комитет по контролю над наркотиками. Report of the International Narcotics Control Board for 2024. — New York: United Nations, 2025. — 194 p. — URL: https://www.incb.org/documents/Publications/AnnualReports/AR2024/Annual_Report/E-INCB-2024-1-ENG.pdf.

3. Управление ООН по наркотикам и преступности. UNODC World Drug Report 2025: Global instability compounding social, economic and security costs of the world drug problem [Электронный ресурс]. — Vienna, 2025. — URL: https://www.unodc.org/unodc/press/releases/2025/June/unodc-world-drug-report-2025_-global-instability-compounding-social--economic-and-security-costs-of-the-world-drug-problem.html (дата обращения: 18.05.2026).

4. Цвык В. А. Искусственный интеллект в современном обществе: шаги, вызовы, стратегии / В. А. Цвык, И. В. Цвык, Г. И. Цвык // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Философия. — 2024. — Т. 28, № 2. — С. 589–600. — DOI: <https://doi.org/10.22363/2313-2302-2024-28-2-589-600>.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISHDA TIZIMLI YONDASHUVNING IJTIMOIY-IQTISODIY, SIYOSIY VA HUQUQIY ASOSLARI

To'xtamurodova Shahina Olim qizi

Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrası

Falsafa yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar f.f.d., dotsent Shamsutdinova Nigina Karimovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada giyohvandlikka qarshi kurashishda tizimli yondashuvning ahamiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy jihatlarini talqin qilingan. Shuningdek, yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olish, profilaktika choralarini kuchaytirish hamda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: *giyohvandlik, profilaktika, huquqiy asoslar, davlat siyosati, yoshlar tarbiyasi, jinoyatchilik, sog'lom turmush tarzi*

Аннотация: В данной статье рассматривается значение системного подхода в борьбе с наркоманией, раскрываются его социально-экономические, политические и правовые аспекты. Также изложены соображения по профилактике наркомании среди молодёжи, усилению мер предупреждения и приоритетным направлениям государственной политики.

Ключевые слова: *наркомания, профилактика, правовые основы, государственная политика, воспитание молодёжи, преступность, здоровый образ жизни.*

Abstract: This article discusses the importance of a systematic approach in combating drug addiction, interpreting its socio-economic, political, and legal aspects. It also presents considerations on preventing drug addiction among young people, strengthening preventive measures, and the priority directions of state policy.

Keywords: *drug addiction, prevention, legal frameworks, state policy, youth education, crime, healthy lifestyle.*

Bugungu kunda giyohvandlik insoniyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzi aholisining deyarli 500mlndan ortiq qismi giyohvandlik vositalarini va psixotrop moddalarni iste'mol qilib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham giyohvandlik tendensiyasi so'nggi yillarda kuchayib, ayniqsa yoshlarda bu muammoga qarshi kurash zarurati oshmoqda. Davlatimizda 5mingga yaqin fuqaro qaram bo'lib, ularning 31%ini 20-40 yoshdagilar tashkil etadi[1]. Ushbu illat inson salomatligi, jamiyat barqarorligida hamda davlat xavfsizligiga jiddiy xavf tug'diradi. Ayniqsa, yoshlar orasida giyohvandlik moddalarini iste'molining ortib borishi kelajak avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ham giyohvandlikka qarshi kurashish va uning oldini olish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Giyohvandlik inson organizmiga jiddiy zarar yetkazibgina qolmay, jamiyatda jinoyatchilikning ortishiga ham sabab bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatlar sonining oshishi huquqbuzarliklarning ko'payishiga olib

keladi.[2]Giyohvandlikka mukkasidan ketgan shaxslarning aksariyati mehnat faoliyatidan chetda qoladi

Hozirgi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1987-yil 7-dekabrdagi qaroriga asosan, 26-iyun «Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni» deb e'lon qilingan va mazkur tashkilot tomonidan "Narkotik moddalar to'g'risida"gi, "Psixotrop moddalar" hamda "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi qurash to'g'risida"gi konventsiyalar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasida ham xalqaro huquqning umum e'tiroflangan [3]

Giyohvandlikning kelib chiqishiga sababbo'luvchi omillar orasida ishsizlik, kambag'allik, oilaviy muammolar va ijtimoiy nazoratning sustligi alohida o'rin tutadi. Shu sababli aholining turmush darajasini yaxshilash va yoshlar bandigini ta'minlash giyohvandlikning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda davlat tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni kasb-hunarga o'rgatish hamda tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish bo'yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu esa yoshlarning zararli illatlarga berilishining oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, psixologik treninglar va profilaktik tadbirlarni muntazam tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega.

Giyohvandlikka qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlar salomatligini himoya qilish, jinoyatchilikning oldini olish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan narkotik vositalarning noqonuniy aylanishiga qarshi maxsus dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular profilaktika, nazorat va reabilitatsiya choralarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda transmilliy narkojinoyatchilikka qarshi kurash olib borilmoqda. Siyosiy jihatdan olib qaraganda, giyohvandlikka qarshi samarali kurash jamiyat barqarorligi va milliy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlikka qarshi kurashishning mustahkam huquqiy bazasi yaratilgan. Jumladan, "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida" gi Qonun hamda Jinoyat kodeksida narkotik moddalarni noqonuniy tayyorlash, saqlash, tashish va sotish uchun javobgarlik belgilangan.[3] Qonunchilikka muvofiq, giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatlar uchun qat'iy jazo choralari qo'llaniladi. Shu bilan birga, profilaktika va reabilitatsiya masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.[4] Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan muntazam ravishda tezkor-profilaktik tadbirlar o'tkazilib, noqonuniy narkotik moddalar savdosiga chek qo'yish choralari ko'rilmogda.

Xulosa gilib aytganda, giyohvandlikka qarshi kurashishda tizimli yondashuvni amalga oshirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu muammoni bartaraf etishda itimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy choralarni o'zaro uyg'un holda qo'llash zarur. Ayniqsa, yoshlarni ma'naviy go'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta' minlash, huquqiy madaniyatini oshirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish giyohvandlikning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Davlat va jamiyatning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari orqali ushbu illatga qarshi samarali kurashish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzbekistan <http://www.scientificprogress.uz/> .<https://daryo.uz>

2. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
3. Kriminologiya: darslik. – Toshkent, 2021
4. Nurqulov B . Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish omillari Toshkent,2024
5. Nurqulov B. Pitrim Sorokinning ” Sotsial va madaniy dinamika” asari Toshkent,2024

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA TIZIMLI YONDASHUV: IJTIMOIY TIZIMNING SIMMETRIK VA ASIMMETRIK XUSUSIYATLARI

**U.R.Bekpo‘latov – Navoiy davlat universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori (DSc)**

Giyohvandlik XXI asrda insoniyat duch kelayotgan eng murakkab va ko‘p qirrali global muammolardan biri bo‘lib, u jamiyat hayotining barcha jabhalariga - ijtimoiy munosabatlar tizimi, iqtisodiy barqarorlik, siyosiy boshqaruv va huquqiy tartibotga bevosita hamda bilvosita salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mazkur illat nafaqat alohida shaxs salomatligi va ijtimoiy mavqeiga, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga tahdid soluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois giyohvandlikka qarshi kurash masalasi bugungi kunda alohida davlat yoki mintaqa doirasidan chiqib, umumbashariy muammo sifatida qaralmoqda.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlikka qarshi kurashda faqatgina fragmentar, ya‘ni alohida va uzviy bo‘lmagan chora-tadbirlar kutilgan natijani bermaydi. Mazkur muammoni samarali hal etish uchun ijtimoiy tizimning barcha tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘liq holda qamrab oluvchi tizimli yondashuv zarur. Tizimli yondashuv giyohvandlikni faqat jinoyatchilik yoki tibbiy muammo sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin etishga imkon beradi.

Ushbu yondashuv doirasida ijtimoiy tizimning simmetrik va asimmetrik xususiyatlarini tahlil qilish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Simmetriya jamiyatda muvozanat, barqarorlik va institutlararo uyg‘unlikni ifodalasa, asimmetriya esa resurslar, vakolatlar, imkoniyatlar hamda ijtimoiy ta‘sir darajalaridagi nomutanosibliklarni aks ettiradi. Giyohvandlikning tarqalishi va unga qarshi kurash samaradorligi ko‘p jihatdan aynan ushbu simmetrik va asimmetrik holatlarning qanday namoyon bo‘lishiga bog‘liq.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada giyohvandlikka qarshi kurashda tizimli yondashuvning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslari simmetriya va asimmetriya kategoriyalari orqali tahlil qilinadi hamda ushbu yondashuvning nazariy va amaliy imkoniyatlari ochib beriladi.

Ijtimoiy-falsafiy va tizimli tahlil nuqtai nazaridan simmetriya tushunchasi ijtimoiy tizimni tashkil etuvchi tarkibiy elementlar — institutlar, subyektlar, mexanizmlar va munosabatlar o‘rtasidagi muvozanat, mutanosiblik hamda funksional uyg‘unlikni ifodalaydi. Simmetrik holat jamiyatda barqarorlikni, ijtimoiy tartibning izchilligini va

boshqaruv jarayonlarining samaradorligini ta'minlaydi. Bunday sharoitda ijtimoiy tizimning har bir bo'g'ini o'z vazifasini aniq bajaradi va umumiy maqsadga xizmat qiladi.

Asimmetriya esa ijtimoiy tizimda muvozanatning buzilishi, tarkibiy qismlar o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Bu holat resurslar, vakolatlar, imkoniyatlar yoki mas'uliyatning notekis taqsimlanishida, shuningdek, ijtimoiy institutlar faoliyatidagi uzilish va ziddiyatlarda namoyon bo'ladi. Asimmetriya ma'lum sharoitlarda rivojlanish va yangilanish omili bo'lishi mumkin bo'lsa-da, uning chuqurlashuvi ijtimoiy tizimning izdan chiqishiga olib keladi.

Giyohvandlikka qarshi kurash tizimida simmetriya davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarining o'zaro uyg'unlashuvi orqali namoyon bo'ladi. Bunda davlatning normativ-huquqiy va institutsional faoliyati, fuqarolik jamiyati institutlarining profilaktik va ma'rifiy ishlari hamda shaxsning ongli mas'uliyati o'zaro to'ldiruvchi va muvofiqlashtirilgan holda amal qiladi. Natijada giyohvandlikka qarshi kurash yagona, izchil va samarali tizim sifatida shakllanadi.

Asimmetriya esa ushbu subyektlar o'rtasidagi aloqalarning uzilishi, mas'uliyatning faqat bitta bo'g'inga yuklanishi yoki muayyan mexanizmlarning yetarli darajada ishlamasligi bilan ifodalanadi. Masalan, faqat jazolashga asoslangan yondashuvning ustuvor bo'lishi, ijtimoiy profilaktika va reabilitatsiya choralarining yetarli darajada rivojlanmaganligi tizimdagi asimmetrik holatni kuchaytiradi. Bu esa giyohvandlik muammosining chuqurlashishiga va qarshi kurash samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Shu bois giyohvandlikka qarshi kurashda simmetriya va asimmetriya tushunchalarini ijtimoiy mazmuni bilan chuqur tahlil qilish, mavjud nomutanosibliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tizimli choralarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Giyohvandlikka qarshi kurash tizimida **simmetrik holatlar** tizim elementlarining o'zaro mutanosib, muvofiqlashgan va barqaror faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Bunday yondashuvda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy sohalar bir-birini to'ldiradi hamda yagona strategik maqsad - giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi samarali kurashishni ta'minlaydi.

Ijtimoiy sohada simmetriya. Ijtimoiy sohadagi simmetrik holat, avvalo, **profilaktika, ta'lim va tarbiya tizimining uyg'unligi** bilan belgilanadi. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritgan taqdirda, shaxs ongida sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy mas'uliyat va huquqiy madaniyat barqaror shakllanadi. Bu esa giyohvandlikka moyillikni dastlabki bosqichdayoq bartaraf etishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy sohada simmetriya. Iqtisodiy simmetriya **bandlikni ta'minlash**, yoshlar va aholining zaif qatlamlari uchun teng iqtisodiy imkoniyatlar yaratish orqali namoyon bo'ladi. Mehnat bozorida barqarorlik, kasb-hunar egallash imkoniyatlari va ijtimoiy himoya mexanizmlarining izchil ishlashi giyohvandlikning ijtimoiy-iqtisodiy ildizlarini zaiflashtiradi.

Siyosiy sohada simmetriya. Siyosiy simmetriya davlat siyosatining **izchil, barqaror va uzoq muddatli strategiya** asosida olib borilishida ifodalanadi. Qisqa muddatli kompaniyaviy choralar emas, balki kompleks va tizimli dasturlar orqali giyohvandlikka qarshi kurash olib borilishi siyosiy barqarorlik va ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi.

Huquqiy sohada simmetriya. Huquqiy simmetriya qonunlarning **barcha fuqarolar uchun teng va adolatli qo'llanilishi** bilan tavsiflanadi. Profilaktika, javobgarlik va rehabilitatsiya mexanizmlarining huquqiy jihatdan muvozanatli bo'lishi giyohvandlikka qarshi kurashda huquqiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Samarali kurash mexanizmi tizim elementlarining izchil integratsiyasiga asoslanadi. Giyohvandlik muammosi murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun uni faqat bitta soha doirasida hal etish mumkin emas. Shu sababli preventiv, repressiv, rehabilitatsion va ma'naviy tizimlar o'zaro bog'langan yagona ijtimoiy himoya modeli sifatida ishlashi zarur. Ushbu integratsiya ijtimoiy tizimda simmetrik muvozanatni ta'minlaydi.

Preventiv tizim – erta ogohlantirish va profilaktika. Preventiv tizim giyohvandlikka qarshi kurashning eng birlamchi va strategik bosqichini tashkil etadi. Uning asosiy vazifasi muammoning yuzaga kelishidan oldin uning omillarini aniqlash va oldini olishdir. Bu bosqichda ta'lim muassasalari, oila, mahalla va ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynaydi. Profilaktika jarayonida yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, psixologik barqarorlikni shakllantirish, ijtimoiy xavf guruhlarini erta aniqlash tizimi ishlab chiqiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalari orqali salbiy ta'sirlarning monitoringi va ijtimoiy tarmoqlardagi xavfli kontentlarga qarshi tezkor javob mexanizmlari ham preventiv tizimning muhim qismi hisoblanadi.

Repressiv tizim – huquqiy nazorat va jinoyatchilikka qarshi kurash. Repressiv tizim giyohvandlikning noqonuniy aylanishi va tarqalishiga qarshi huquqiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organlari asosiy subyekt sifatida maydonga chiqadi.

Ushbu tizimning vazifasi jinoyatlarning oldini olish bilan birga, aniqlangan huquqbuzarliklarni qonuniy tartibda bartaraf etishdir. Bunda jazo muqarrarlari prinsipi bilan bir qatorda, ijtimoiy adolat va inson huquqlariga rioya etish tamoyillari ham muhim o'rin tutadi. Repressiv choralar preventiv tizim bilan uyg'un ishlamasa, faqat jazolovchi yondashuv ijtimoiy asimmetriyani kuchaytirishi mumkin.

Rehabilitatsion tizim – davolash va ijtimoiy moslashtirish. Rehabilitatsion tizim giyohvandlikka duch kelgan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilishga qaratilgan. Bu bosqichda tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordam kompleks tarzda amalga oshiriladi. Rehabilitatsiya jarayonida bemorlarning sog'lig'ini tiklash bilan birga, ularning ijtimoiy rolini qayta shakllantirish muhimdir. Mehnatga moslashtirish, kasbiy tayyorgarlik, psixologik qo'llab-quvvatlash va oilaviy muhitni tiklash rehabilitatsion tizimning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Ushbu tizim samarali ishlamasa, giyohvandlikning qayta takrorlanish xavfi yuqori bo'ladi.

Ma'naviy tizim – qadriyatlar, tarbiya va ijtimoiy ongni shakllantirish. Ma'naviy tizim giyohvandlikka qarshi kurashning eng chuqur va uzoq muddatli ta'sirga ega bo'lgan yo'nalishidir. U jamiyatda sog'lom qadriyatlar tizimini shakllantirish, axloqiy me'yorlarni mustahkamlash va ijtimoiy ongni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu tizimda ta'lim muassasalari, diniy-ma'rifiy institutlar, madaniyat va san'at sohasi muhim rol o'ynaydi. Yosh avlodda mas'uliyat, ijtimoiy faollik, huquqiy madaniyat va sog'lom hayot tarziga intilish kabi fazilatlar shakllantiriladi. Ma'naviy tizim kuchli bo'lgan jamiyatda giyohvandlikka moyillik darajasi sezilarli darajada kamayadi.

Ushbu to'rtta tizim - preventiv, repressiv, rehabilitatsion va ma'naviy tizimlar - o'zaro muvofiqlashganda yagona simmetrik ijtimoiy himoya mexanizmi yuzaga keladi. Bunday holatda har bir tizim boshqa tizimning kamchiliklarini to'ldirib boradi va umumiy ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Agar ushbu tizimlar o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelsa, ya'ni biri kuchli, boshqasi esa sust ishlasa, ijtimoiy asimmetriya kuchayadi va giyohvandlikka qarshi kurash samaradorligi pasayadi. Shu bois integratsiya nafaqat tashkiliy, balki strategik va metodologik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Giyohvandlikka qarshi kurashni tizimli yondashuv asosida tashkil etish ijtimoiy tizimning simmetrik va asimmetrik xususiyatlarini chuqur va ko'p darajali tahlil qilishni talab etadi. Bu jarayonda jamiyatning barcha institutlari o'zaro bog'langan yaxlit tizim sifatida qaraladi hamda ularning funksional muvozanati muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Simmetrik yondashuv ijtimoiy tizim elementlari o'rtasidagi barqaror muvozanat, o'zaro uyg'unlik va funksional moslikni ifodalaydi. Bunday yondashuvda huquqiy, tibbiy, pedagogik va ma'naviy mexanizmlar o'zaro integratsiyalashgan holda ishlaydi, natijada giyohvandlikka qarshi kurashning samaradorligi ortadi. Simmetriya sharoitida profilaktika, davolash, rehabilitatsiya va nazorat tizimlari bir-birini to'ldiruvchi yaxlit mexanizmga aylanadi.

Aksincha, asimmetriya ijtimoiy tizimdagi nomutanosiblik, uzilish va funksional nomuvofiqlik holatlarini anglatadi. Bunday sharoitda ayrim institutlar haddan tashqari kuchayib, boshqalari esa yetarli darajada rivojlanmay qoladi. Natijada giyohvandlikka qarshi kurashda tizimlararo aloqalar zaiflashadi, profilaktik va rehabilitatsion imkoniyatlar cheklanadi hamda muammo chuqurlashish tendensiyasiga ega bo'ladi.

Shu bois, giyohvandlikka qarshi kurashda kompleks, integratsiyalashgan va muvozanatli tizimni shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Bunday tizim nafaqat mavjud muammolarga javob berishi, balki ularning paydo bo'lish sabablarini oldindan bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Natijada ijtimoiy tizimda barqaror simmetrik holatni ta'minlash va asimmetrik buzilishlarning oldini olish imkoniyati kengayadi.

YOSHLAR O'RTASIDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MASALASINING NAZARIY JIHATLARI

M.X.Norqobilov,
NavDU Tarix kafedrası dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa dortori (PhD)

Annotatsiya. Bugungi kunda jamiyatimizda, O'zbekiston Respublikasi giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamjamiyat oldidagi o'z majburiyatlarini to'laqonli bajarishiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Mazkur maqolada giyohvandlik, uning salbiy oqibatlari, giyohvandlik balosiga qarshi kurashishda yurtimizda ishlab chiqilgan mustahkam huquqiy asoslar atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, xalqaro hamjamiyat, noqonuniy aylanma, salbiy oqibatlar.

Mamlakatimizda giyohvand moddalar savdosi va iste'moliga qarshi keskin choralar ko'rilayotgan bo'lsa-da, bugun giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi eng xatarli va dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. 1999-yilda O'zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingan bo'lib, mazkur qonunga muvofiq giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga zid ravishda muomalada bo'lishning har qanday ko'rinishlariga qarshi jinoiy javobgarlik belgilangan. Giyohfurushlar yangi usul va nayranglarni qo'llab, zahri qotilni sotish harakatlarini davom ettirishmoqda. Ular manfur maqsadlarini amalga oshirish yo'lida hali dunyoqarashi shakllanmagan, o'zgalar ta'siriga tushib qolishga moyil yoshlar umriga zomin bo'lishmoqda.

Giyohvand moddalar insonni ayni kuch-quvvatga to'lgan davrida alkogolga nisbatan 4- 6 barobar tezroq halokatga uchratadi. Ba'zi olimlarning e'trof etishiga qaraganda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalari savdosi avj olgan ma'mlakatlarda ushbu jirkanch illatga ruju qo'yish quyidagi asoratlarni keltirib chiqarmoqda:

1. Iqtisodiy asoratlar: katta pul sarflanishi, daromadlarning yo'qolishi, ishni yo'qotish, qarzga botish, talonchilik va tilanchilik;

2. Ma'naviy asoratlar: oilalarning buzilishi, befarqlik, tushkunlik, norozilik, xudbinlik, mahdudlik;

3. Jinoiy asoratlar: o'g'rilik, bosqinchilik, odam o'ldirish, urush va terror;

Yuqoridagi dunyoviy asoratlardan tashqari musulmon kishining giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishi muqaddas islom dinimizda ham qattiq qoralanadi. Xususan xadisi sharifda keltirilishicha "Payg'ambar (s.a.v.) har qanday mast qiluvchi, badanni bo'shashtiruvchi va susaytiruvchi narsalarni iste'mol qilishdan qaytardilar" deyilgan (Ahmad va Abu Dovud rivoyati). Mazkur hadisi sharif har qanday turdagi giyohvandlik harom ekaniga dalolat qiladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda bahor va kuz oylarida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy iste'mol qiluvchi shaxslarda kasallik asoratlari kuchaydi va bu davrda mazkur moddalar savdosi avjiga chiqadi. Giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasiga oid jinoyat ishlari tahlili

shuni ko'rsatadiki, mazkur turdagi jinoiy qilmishlarning 60 foizi aynan fevral-aprel, 25 foizi sentyabr-noyabr, 15 foizi esa, boshqa davrlarda sodir etiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda giyohvandlik vositalarini o'stirish va sotishga qaraganda psixotrop moddalar va ularning analoglarini dorixonalardan olish hollari yoshlar o'rtasida keng tarqalmoqda shu sababli biz ushbu turdagi psixotrop moddalar va ularning analoglarini noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish uchun quyidagi takliflar o'rinli:

1. Har bir hududdagi dorixonalarda psixotrop moddalar va ularning analoglarini sotilish noqonuniy sotilish holatlarini hududiy profilaktikka inspektorlari tomonidan qat'iy nazoratga olish;

2. Bemorlarga tarkibida psixotrop moddalar va ularning analoglari bo'lgan dori vositalarini har bir hududdagi shifoxonalar, diagnostik klinikalarda faoliyat yuritayotgan shifokorlarning maxsus retsepti asosida berish;

3. Har bir hududdagi shifoxonalar va diagnostik klinikalarda faoliyat yuritayotgan shifokorlar tomonidan kimga qancha miqdorda tarkibida psixotrop moddalar va ularning analoglari bo'lgan dori vositalarini sotib olib, davolanish uchun maxsus retsept yozib berganligini kunlik yuritib borish va har oyning ohirgi 3 kunligida shifoxonalar va diagnostik klinika rahbarlari tomonidan hududiy ichki ishlar organlariga hisobot topshirish;

4. Har bir dorixonalarda tarkibida psixotrop moddalar va ularning analoglari bo'lgan dori vositalarini qaysi shifokorning maxsus retsepti asosida qancha miqdorda sotganligi hisobini kunlik yuritib borish va har oyning birinchi 3 kunligida dorixona rahbarlari tomonidan hududiy ichki ishlar organlariga hisobot topshirish. Bizning fikrimizcha yuqorida bergan takliflarimiz albatta o'zining ijobiy natijasini beradi va jamiyatimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanmasiga chek qo'yishga yaxshigina imkoniyat yaratib beradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bugungi kunda yurtimizda "Barcha sayi harakatlar inson qadri uchun" deb nomlangan ezgu maqsad yo'lida harakat qilinayotgan davrda fuqarolarimizning mana shunday jirkanch illatga ruju qo'yishi yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek bir qator salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi milliy va xalqaro mutaxassis olimlarning tadqiqotlari natijasidan ham ayon bo'ldi. Hozirgi kunda jamiyatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholanib qolinayotgan holatlar ham uchrab turibdi. Shu sababli ham jamiyatimizda yoshlar o'rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar aylanmasiga chek qo'yish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'rg'ib qilish uchun barchamiz birdek mas'ulmiz.

REFERENCES

1. <https://uwed.uz/en/news/fulltext/1669>;
2. <https://lex.uz/ru/docs/-86044>;
3. <https://islom.ziyouz.com/maqola/xorlikka-eltuvchi-qora-ajal>;
4. S.Eshqobilov, B.Raimjonov/Huquqbuzarliklarning oldini olishning dolzarb masalalari:Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2021-yil 12-noyabr). –T.: Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali, 2022. –109b.

YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISH: TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI

Mansurova Malohat Yunus qizi –

Navoiy davlat universiteti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: m.malohat@1992gmail.com

Tel: +998 91 330 19 92

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olishda ta'lim va tarbiyaning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, giyohvandlikning yoshlar hayoti, sog'lig'i va kelajagiga salbiy ta'siri tahlil qilinib, oilaning, ta'lim muassasalarining hamda jamiyatning bu boradagi mas'uliyati ko'rib chiqilgan. Yoshlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish, ularning ongida zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirish va ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish orqali giyohvandlikka qarshi samarali profilaktika olib borish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, yoshlar, ta'lim, tarbiya, profilaktika, sog'lom turmush tarzi, ma'naviy tarbiya, zararli odatlar, oila, jamiyat, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy muammo.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar tarbiyasi va ularning sog'lom hayot tarzini shakllantirish masalasi jamiyat oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, giyohvandlik kabi illatlarning yoshlar orasida tarqalishi nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Giyohvandlik inson salomatligini izdan chiqaradi, ma'naviy qadriyatlarning yemirilishiga olib keladi hamda jinoyatchilik, oilaviy nizolar va ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi¹. Yoshlarni giyohvandlikdan himoya qilishda ta'lim va tarbiya muhim vosita hisoblanadi. Chunki insonning dunyoqarashi, hayotiy qadriyatlari va ijtimoiy xulqi aynan ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Maktab, oila, mahalla va oliy ta'lim muassasalari yoshlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda asosiy ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritadi.

Giyohvandlik — bu inson organizmining narkotik moddalarni muntazam iste'mol qilish natijasida ularga jismoniy va ruhiy jihatdan qaram bo'lib qolishidir. Bunday qaramlik inson salomatligi, ruhiyati va ijtimoiy hayotiga jiddiy zarar yetkazadi.

Mutaxassislarining fikricha, yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi²:

- oiladagi nosog'lom muhit;
- nazoratning sustligi;
- tengdoshlarning salbiy ta'siri;
- internet va ommaviy axborot vositalaridagi zararli axborotlar;
- ishsizlik va bo'sh vaqtning mazmunsiz o'tishi;
- psixologik tushkunlik va stress.

Ayniqsa, o'smirlik davrida yoshlar qiziquvchan, hissiyotlarga beriluvchan bo'lgani sababli turli zararli odatlarga tez berilib ketishi mumkin. Giyohvand moddalarni bir marotaba sinab ko'rish ham keyinchalik kuchli qaramlikni yuzaga keltiradi.

¹ Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlari. *Drugs and public health report*. – Geneva, 2021. – P. 15–18.

² Hasanboyev J. *Oila pedagogikasi*. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 64–67.

Giyohvandlikning salbiy oqibatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Sog‘liqning yomonlashuvi – yurak, jigar, asab tizimi faoliyatining buzilishi.
2. Ruhiy muammolar – depressiya, agressivlik, xotira susayishi.
3. Ijtimoiy inqiroz – oilaviy nizolar, o‘qish va ish faoliyatining pasayishi.
4. Jinoyatchilikning ortishi – narkotik moddalarni topish maqsadida noqonuniy

harakatlar sodir etilishi³.

Shu sababli giyohvandlikka qarshi kurash nafaqat tibbiy, balki ma’naviy-ma’rifiy masala ham hisoblanadi.

Ta’lim tizimi yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab va oliy ta’lim muassasalari faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, yoshlarning ma’naviy immunitetini shakllantirishi ham zarur.

Giyohvandlikning oldini olishda ta’lim tizimining quyidagi yo‘nalishlari muhim hisoblanadi:

1. Huquqiy va tibbiy bilimlarni oshirish

O‘quvchilarga narkotik moddalarning zararli oqibatlari haqida muntazam tushuntirish ishlari olib borilishi kerak. Maxsus seminarlar, uchrashuvlar va davra suhbatlari orqali yoshlar ongida giyohvandlikka nisbatan salbiy munosabat shakllantiriladi.

Biologiya, tarbiya va huquq fanlari orqali narkotik vositalarning inson organizmiga ta’siri ilmiy asosda tushuntirilsa, bu o‘quvchilarning ongli qaror qabul qilishiga yordam beradi.

2. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish

Sport musobaqalari, madaniy tadbirlar va ijodiy to‘garaklar yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etadi. Sport bilan muntazam shug‘ullangan yoshlar zararli odatlardan uzoq bo‘ladi⁴.

Sog‘lom turmush tarzi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- to‘g‘ri ovqatlanish;
- jismoniy faollik;
- zararli odatlardan voz kechish;
- ruhiy salomatlikni saqlash.

3. Psixologik yordam xizmatlarini rivojlantirish

Ba’zi yoshlar ruhiy bosim yoki oilaviy muammolar sababli giyohvandlikka moyil bo‘lib qoladi. Shu sababli ta’lim muassasalarida psixologlar faoliyatini kuchaytirish muhimdir. Psixologik suhbatlar yoshlarning ichki muammolarini aniqlash va ularni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishga yordam beradi.

Ta’lim tizimi yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda asosiy institut hisoblanadi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, zararli odatlar haqida tushuntirish ishlari muntazam olib borilishi kerak.

Ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhit yaratish katta ahamiyatga ega. O‘quvchi o‘zini hurmat qilinadigan va qo‘llab-quvvatlanadigan muhitda his qilsa, zararli odatlarga kamroq moyil bo‘ladi.

³ Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma’lumotlari. – P. 22–25.

⁴ Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – B. 145–147.

Tarbiyaning asosiy maqsadi — yoshlarni ma'nan yetuk, vatanparvar va sog'lom qilib voyaga yetkazishdir. Farzand tarbiyasida avvalo oilaning o'rni katta.

Yoshlar orasida giyohvandlikni oldini olish uchun kompleks profilaktik tadbirlarni amalga oshirish zarur⁵. Bunda davlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, oila va jamoatchilik hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi choralar samarali hisoblanadi:

1. Maktab va oliygohlarda muntazam targ'ibot ishlari olib borish.
2. Yoshlarni sport va san'atga keng jalb etish.
3. Internetdagi zararli axborotlardan himoya qilish.
4. Psixologik markazlar faoliyatini kengaytirish.
5. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.
6. Giyohvandlikka qarshi ijtimoiy reklamalarni ko'paytirish.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda sog'lom hayot tarzini targ'ib qiluvchi ko'rsatuvlar va loyihalarni ko'paytirish ham muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu muammoni hal etishda ta'lim va tarbiya asosiy vosita hisoblanadi. Yoshlarning ongida sog'lom turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlar va hayotga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish orqali ularni zararli illatlardan himoya qilish mumkin.

Oila, maktab, mahalla va jamiyat birgalikda harakat qilgan taqdirdagina sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga erishiladi. Yoshlar kelajagi — jamiyat kelajagi ekanini unutmaslik lozim. Shu bois har bir inson yoshlarni giyohvandlikdan asrashga o'z hissasini qo'shishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 108–110.
2. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlari. *Drugs and public health report*. – Geneva, 2021. – P. 15–18.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020. – 3-modda.
4. Hasanboyev J. *Oila pedagogikasi*. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 64–67.
5. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlari. – P. 22–25.
6. Axmedov Q. *Pedagogika asoslari*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – B. 91–95.
7. Pedagogika va psixologiya bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2021. – B. 52–55.
8. Hasanboyev J. *Oila pedagogikasi*. – B. 101–104.
9. O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2016. – 5-modda.

⁵ O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2016. – 5-modda.

ГИЁХВАНДЛИК МУАММОСИ ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ

Ачилова Мархабо Эшназаровна

НавДУ Ижтимоий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация. Мазкур тезисда гиёхвандликнинг глобал муаммо сифатидаги хусусиятлари ёритилган. Унга қарши курашнинг ижтимоий –сиёсий механизмлари: ҳуқуқ-тарғибот, тиббий-педагогик ёндашувлари ўрганилган.

Калит сўзлар: гиёхвандлик, ҳуқуқ-тарғибот, тиббий-педагогик ёндашув, глобал муаммо.

Аннотация. В данном тезисе освещены особенности наркомании как глобальной проблемы. Изучены социально-политические механизмы борьбы с ним: правоохранительные и медико-педагогические подходы.

Ключевые слова: наркомания, глобальная проблема, социально-политические механизмы, правоохранительные подходы, медико-педагогические подходы.

Annotation. This thesis highlights the features of drug addiction as a global problem. It examines the socio-political mechanisms for combating it, specifically focusing on law enforcement and medico-pedagogical approaches.

Keywords: addiction, global problem, socio-political mechanisms, law enforcement approaches, legalistic approaches.

Инсоният тарихи неча минг йиллик тараққиёти давомида барча соҳалар каби маданият ва маърифатда ҳам юксак натижаларга эришди. Бироқ шундай бир иллат борки, у илмни ҳам, маърифатни ҳам, умуман олганда, барча инсоний қадриятларни бир зумда вайрон қилиб юборади. Бу — гиёхвандлик илллати. Унинг зарари бутун оила, жамият, миллат ва инсоният ҳаётини таҳлика остига қўяди.

Мутахассислар тадқиқотида кўра, гиёхванд моддалар, энг аввало, инсон миясини бузади: аввалига “бахт гормони” деб аталган дофаминни сунъий кўпайтириб, юзаки лаззат ҳиссини беради. Бир неча дақиқалик “фароғат” туйғусидан кейин эса, азобли занжир қисми бошланади: юрак ва қон томир тизими бузилиши натижасида қон босими кескин ўзгариб, томирлар тортилади, юрак “чарчаб” ишдан чиқади, жигар ва буйрак фаолиятини сусайтиради, иммун тизимини заифлаштиради, организмнинг вирус ва бактерияларга қарши курашиш қобилияти пасайиб, энг кичик инфекция ҳам оғир хасталикларни келтириб чиқаради. Энг ёмони, гиёхвандлик инсон руҳини сўндиради, у оилага меҳр-муҳаббатни, ота-онани, яқин оғайниларни, ҳаёт мазмунини ҳис этмай қўяди. Ана шу руҳий қарамлик уни жиноятга етаклайди: пул учун на ўғирликдан, на фирибгарликдан, на хиёнатдан — ҳеч нарсадан тап тортмайди⁶. Шунингдек, гиёхванд моддалар таркибидаги мавжуд: героин, кокаин, опиатлар, каннабиноидлар каби синтетик моддаларни истеъмол қилиш инсон психикасини бузади, онги ва жисмоний саломатлигига жиддий зарар етказади. Натижада организмда ақлий заифлик ва руҳий беқарорлик пайдо бўлади, жиноятга

⁶ Қ.Исаров. Гиёхвандлик-инсоният ҳаётига таҳдид. Sud.uz/news-2025-06-12-1.

мойиллик ошади, ижтимоий ажралиш, оилавий бузилишлар содир этилади ва юкумли касалликлар (масалан, ОИТС, гепатит) тарқалишига сабаб бўлади.

Алоҳида таъкидлаш лозимки, XX асрнинг охирларига келиб, гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний савдоси чегара билмас вайронкор кучга айланиб, глобал даражадаги аҳамият касб этди. Натижада инсониятга жуда катта хавф туғдира бошлаган бу муаммога қарши курашиш борасида бир қатор халқаро конвенциялар қабул қилинди. Жумладан, 1961, 1971, 1988- йилларда қабул қилинган конвенциялар гиёҳвандликка қарши курашда нафақат халқаро, балки ҳар бир иштирокчи давлатнинг ички тизими яратилиши лозимлигини белгилаб берди. БМТнинг Наркотиклар ва жиноятчиликни назорат қилиш бошқармаси ҳисоботида кўра, дунёда гиёҳванд моддалар истеъмол қилувчилар сони 10 йил ичида 23 фоиз ўсган. Яъни, 240 миллиондан – 296 миллион нафарга етган.

Ўзбекистон Республикаси ҳам гиёҳвандликнинг олдини олиш ва унга қарши кураш борасидаги халқаро конвенцияларнинг тўлақонли иштирокчиси бўлиб, ушбу конвенциялар юзасидан олинган мажбуриятларнинг амалий чора-тадбирларини ишлаб чиқмоқда. Бу ҳақда сўз борганда, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг дунёдаги глобал муаммолар ечими борасида илгари сурган бир неча ташаббуслари халқаро ҳамжамият томонидан қўллаб-қувватланганлигини таъкидлаш лозим. Жумладан, давлатимиз раҳбарининг 2021 йил сентябрида бўлиб ўтган БМТ Бош Ассамблеяси 76-сессиясидаги долзарб таклифларидан бири – глобал муаммога айланган гиёҳвандликка қарши кураш мавзуси билан бевосита боғлиқ. Маъруза орқали Ўзбекистон Президенти бутун дунё аҳлини гиёҳвандликка қарши кураш борасида ўзаро бирдамлик ва ҳамкорликда иш олиб боришга чорлади. 2024 йил 4 июнь куни Президентимиз ташаббуси асосида тайёрланган резолюция БМТ Бош Ассамблеясида бир овоздан маъқулланди ва қабул қилинди. Мазкур резолюция “Марказий Осиё давлатларининг гиёҳвандлик билан боғлиқ муаммоларни самарали ҳал этиш ва бартараф этиш учун ягона фронт бўлиб ҳаракат қилиш ва ҳамкорлик қилишга тайёрлиги” деб номланган. Шу ўринда сўнгги йилларда мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотлар доирасида аҳоли орасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, юртдошларимизда гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларга нисбатан қарши иммунитетни Президентимиз ташаббуси асосида тайёрланган резолюция шакллантириш борасидаги ишлар тубдан кучайганини таъкидлаш зарур. 1999 йилда қабул қилинган “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги Қонун фикримиз далилидир. Мамлакатимизда барча турдаги гиёҳвандликка қарши изчил кураш олиб борилмоқда. Хусусан, маҳаллаларда, таълим ва соғлиқни сақлаш муассасаларида, барча меҳнат жамоаларида гиёҳвандликнинг инсон соғлиғига зарари ва унинг аянчли оқибатлари ҳақида маънавий-маърифий тарғибот ишлари йўлга қўйилган. Ҳар йили февраль ойида ички ишлар органлари томонидан “Ёшлар орасида гиёҳвандлик ва психотроп моддаларнинг тарқалишига қарши курашиш” ойлиги ўтказиб келинмоқда. Мазкур тадбирларда ёшлар орасида янги турдаги синтетик гиёҳвандлик воситалари ва “енгил наркотик” сифатида оммалашиб бораётган дори-дармонларнинг инсон саломатлиги билан бир қаторда, турмуш тарзига, келажагига, яқинларига салбий таъсири тушунтириляпти. Ушбу иллатнинг олдини олиш учун аввало, хасталикнинг сабаб

бўлувчи омилларини бартараф этиш, хусусан, аҳоли бандлигини таъминлаш, ёшларни спортга жалб этиш, уларнинг маънавий дунёсини умуминсоний қадриятлар ва миллий ғурур ҳисси билан бойитиш ҳам ҳаётий заруратдир. Бунда, шунингдек, инсон саломатлигини таъминлаш ишларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Юртимизда гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар ноқонуний айланмасининг барвақт олдини олиш, аҳолида уларни истеъмол қилишга нисбатан иммунитетни шакллантириш орқали генофондимизга салбий таъсир кўрсатувчи омиллар бартараф этилмоқда. Жаҳон тажрибаси негизида гиёҳвандликка чалинган беморлар учун тиббий-даволаниш тизими ташкил этилмоқда. Бунда, айниқса, 2024 йил 6 май куни Президентимизнинг “Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига чек қўйиш орқали уларнинг аҳоли саломатлиги ва мамлакатимиз генофондига салбий таъсирини бартараф этиш стратегик чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони қабул қилингани улкан аҳамият касб этди. Ушбу ҳужжатда айтилган соҳадаги давлат сиёсатининг истиқболли йўналишлари белгилаб берилди. Фармон билан Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик ва наркотиқларга қарши курашиш бўйича 2024-2028 йилларга мўлжалланган миллий стратегия тасдиқланди. Миллий стратегияда кўзда тутилган чора-тадбирлар ўз вақтида амалга оширилмоқда.

Шуни алоҳида ғурур билан таъкидлаш лозимки, БМТ Бош Ассамблеяси 2024 йил 4 июнда қабул қилган Резолюция матнида – Ўзбекистон Президентининг 2024 йил 6 майдаги Фармони билан тасдиқланган Миллий стратегия қоидалари ўз аксини топган. Бу эса Ўзбекистон гиёҳвандликка қарши кураш борасидаги миллий, минтақавий ва халқаро ташаббусларини узвий боғлиқлик ва мунтазамлик асосида илгари сураётганидан далолат беради. Ўзбекистоннинг Марказий Осиёда гиёҳванд моддалар савдоси ва гиёҳвандликка қарши кураш борасида олиб бораётган изчил сиёсати туфайли минтақамизда бу борада ижобий натижаларга эришилаётганини алоҳида айтиш жоиздир.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ёшлар ўртасида гиёҳвандликка қарши курашиш фақат ҳуқуқ-тарғибот органларининг вазифаси эмас, балки тиббий ва педагогик соҳа вакиллариининг ҳамкорликдаги ҳаракатини ҳам талаб этади. Таҳлиллар асосида қуйидаги амалий таклифлар тавсия этилади:

1.Интерактив ахборот алмашинуви: анъанавий пасив маърузалардан воз кечиб, талабалар билан вазиятли тренинглار ўтказиш, уларда психотроп моддаларнинг анатомик ва физиологик зарарлари ҳақида аниқ тиббий далилларга асосланган тушунчаларни шакллантириш.

2.Валонтёрлик ва тенгдошлик ҳаракати: ОТМ ларда тиббиёт йўналиши талабалари иштирокида валонтёрлик гуруҳларини ташкил этиш ва “тенгдош-тенгдошга” тамойили бўйича соғлом турмуш тарзи, оммавий спорт ва донорлик тадбирларини тарғиб қилиш.

3. Педагогик-оилавий ҳамкорлик: ота-оналар билан қайта алоқа тизимини йўлга қўйиш, фарзанд хулқ-атворидаги деструктив ўзгаришларни (уйку бузилиши, асабийлик, дарс қолдириш) эрта босқичда аниқлаш бўйича ота-оналарнинг педагогик ва тиббий саводхонлигини ошириш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 1999.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига чек қўйиш орқали уларнинг аҳоли саломатлиги ва мамлакатимиз генофондига салбий таъсирини бартараф этиш стратегик чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони. 2024 йил 6 май.
3. Шавкатов А.Н. Ёшлар физиологияси ва соғлом турмуш тарзи асослари.- Тошкент: Фан, 2021.
4. Қ.Исаров. Гиёҳвандлик-инсоният ҳаётига таҳдид. [Sud.uz/news-2025-06-12-1](https://sud.uz/news-2025-06-12-1).

БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИДА, ГИЁҲВАНДЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Туробова Шоира Бахритдиновна
“Ижтимоий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

Бугунги кунда гиёҳвандлик инсоният олдида турган энг хавфли муаммолардан бири ҳисобланади. Айниқса, ёшлар орасида гиёҳванд моддаларга қизиқишнинг ортиши жамият келажагига жиддий таҳдид солади. Шу сабабли ёшларни гиёҳвандлик иллатидан асраш, уларнинг онгида соғлом турмуш тарзини шакллантириш муҳим вазифа бўлиб, бу борада Ўзбекистон Республикасининг Призиденти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг қуйидаги фикрлари диққатга сазовор. “Таълим ва тарбия уйғун бўлсагина жамият тараққий этади. Ёшлар — Янги Ўзбекистоннинг таянчи ва ҳал қилувчи кучидир.”⁷ Дарқақиқат, келажагимиз бўлган ёшларимизнинг ҳар томонлама баркамол бўлиши жамият тараққиётининг асоси сифатида, уларнинг жисмоний ва маънавий камолотига хавф солувчи ёвуз иллат, гиёҳвандликка қарши кураш бугуннинг долзарб вазифаси сифатида аҳамиятга молик. Ўзбекистон Республикасида гиёҳванд моддалар тарқалишининг олдини олиш, ёшлар ўртасида профилактика ишларини кучайтириб, соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, наркожиноятчиликка қарши қатъий чоралар кўриш давлат сиёсатининг муҳим йўналиши ҳисобланади. “Биз ёшларимизни турли ёт ғоялар ва зарарли иллатлардан асрашимиз шарт.”⁸

— Гиёҳвандлик инсон саломатлигига хавф солувчи иллат сифатида, нафақат жисмоний, балки руҳий ҳолатни ҳам издан чиқаради. Гиёҳванд моддаларни истеъмол қилган ёшларда, хотира сусайиши,

асабийлик ,тажовузкорлик,тушкунлик ҳолатлари,ўқиш ва меҳнатга қизиқишнинг йўқолиши каби ҳолатлар кузатилади. Бундан ташқари, гиёҳвандлик жиноятчилик, оилавий муаммолар ва ижтимоий инқирозларни келтириб чиқаради. Таълим тарбия муассасалари ёшларни турли зарарли иллатлардан ҳимоя қилишда

⁷ Shavkat Mirziyoyev, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. — 128-бет

⁸ Shavkat Mirziyoyev, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. — 274-бет

муҳим аҳамиятга эга. Тарбия — инсоннинг ички дунёси ва ахлоқий қарашларини шакллантирадиган асосий омил бўлиб ҳисобланади. Таълимнинг асосий вазифалари, ёшларга гиёҳвандликнинг хавфини англатиш билан бирга уларнинг ҳуқуқий маданиятини ошириш, мустақил фикрлашни ривожлантириш ҳамда соғлом ҳаёт тарзини тарғиб қилишдан иборат. Бу борада дарс ва дарсдан ташқари маънавий - маърифий тадбирлар, ҳамда ота оналар ва маҳалла ҳамкорлигини йўлга қўйиш зарур.

Дарслар, давра суҳбатлари, учрашувлар ва тренинглар орқали ёшларнинг онги ва дунёқараши шакллантирилади. Шунингдек, миллий қадриятлар, маънавий ва ахлоқий тарбия ҳам ёшларни соғлом ҳаётга ундайди. Айниқса оила тарбияси ёшлар ҳаётида ҳал қилувчи ўрин тутиб, фарзандга меҳр, эътибор ва тўғри йўл-йўриқ бериш уни турли ёмон иллатлардан асрайди.

Ота-оналарнинг эътибори ва қўллаб-қувватлаши етишмаган ҳолларда баъзи ёшлар ёмон муҳит таъсирига тушиб қолиши мумкин. Ёшларни гиёҳвандликдан асрашда нафақат оила ва мактаб, балки бутун жамият масъул бўлиб, айниқса маҳалла, ёшлар ташкилотлари, спорт клублари, оммавий ахборот воситаларининг ўрни бекиёс эканлигини унутмаслигимиз лозим.

Ота-оналар фарзанднинг бўш вақтини назорат қилиши, унинг дўстлари ва кизиқишларига эътибор қаратиши доимий мулоқот қилиши жуда муҳим. Бундай ёвуз иллатга қарши курашишда маҳалла, таълим муассасалари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва жамоат ташкилотлари ҳамкорликда иш олиб бориши керак. Ёшларни спорт, санъат, китобхонликка, турли тўғарак ва лойиҳаларга жалб қилиш орқали уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш ҳам бу борада муҳим аҳамият касб этади.

Илмли, маънавийли, мақсадли ва соғлом фикрлайдиган, билимли ва маънавийли ёшлар ҳар қандай зарарли иллатларга қарши тура олади. Шунинг учун оила, мактаб ва жамият ҳамкорлиги бугунги глобаллашув жараёнида баркамол авлод тарбиясида жиддий эътибор қаратиши лозим бўлган масала сифатида аҳамиятлтидир. Жамият барқарорлигини таъминлашда “Соғлом ёшлар — юрт келажаги” деган ғоя ҳар биримиз учун муҳим ҳаётий мақсад бўлиб хизмат қилиши керак.

IQTISODIYOTNING JADAL RIVOJLANТИРИШДА BANKLAR FAOLIYATINING АҲАМИЯТИ

Sharifjonova Gulchehra –

Navoiy davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası professori v.b.

Annotsiya. Tezisda O‘zbekiston banklarida asosiy vositalarni hisobga olish masalalari va uning korxonalar va umuman mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish asosi sifatida tutgan o‘rni muhokama qilinadi. Tezis asosiy vositalarni hisobga olishning asosiy prinsiplari va xususiyatlarini bankning moddiy-texnik bazasining asosi sifatida ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Shuningdek, tezisda asosiy vositalarni hisobga olishning mohiyati va metodologiyasi o‘rganiladi, uni takomillashtirish va nazorat qilishning ba’zi jihatlari, ularni o‘z vaqtida hujjatlashtirish taklif etiladi.

Kalit soʻzlar: asosiy vositalar, amortizatsiya, xalqaro standartlar, asosiy vositalarni analitik hisobga olish, aktivlar, amortizatsiya.

Аннотация. В статье рассматривается вопросы учета основных средств в банках Узбекистане и его роль как основы модернизации экономики предприятий и страны в целом. Статья посвящена рассмотрению основных принципов и особенностей учета основных средств как основой материально-технической базы банка. А также статье исследуются сущность и методика учета основных средств, предложены некоторые аспекты его совершенствования и контроля, своевременность их документирования.

Ключевые слова: основные средства, амортизация, международные стандарты, аналитический учет основных средств, активы, амортизация.

Annotation. The article examines the development of fixed asset accounting in banks in Uzbekistan and its role as the basis for the modernization of the economy of enterprises and the country as a whole. The article is devoted to the consideration of the basic principles and features of the accounting of fixed assets as the basis of the material and technical base of enterprises. The article also examines the essence and methodology of accounting for fixed assets, suggests some aspects of its improvement and control, and the timeliness of their documentation

Key words: fixed assets, depreciation, international standards, analytical accounting of fixed assets, assets, depreciation

Mustaqillikning dastlabki yillarida respublika iqtisodchilari shu qadar hayotiy ehtiyojga ega edilarki, bu buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish va rivojlantirish, shu jumladan asosiy vositalarni hisobga olish va audit qilish, iqtisodiyotning turli tarmoqlari doirasida faoliyat yuritadigan xoʻjalik yurituvchi subyektlarda. mulkchilikning turli shakllari [1]. Shunga qaramay, bu borada baʼzi rivojlanmagan savollar mavjud va mulkni hisobga olish va auditini isloh qilish birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga, respublikamizdagi qonunchilikka asoslangan va xalqaro standartlar talablariga muvofiq tashkil etilgan boʻlishi kerak. Iqtisodiyotning jadal rivojlanishining hozirgi bosqichida mavjud ishlab chiqarish salohiyatining samaradorligini oshirishda moddiy-texnik bazani kengaytirish, qayta tashkil etish va rekonstruktsiya qilish muhim ahamiyatga ega[2]. Ularni ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi, ayniqsa xoʻjalik yurituvchi subyektlarda, koʻp jihatdan ularning asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan taʼminlanishiga bogʻliq, shuning uchun asosiy vositalar bilan yetarli darajada taʼminlanmaganligi mahsulot va mehnat unumdorligining sekinlashishiga, shuningdek mahsulot tannarxining oshishiga, koʻpayish manbalarining pasayishiga olib keladi. Boshqa tomondan, asosiy vositalarning “ortiqcha” boʻlishi va ulardan notoʻgʻri foydalanish ularni boshi berk koʻchaga olib keladi, natijada ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi pasayadi. Asosiy vositalardan foydalanish darajasi oshgani sayin ishlab chiqarish rivojlanib, uning hajmi oshadi. Shu sababli, asosiy vositalarni hisobga olish va ulardan foydalanishni takomillashtirish samaradorligi darajasini oʻrganish asosida mavjud imkoniyatlarni aniqlash katta ahamiyatga ega.

UFRS (Ias) 16 “asosiy vositalar” standartining maqsadi moliyaviy hisobot foydalanuvchilari asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalar va bunday investitsiyalardagi oʻzgarishlarni aniq tushunishlari uchun asosiy vositalarni hisobga olish tartibini belgilashdir. Asosiy vositalarni hisobga olishda asosiy masalalar joriy aktivlarni tan olish, ularning balans qiymatini aniqlash va amortizatsiya va amortizatsiya xarajatlarini tan olishdir.

Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasidan. Asosiy vositalar ishlab chiqarishning moddiy sharoitlarini (asboblar, bino, inshoot, qurilma va boshqalar) taʼminlaydigan vositalardir[3]. Buxgalteriya hisobi va rejalashtirishda asosiy vositalarga xizmat muddati bir yildan ortiq

bo'lgan va eng kam ish haqining 15 baravaridan kam bo'lmagan xarajatlar kiradi. Asosiy vositalar buxgalteriya hisobida fermer xo'jaligi uchun qabul qilingan dastlabki narxda aks ettiriladi. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati ularni sotib olish (bino va inshootlarni qurish) uchun haqiqiy xarajatlarga kiritiladi. Asosiy vositalar xizmat muddati davomida dastlabki qiymatda hisobga olinadi. Asosiy vositalarni qayta baholash faqat hukumat qarori bilan amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar. Buxgalteriya hisobining milliy qoidolari va usullarining xalqaro standartlarga ma'lum o'xshashligiga qaramay, bugungi kunda UFRS bo'yicha moliyaviy hisobotlarni o'zgartiradigan yozuvlarsiz amalga oshirish mumkin emas. Ushbu tezisda UFRS bo'yicha hisobot tuzishda yuzaga keladigan asosiy vositalarni hisobga olishda asosiy tipik transformatsion tuzatishlar muhokama qilinadi. Aktivlarni hisobga olish va baholash masalalarida UFRS va NSBU o'rtasida katta farq borligi, transformatorning tuzatish simlariga ehtiyoj paydo bo'lishining asosiy sababidir. O'zgartirishlar va ularni amalga oshirish sabablarini hisobga olgan holda, biz birinchi navbatda bitta muhim farqqa e'tibor qaratmoqchimiz. Gap shundaki, UFRS iqtisodiy tarkibning yuridik shakldan ustunligiga so'zsiz rioya qiladi, unga ko'ra operatsiyaning iqtisodiy mazmuni hisob varaqda aks ettirishi kerak. Milliy standartlarga muvofiq ishlashga odatlangan buxgalter operatsiyani faqat dastlabki hujjatlar mavjud bo'lganda aks ettirish zarurligini baholaydi[4]. UFRS bo'yicha hisobotlarni tuzishda aksariyat operatsiyalar professional muhokamalar va ularning iqtisodiy mazmunining huquqiy shakldan ustuvorligi nuqtai nazaridan baholash asosida amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar, bino (inshootlar)ni qurilishi (rekonstruksiya) bilan boyliq bo'lgan loyiha-qidiruv ishlari, qurilish materiallari, mehnat, harajatlar ham asosiy vositalar sotish bilan bo'lgan boshqa kapitallashuvligan harajatlar oldindan to'lov quyidagi buxgalteriya hisobi yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi.

Milliy qonunchilikda asosiy vositalarni (asosiy vositalarni) hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 26-noyabrda 3336-son bilan ro'yxatga olingan. Soliq kodeksida qayd etilgan amortizatsiya solig'i stavkalari tushunchasi ham mavjud ular soliqqa tortiladigan foydani shakllantirish xarajatlarning cheklangan darajasini belgilaydi. Odatda, mahalliy korxonalar amortizatsiyani hisoblashda ushbu asosiy vositaning aniq hisoblangan xizmat muddatini emas, balki amortizatsiya soliq stavkasini qabul qiladilar. Bu soliq hisobini osonlashtiradi, albatta, lekin xalqaro standartlarning iqtisodiy mezonlariga javob bermaydi. Chunki, xalqaro standartlar nuqtai nazaridan, butunlay eskirgan asosiy vosita ishlab chiqarishda deyarli ishtirok eta olmaydi va foyda keltirmaydi. Agar shunday vaziyat yuzaga kelsa, ushbu aktivning foydalanish muddatini noto'g'ri hisoblab chiqilsa, uni qayta ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Yuqoridagilarni sarhisob qilsak, UFRSNING O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni isloh qilish va shakllantirishga ta'siri yildan yilga ortib bormoqda. UFRSNI (Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari) o'rganish va amaliyotga joriy etish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar milliy standartlarni ular bilan yaqinlashtirish jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston buxgalteriya hisobini muvofiqlashtirish zarurati xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdan manfaatdor bo'lgan va ularni jahon reytinglariga kiritishga intilayotgan yirik milliy kompaniyalar sonining ko'payishi bilan bog'liq. NSBU (Milliy buxgalteriya standarti) hisobotlarini UFRS hisobotlariga aylantirishda hisobga olinishi kerak bo'lgan eng katta va dolzarb topishmoqlar keltirilgan. Summani avtomobil shinasining og'irligiga (kg uchun) qarab 0,3% BRV (990 so'm) miqdorida belgilash rejalashtirilgan edi. Yengil avtomobil shinasining og'irligiga qarab (R13 dan R20 gacha) yig'im 6200 dan 16 200 so'mgacha, yuk mashinalari (R16 dan

R18 gacha) esa 11,3 mingdan 58,8 ming so‘mgacha bo‘lishi kerak edi. O‘zgarishlarni oz vaqtida hujjatlarda ifoda etish bank daromadiga ta’sirini aniqlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni. URK 13.04.2016 yildagi 404-son.
2. Кудбиев, Д. (2021). Методологические основы учета арендованных основных средств. In Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст (pp. 119-124).
3. Temirqulov, A, & Qudbiyev, N. (2022). Iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda soliq siyosati o‘rni. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 121-127
4. Rasulova, S. X. (2021). Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uni to‘g‘ri hisobga olish zaruriyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 713-718.

O‘ZBEKISTONDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Ashurov Shodmon Sharofovich –

NavDU, Ijtimoiy fanlar kaferdasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlikka qarshi kurashning huquqiy asoslari, davlat siyosati hamda profilaktik choralar tahlil qilingan. Shuningdek, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda milliy qonunchilikning o‘rni, jinoyat va ma’muriy javobgarlik masalalari yoritilgan. Maqolada yoshlarni giyohvandlikdan himoya qilishda ta’lim, oila va jamoatchilikning ahamiyati ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, psixotrop moddalar, huquqiy asoslar, profilaktika, jinoyat kodeksi, yoshlar, davlat siyosati.

Giyohvandlik bugungi kunda insoniyat oldidagi eng xavfli ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu illat nafaqat inson salomatligiga, balki jamiyat barqarorligi, iqtisodiy taraqqiyot va millat kelajagiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar orasida giyohvand moddalar iste’molining ortib borishi jiddiy xavf tug’dirmoqda. Shu sababli dunyoning ko‘plab davlatlari qatori O‘zbekiston Respublikasida ham giyohvandlikka qarshi kurash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Mamlakatimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishining oldini olish, aholi salomatligini muhofaza qilish hamda yoshlarni zararli illatlardan asrash maqsadida qator qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson hayoti, sog‘lig‘i va xavfsizligini ta’minlash davlatning eng muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Konstitutsiyada fuqarolarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan huquqlari mustahkamlab

qo'yilgan bo'lib, ushbu normalar giyohvandlikka qarshi kurashning umumiy huquqiy asosini tashkil etadi.

Davlat yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlash, ularni zararli odatlardan himoya qilish bo'yicha mas'ul hisoblanadi.[1] Shu bois giyohvandlikka qarshi kurash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni esa ushbu sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur qonun giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalasi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Qonunda quyidagi masalalar aniq belgilangan:

- giyohvandlik vositalarining ishlab chiqarilishi va saqlanishi;
- tashilishi va realizatsiyasi;
- tibbiy maqsadlarda foydalanish tartibi;
- davlat nazorati;
- noqonuniy aylanishga qarshi kurash choralarining mexanizmlari.

Mazkur qonun orqali giyohvandlik vositalarining noqonuniy tarqalishining oldini olish hamda aholining sog'lig'ini himoya qilish maqsad qilingan.[2]

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar uchun qat'iy javobgarlik belgilangan. Xususan, kodeksda:

- giyohvand moddalarni noqonuniy tayyorlash;
- saqlash;
- tashish;
- sotish;
- kontrabanda qilish;
- iste'mol qilishga jalb etish

kabi harakatlar jinoyat deb e'tirof etiladi.[3]

Voyaga yetmaganlarni giyohvandlikka jalb qilish esa og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanadi. Ushbu jinoyatlar uchun katta miqdordagi jarimalar, ozodlikni cheklash va uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazolari qo'llaniladi.

Jinoyat kodeksidagi bunday qat'iy choralar giyohvandlikning keng tarqalishining oldini olishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Giyohvandlikka qarshi kurashda profilaktika ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur muammoni faqat jazolash orqali emas, balki uning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish orqali kamaytirish mumkin.

O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarda profilaktik ishlar olib borilmoqda:

- yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;
- ta'lim muassasalarida tushuntirish ishlari;
- sport va madaniy tadbirlarni tashkil etish;
- psixologik yordam xizmatlarini rivojlantirish;
- oilalar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Ayniqsa, ta'lim tizimining bu boradagi o'rni katta. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida giyohvandlikning zararli oqibatlari haqida ma'ruzalar, seminarlar va davra suhbatlari o'tkazilishi yoshlarning ongida salbiy munosabat shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi giyohvandlikka qarshi kurashish bo‘yicha bir qator xalqaro konvensiyalarga qo‘shilgan. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining narkotik vositalar ustidan nazorat qilishga oid xalqaro hujjatlari mamlakatimiz qonunchiligini takomillashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.[5]

Xalqaro hamkorlik:

- transmilliy narkobiznesga qarshi kurashish;
- noqonuniy moddalar savdosining oldini olish;
- axborot almashish;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda giyohvandlikka qarshi kurashning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan. Konstitutsiya, maxsus qonunlar, Jinoyat kodeksi hamda xalqaro huquqiy normalar ushbu faoliyatning asosini tashkil etadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan profilaktik va tarbiyaviy ishlar yoshlarni giyohvandlik xavfidan himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ta‘lim muassasalari va oilaning hamkorligini mustahkamlash giyohvandlikka qarshi kurash samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.
5. BMTning giyohvandlikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro konvensiyalari.
6. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
7. Abdullayev Q. Yoshlar orasida giyohvandlik profilaktikasi. – Toshkent, 2021.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLIISHDA TA'LIM VA TARBIYANING ROLI

Abruyeva Charos Tolibjonovna

Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti Falsafa yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Mansurova Malohat Yunus qizi – Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar orasida giyohvandlikni keng tarqalishini oldini olishda ta'lim va tarbiyaning o‘rni yoritiladi. Hozirgi globallashuv davrida yoshlar orasidagi salbiy odatlar, ayniqsa giyohvandlik muammosi jamiyatimiz rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida ta'kidlanadi. Chunki bu muammo nafaqat insonlarning salomatligiga balki, jamiyatimizning ravnaqiga ham jiddiy xavf tug'diradi.

Kalit so'zlar: globallashuv, yoshlar, giyohvandlik, ta'lim, tarbiya, jamiyat, ma'naviyat.

Abstract. This article highlights the role of education and upbringing in preventing the widespread spread of drug addiction among young people. It is emphasized that in the current era of globalization, negative habits among young people, especially the problem of drug addiction, have a negative impact on the development of our society. Because this problem poses a serious threat not only to people's health, but also to the prosperity of our society.

Keywords: globalization, youth, drug addiction, education, upbringing, society, spirituality.

Аннотация. В данной статье подчеркивается роль образования и воспитания в предотвращении широкого распространения наркомании среди молодежи. Утверждается, что в современную эпоху глобализации негативные привычки среди молодежи, особенно проблема наркомании, оказывают отрицательное влияние на развитие нашего общества. Эта проблема представляет серьезную угрозу не только здоровью людей, но и процветанию нашего общества.

Ключевые слова: глобализация, молодёжь, наркомания, образование, воспитание, общество, духовность.

Bugungi kunda yoshlar orasidagi keng tarqalayotgan salbiy illatlarni oldini olish, ayniqsa giyohvandlikka qarshi kurashish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarda ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda ularni zararli ta'sirlardan himoya qilish, salbiy oqimlar va yomon odatlardan saqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu masalaga yechim topishda ta'lim va tarbiyaning o'zni beqiyosdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev narkotiklarga qarshi kurashda davlat organlari ishini tanqid qildi. "O'tgan yilda poytaxtda 1,5 mingdan ortiq narkotikka ruju qo'yganlar rasman ro'yxatga olingan. Eng achinarlisi, "soya"da bo'lgan giyohvandlarning soni bundan ham ko'p. Ularning aksariyati yoshlar. Giyohvandlikka nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklarida rahbarning alohida o'rinbosari bo'lishini ta'kidladi. Hokim, oliygoh rektori, texnikum va maktab direktorining o'rinbosarlaridan biri bu yo'nalishga mas'ul etib belgilandi. Chunki bu masalalarni oldi olinmasa, vaziyat jiddiylashib ketishi mumkin. Turli xil psixotrop moddalarning tarqalishi ko'proq 14-25 yoshdagi shaxslar orasida ommalashayotgani ta'kidlangan.

Yoshlarni turli xil yomon oqimlarga kirib ketishidan asrashda, ta'lim tizimi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, turli xil sog'lom turmush tarziga oid tadbirlarni tashkil etish yoshlar orasida sog'lom muhitni ommalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samaradorli himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari to'g'risida farmoniga ko'ra voyaga yetmaganlar va yoshlarimiz kelajagini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan har tomonlama asrash - barcha darajadagi davlat organlari tashkilotlari va muassasalarining dolzarb vazifasi ekanini alohida qayd etish hamda ularning bu boradagi mas'uliyatini tubdan oshirish, ta'lim muassasalarida psixofaol moddalarning tarqalishiga batamom chek qo'yish yoshlarda giyohvandlik illatiga murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish va bir qancha shunga o'xshash maqsad va ustuvor vazifalarni belgiladi.

Giyohvandlikning oldini olish uchun kompleks yondashuv zarur:

- Maktab va oliy ta'lim muassasalarida targ'ibot ishlari
- Psixologik xizmatlarni kuchaytirish
- Yoshlar tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish
- Ommaviy axborot vositalarida profilaktik kontentni ko'paytirish⁹

Globalashuv sharoitida yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olishda ta'lim va tarbiya eng muhim omillardan biridir. Ular uyg'un holda olib borilgandagina sog'lom, ma'naviy yetuk va jamiyatga foydali avlodni shakllantirish mumkin. Shuning uchun ham davlat, oila va ta'lim muassasalari hamkorligi ushbu muammoni hal etishda asosiy o'rin tutadi.

Giyohvandlikning yoshlar orasida tarqalishini oldini olishda tarbiya alohida va muhim o'rin tutadi. Tarbiya — inson shaxsini shakllantiruvchi, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi eng qadimiy va uzluksiz ijtimoiy-madaniy qadriyatlardan biridir. Tarbiasiz na alohida shaxs, na jamiyat barqaror rivojlana olmaydi. Chunki insoniyat jamiyatining mavjudligi va taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy ma'naviy hamda axloqiy qadriyatlar aynan sog'lom tarbiya jarayoni orqali bir avloddan ikkinchi avlodga uzluksiz uzatiladi.

Shu nuqtayi nazardan, ta'lim va tarbiya jarayonlarining uyg'unligi yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda ularni turli salbiy ijtimoiy illatlar, jumladan giyohvandlik kabi xavfli odatlardan himoya qilishning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olish va unga chek qo'yish bugungi davrda jamiyatimizning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda ta'lim va tarbiya tizimi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki bilim va ma'naviyat orqali yoshlarning ongida sog'lom hayot tarzi tushunchalari shakllanadi. Ta'lim muassasalari, oila va jamiyatimizda olib borilayotgan ishlar yoshlarni zararli odatlardan himoya qilishda samarali vosita hisoblanadi. Yoshlarni sog'lom turmush tarziga jalb etish, bugungi globalashuv davrida jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 03.11.2025-yildagi, PF 207-son

2. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/27/drugs/>

3. Turayeva Gulnoz Ergashevna. "Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish" (Monografiya). - Termiz, 2023. - 7-bet

4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2012. – 240 b.

O'ZBEKISTONDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI

⁹ Xoliqov A. *Pedagogik mahorat*. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2012. – 240 b.

Saxatov Bekzod Kenjayevich,
Navoiy viloyat Ichki ishlar boshqarmasi TKX KITEB xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, milliy qonunchilik tizimi, Jinoyat kodeksidagi javobgarlik masalalari, ichki ishlar organlarining vakolatlari hamda 2024–2028-yillarga mo‘ljallangan davlat strategiyasining mazmuni ilmiy jihatdan yoritilgan. Maqolada giyohvandlikka qarshi kurashda profilaktika, tezkor-qidiruv faoliyati va xalqaro hamkorlikning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, psixotrop moddalar, narkojinoyat, huquqiy asos, Jinoyat kodeksi, profilaktika, ichki ishlar organlari.

Bugungi globalashuv sharoitida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi dunyo davlatlari qatorida O‘zbekiston uchun ham jiddiy tahdid hisoblanadi. Mazkur illat nafaqat inson salomatligiga, balki jamiyat barqarorligi, yoshlar tarbiyasi hamda milliy xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, internet va zamonaviy axborot texnologiyalari orqali sintetik narkotik vositalarning tarqalishi narkojinoyatlarning yangi ko‘rinishlarini yuzaga keltirmoqda¹⁰.

Shu sababli O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlikka qarshi kurash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilib, ushbu sohada mustahkam huquqiy baza yaratilgan. So‘nggi yillarda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va strategiyalar narkotik vositalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida inson salomatligini muhofaza qilish davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Konstitutsiyada fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash huquqi kafolatlangan bo‘lib, ushbu norma giyohvandlikka qarshi kurashning fundamental asosini tashkil etadi¹¹.

Mazkur sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri — O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonunidir. Ushbu qonunda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalasi, ularni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va realizatsiya qilish tartibi belgilangan¹².

Qonunga muvofiq:

- giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi taqiqlanadi;
- ularning muomalasi ustidan davlat nazorati o‘rnatiladi;
- vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari belgilanadi;
- profilaktika va rehabilitatsiya masalalari tartibga solinadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yildagi 330-son qarori bilan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni olib

¹⁰ Dusiayarov A.O‘. Giyohvandlikka qarshi kurash // Modern Science and Research. – 2024. – №3. – B. 717–721.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – 80 b.

¹² O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 1999-yil 19-avgust, №813-I.

kirish, olib chiqish hamda tranzit tartiblari takomillashtirilgan¹³. Ushbu hujjat narkotik vositalarning noqonuniy tarqalishining oldini olishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar uchun qat’iy javobgarlik choralari belgilangan. Xususan, Jinoyat kodeksining 270–276-moddalarida narkotik vositalar va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar tarkibi nazarda tutilgan¹⁴.

Jinoyat kodeksining 276-moddasiga ko‘ra, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadisiz noqonuniy tayyorlash, saqlash yoki tashish jinoyat deb hisoblanadi. Mazkur modda asosida aybdor shaxsga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin. Shuningdek:

- narkotik moddalarni sotish;
- kontrabanda yo‘li bilan olib kirish;
- voyaga yetmaganlarni giyohvandlikka jalb etish;
- narkotik moddalarni reklama qilish yoki tarqatish kabi harakatlar og‘ir jinoyatlar sifatida baholanadi.

Giyohvandlikka qarshi kurashda ichki ishlar organlari asosiy subyektlardan biri hisoblanadi. Ularning faoliyati:

- tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish;
- narkotik moddalar savdosini aniqlash;
- jinoyatlarning oldini olish;
- profilaktik targ‘ibot ishlarini olib borish;
- noqonuniy savdo kanallarini fosh etish kabi vazifalarni qamrab oladi.

Ayniqsa, hozirgi davrda internet orqali “zakladka” usulida narkotik moddalar tarqatilishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shu bois tezkor-qidiruv faoliyatini raqamlashtirish, kriminalistik ekspertiza imkoniyatlarini kengaytirish va kiberjinoyatchilikka qarshi kurash choralari kuchaytirish dolzarb masalaga aylangan¹⁵.

Ichki ishlar organlari tomonidan ta’lim muassasalari, mahalla fuqarolar yig‘inlari va jamoatchilik bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirilmoqda. Bu esa yoshlar orasida giyohvandlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024–2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya tasdiqlandi¹⁶. Mazkur strategiya sohadagi davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

Strategiyaning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirish;
2. Ta’lim muassasalarida profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish;
3. Narkologik yordam va rehabilitatsiya tizimini takomillashtirish;
4. Internet orqali narkotik savdosiga qarshi kurashish;

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi 330-son qarori.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024. – 412 b.

¹⁵ Dusiayarov A.O‘. Giyohvandlikka qarshi kurash // Modern Science and Research. – 2024. – №3. – B. 717–721.

¹⁶ Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. – 640 b.

5. Tezkor-qidiruv va ekspert-kriminalistik faoliyatni rivojlantirish.

Mazkur strategiya davlat organlari, jamoatchilik va xalqaro tashkilotlar hamkorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda giyohvandlikka qarshi kurashning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan. Konstitutsiya, maxsus qonunlar, Jinoyat kodeksi normalari hamda davlat strategiyalari narkotik vositalarning noqonuniy aylanishiga qarshi samarali kurash olib borish imkonini bermoqda.

Biroq zamonaviy tahdidlar, ayniqsa sintetik narkotiklar va internet orqali tarqatish usullarining ko'payishi ushbu sohada yanada takomillashgan huquqiy va amaliy mexanizmlarni joriy etishni talab qiladi. Shu bois:

- profilaktik ishlarni kuchaytirish;
- yoshlar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlash;
- raqamli nazorat tizimlarini rivojlantirish;
- xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Giyohvandlikka qarshi kurashda davlat organlari bilan bir qatorda jamiyatning har bir a'zosi faol ishtirok etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida”gi Qonuni, 1999-yil 19-avgust, №813-I.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024. – 412 b.
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2021. – 292 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrda 330-son qarori.
6. Jabborov B.N. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda o'tkazilishi shart bo'lgan tergov harakatlarining ahamiyati // Interdiscipline Innovation and Scientific Research Conference. – 2023. – №15. – B. 112–118.
7. Dusiyarov A.O'. Giyohvandlikka qarshi kurash // Modern Science and Research. – 2024. – №3. – B. 717–721.
8. “O'zbekistonda narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha strategiya tasdiqlandi” // Kun.uz, 2024-yil 9-may.

GIYOHVANDLIK- GLOBAL MUAMMO SIFATIDA

NDU Tillar fakulteti 4- kurs talabasi Bozorava Dilmexra

Ilmiy rahbar: NDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o'qituvchisi N.M.Suvonova

Annotatsiya Mazkur maqolada giyohvandlikning bugungi kunda global muammo sifatidagi xavfi, uning jamiyat va inson salomatligiga salbiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, giyohvandlikning kelib chiqish sabablari, yoshlar orasida tarqalish omillari hamda unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy asoslari tahlil qilingan. Muammoning oldini olish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Аннотация. В данной статье освещается наркомания как одна из глобальных проблем современности, её негативное влияние на общество и здоровье человека. Также анализируются причины возникновения наркомании, факторы её распространения среди молодёжи, а также правовые и духовно-нравственные основы борьбы с ней. В статье представлены предложения и рекомендации по профилактике данной проблемы.

Annotation This article discusses drug addiction as a global problem of modern society and its negative impact on human health and social life. The causes of drug addiction, factors contributing to its spread among young people, as well as legal and moral measures to combat it are analyzed. The article also provides suggestions and recommendations for preventing this issue.

Giyohvandlik – XXI asrning global muammalaridan biriga aylanib ulgurdi. Oʻrta asrlarda insoniyat hayotiga jiddiy xavf solgan vabo va oʻlat kabi ofatlar bugungi sivilizatsiya zamoniga kelib oʻz oʻrnini giyohvandlik illatiga boʻshatib berdi, desak aslo mubolagʻa boʻlmaydi. Sogʻlom turmush tarzini olib borayotgan kishi bilib-bilmay bu koʻchaga kirib qolsa, oʻzining tinch, farovon va baxtli hayotini qora zulmatga aylantirishi ayni haqiqat. Giyohvand kishi nafaqat oʻziga, balki yaqinlariga ham toʻxtovsiz azob beradi. Undan tugʻilajak farzandlar esa ota-onasining xatosi oqibatida bir umrga majruhlik qismatiga muhtalo boʻladilar. Zero, faqat sogʻlom ota-onadagina sogʻlom zurriyod dunyoga keladi. Sogʻlom bola esa farovon kelajak demakdir. Baʼzan giyohvandlik qurboniga aylanib qolgan insonlarning qismatini koʻrib, ularga nisbatan nafrat, qahr va rahm tuygʻularining uygʻonishi tabiiy. Ularning quriyotgan daraxt misol umri evaziga ayrim qora niyatli yovuz kimsalarning hamyoni qappaymoqda. Odam qiyofasidagi bunday maxluqlarning qora ogʻuni voyaga yetmagan yoshlar orasida tarqatib, uni isteʼmol qilishga targʻib qilayotganiga jim qarab turib boʻlmaydi, albatta. Statistik maʼlumotlarga koʻra dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yoʻliqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha boʻlganlar tashkil etmoqda. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan koʻz yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga toʻgʻri keladi.

Dunyoqarashi endigina shakllanib borayotgan, bor kuch-gʻayratini faqat bilim olishga, izlanishga, hunar oʻrganishga sarflashi kerak boʻlgan bir paytda, oʻsmirlarni aldov yoʻli bilan giyohvandlik qurboniga aylantirayotgan kimsalar ozmi? Qanchadan-qancha oilalarning yostigʻini quritayotgan giyohvandlikka qarshi har bir inson oʻzi kurashmogʻi, tashqi taʼsirlardan himoyalanganmogʻi lozim. Sogʻlom avlod oʻtmishi qadim, tuprogʻi oltin, osmoni musaffo Oʻzbekistonning kelajak vorislaridir. Ularni mana shunday sogʻlom muhitda, ezgu tushunchalarni yuraklariga joylab voyaga yetkazaylikki, hech qanaqa tashqi salbiy xurujlar va qora illatlar oʻpponi ularni oʻziga jalb qila olmasin.

Giyohvandlik vositalari ishlab chiqarish va ular bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish ogʻir jinoyatchilikka jinoiy biznesni keltirib chiqaradi.

Giyohvandlik va giyohvand moddalarning noqonuniy muomalasi zamonaviy jamiyat uchun eng xavfli ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu illat nafaqat inson salomatligiga, balki jamiyat barqarorligi, huquq-tartibot va qonun ustuvorligiga jiddiy

tahdid soladi. Sud amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar ko'p hollarda boshqa og'ir jinoyatlarni keltirib chiqaradi...

Umuman, bugungi kunda giyohvandlik dunyo jamoatchiligini xavotirga soladigan darajada yoyilib ketmoqda. Oxirgi 20 yilda ko'p mamlakatlarda giyohvandlik vositalari bilan birga psixotrop va psixofaol moddalarni iste'mol qiluvchilarning soni oshib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi besh yilda respublika hududida giyohvandlik, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi vositalar noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar orasida yoshlar 74 foizga oshgan. Narkologik hisobga olingan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan giyohvandlik vositalari iste'molchilari 60 foizga ko'paygan. Giyohvandlik dunyo bo'yicha jiddiy ijtimoiy, iqtisodiy va sog'liq muammolariga sabab bo'lib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham giyohvandlik tendentsiyasi so'nggi yillarda kuchayib, ayniqsa yoshlarda bu muammoga qarshi kurash zaruriyati oshmoqda. Giyohvand moddalar organizm uchun juda xavfli bo'lib, ularning uzoq muddatli va tartibsiz iste'moli shaxsni jismoniy hamda ruhiy jihatdan zaiflashtirib, qaramlikka olib keladi. Natijada

individual salomatlik yomonlashadi, oilaviy-iqtisodiy munosabatlar va ijtimoiy hayot buziladi. Giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatchilik darajasi oshadi, yoshlar mehnat resurslari kamayadi, jamiyatda islohotlar va barqaror taraqqiyotga

to'siq bo'luvchi qator muammolar paydo bo'ladi. Shu boisdan, giyohvandlikka qarshi kurash davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifaga aylangan.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHNING IJTIMOIIY, IQTISODIY XUSUSIYATLARI

Jo'raqulova Nigina Ilhom qizi –

Master school o'quv markazi tinglovchisi

Email: jurakulovaniginajurakulova@gmail.com

Tel: 998 93 317 71 94

Bugungi kunda giyohvandlik insoniyat oldida turgan eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Giyohvand moddalarni iste'mol qilish nafaqat inson salomatligiga, balki jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa yoshlar orasida giyohvandlikning keng tarqalishi jamiyat kelajagiga katta xavf tug'diradi. Shu sababli dunyoning barcha mamlakatlarida giyohvandlikka qarshi kurash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Giyohvandlik inson organizmini jismoniy va ruhiy jihatdan izdan chiqaradi. Natijada jinoyatchilik, ishsizlik, oilaviy ajralishlar, mehnat unumdorligining pasayishi kabi ko'plab ijtimoiy muammolar yuzaga keladi. Shu bilan birga, davlat budjetidan sog'liqni saqlash va huquqni muhofaza qilish tizimlariga katta mablag' sarflanishiga sabab bo'ladi¹⁷.

¹⁷ BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik boshqarmasi (UNODC) ma'lumotlari. — 2023-yil hisobotlari.

Giyohvandlik nafaqat alohida inson hayotiga, balki butun jamiyat taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy va iqtisodiy muammodir. U jamiyatda jinoyatchilikning ortishi, oilaviy muammolarning ko'payishi hamda yoshlarning ma'naviy inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, davlat iqtisodiyotiga katta zarar yetkazib, sog'liqni saqlash va huquqni muhofaza qilish tizimlariga qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun giyohvandlikka qarshi kurashishda davlat, jamiyat, ta'lim muassasalari va oilaning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ma'naviy tarbiyani kuchaytirish orqali giyohvandlikning oldini olish mumkin. Faqatgina barcha qatlamlarning birgalikdagi harakati orqali sog'lom, ma'naviy yetuk va xavfsiz jamiyatni barpo etish mumkin.

Giyohvandlikning eng asosiy ijtimoiy xususiyatlaridan biri — bu uning jamiyat ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishidir. Giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi shaxs asta-sekin o'zining axloqiy qadriyatlarini yo'qota boshlaydi. U oila, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini unutadi. Natijada oilaviy nizolar, ajralishlar va farzandlar tarbiyasidagi muammolar ko'payadi¹⁸.

Yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishi ayniqsa xavflidir. Chunki yosh avlod mamlakat kelajagini belgilovchi asosiy kuch hisoblanadi. Giyohvandlikka ruju qo'ygan yoshlarning bilim olishga qiziqishi kamayadi, ular jinoyatchilikka moyil bo'lib qoladi¹⁹. Bu esa jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin.

Shuningdek, giyohvandlik sog'liqni saqlash tizimiga ham katta zarar yetkazadi. Giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilar orasida OITS, gepatit va boshqa yuqumli kasalliklar keng tarqaladi. Bu esa jamiyat salomatligiga xavf tug'diradi.

Giyohvandlikning yana bir salbiy tomoni — jinoyatchilikning ortishidir. Giyohvand moddalarni sotib olish uchun mablag' topish maqsadida ayrim shaxslar o'g'rilik, talonchilik va boshqa noqonuniy harakatlarni sodir etadi. Natijada jamiyatda xavfsizlik darajasi pasayadi.

Giyohvandlik iqtisodiyotga ham katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslarning mehnat unumdorligi keskin kamayadi. Ular ish joyida intizomsizlikka yo'l qo'yadi, ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi. Bu esa korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy zarar ko'rishiga olib keladi.

Davlat tomonidan giyohvandlikka qarshi kurashish uchun katta mablag' sarflanadi. Jumladan, huquqni muhofaza qilish organlari, bojxona xizmatlari, tibbiyot muassasalari va rehabilitatsiya markazlari faoliyatini moliyalashtirish uchun katta xarajat talab etiladi. Bu mablag'larni boshqa muhim sohalarga yo'naltirish imkoniyati kamayadi.

Bundan tashqari, noqonuniy giyohvand moddalar savdosi "yashirin iqtisodiyot"ning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bu esa davlat budjetiga tushadigan soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi. Giyohvand moddalar savdosidan tushgan noqonuniy daromadlar ko'pincha boshqa jinoyatlarni moliyalashtirishga ham xizmat qiladi.

¹⁸ Xudoyqulov S. *Ijtimoiy muammolar sotsiologiyasi*. — Toshkent: Fan, 2018. — 144–150-betlar.

¹⁹ Abdullayev Q. *Huquqbuzarlik profilaktikasi asoslari*. — Toshkent: Adolat, 2019. — 112–118-betlar.

Iqtisodiy jihatdan yana bir muhim muammo — mehnatga layoqatli aholining kamayishidir. Giyohvandlik tufayli ko‘plab yoshlar o‘z sog‘lig‘ini yo‘qotadi va mehnat faoliyatidan chetda qoladi. Natijada mamlakatning inson kapitali zaiflashadi.

Giyohvandlikka qarshi kurashishda eng muhim omillardan biri profilaktika hisoblanadi. Aholi, ayniqsa yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega²⁰. Maktab, litsey va oliy ta‘lim muassasalarida giyohvandlikning zararli oqibatlari haqida muntazam tushuntirish ishlari olib borilishi kerak.

Oila tarbiyasi ham bu borada katta rol o‘ynaydi. Ota-onalar farzandlarining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishi, ularni sport va ilm-fanga jalb qilishi zarur. Chunki bo‘sh vaqtni to‘g‘ri tashkil qilmaslik yoshlarning yomon yo‘lga kirib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar va xalqaro hamkorlik ham giyohvandlikka qarshi kurashishda muhim vosita hisoblanadi. Chegara nazoratini kuchaytirish, noqonuniy savdo yo‘llarini aniqlash va jinoyatchilarni jazolash orqali giyohvand moddalar tarqalishining oldi olinadi.

Bundan tashqari, giyohvandlikka chalingan shaxslarni reabilitatsiya qilish va jamiyatga qayta moslashtirish ham muhim vazifa hisoblanadi²¹. Tibbiy va psixologik yordam ko‘rsatish orqali ularni sog‘lom hayotga qaytarish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug‘diruvchi ijtimoiy va iqtisodiy muammodir. U inson salomatligi, oilaviy munosabatlar, iqtisodiy barqarorlik va jamiyat xavfsizligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli giyohvandlikka qarshi kurashishda davlat, jamiyat va oila birgalikda harakat qilishi lozim. Ayniqsa yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ma‘naviy tarbiyani kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina umumiy hamkorlik orqali giyohvandlikning oldini olish va sog‘lom jamiyatni barpo etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 1999. — 3–12-moddalar.
2. Abdullayev Q. *Huquqbuzarlik profilaktikasi asoslari*. — Toshkent: Adolat, 2019. — 112–118-betlar.
3. Rasulov A. *Sog‘lom turmush tarzi va yoshlar tarbiyasi*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020. — 56–63-betlar.
4. BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik boshqarmasi (UNODC) ma‘lumotlari. — 2023-yil hisobotlari.
5. Xudoyqulov S. *Ijtimoiy muammolar sotsiologiyasi*. — Toshkent: Fan, 2018. — 144–150-betlar.

²⁰ Rasulov A. *Sog‘lom turmush tarzi va yoshlar tarbiyasi*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020. — 56–63-betlar.

²¹ BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik boshqarmasi (UNODC) ma‘lumotlari. — 2023-yil hisobotlari.

GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI

Ikromova M.I., NavDU pediatriya ishi yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Achilova M.E.

NavDU ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda giyohvandlikning jamiyat taraqqiyoti va yoshlar hayotiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri, ushbu muammoning oldini olishda ta'lim va tarbiyaning o'rnini keng yoritilgan. Yoshlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish, oilada va ta'lim muassasalarida olib boriladigan profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, giyohvandlikka qarshi kurashishda pedagoglar, ota-onalar, mahalla va jamoatchilikning hamkorligi muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Giyohvandlik, ta'lim, tarbiya, profilaktika, yoshlar, sog'lom turmush tarzi, ma'naviyat, oilaviy tarbiya, zararli odatlar, pedagogik faoliyat, jamiyat, psixologik tarbiya.

Аннотация. В данной тезисной работе широко освещаются негативное влияние наркомании на развитие общества и жизнь молодежи, а также роль образования и воспитания в предотвращении этой проблемы. Проанализированы эффективность мер по направлению молодежи к здоровому образу жизни, формированию их духовно-нравственного мировоззрения, а также профилактических мероприятий, проводимых в семье и образовательных учреждениях. Кроме того, обосновано, что сотрудничество педагогов, родителей, махалли и общественности является важным фактором в борьбе с наркоманией.

Ключевые слова: негативное влияние наркомании, общества и жизнь молодежи, образование, воспитание.

Bugungi globallashuv davrida inson salomatligi va yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq muammolar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, giyohvandlik jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadigan illatlardan biri hisoblanadi. Giyohvand moddalarni iste'mol qilish inson organizmiga zarar yetkazibgina qolmay, balki uning ruhiy holati, oilaviy munosabatlari, mehnat faoliyati va jamiyatdagi o'rniga ham salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli giyohvandlikning oldini olish masalasi davlat va jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. [1]

Yoshlar kelajak egasi ekanligi bois, ularni turli zararli odatlardan himoya qilish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunning ustuvor vazifasidir. Bu jarayonda ta'lim va tarbiya tizimi muhim o'rin tutadi. Chunki insonning dunyoqarashi, hayotga bo'lgan munosabati va ma'naviy qiyofasi aynan ta'lim-tarbiya orqali shakllanadi.

Giyohvandlikning oldini olishda eng samarali vositalardan biri bu – ta'limdir. Ta'lim jarayonida yosh avlodga giyohvand moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri haqida ilmiy asoslangan tushunchalar beriladi. O'quvchilarga giyohvandlikning nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini haqida ham ma'lumot berilishi muhimdir. Bu esa ularda zararli odatlarga nisbatan qat'iy salbiy fikrning shakllanishiga yordam beradi. [2]

Maktab, akademik litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam tashkil etish katta ahamiyatga ega. Turli seminarlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar va sport musobaqalari yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, sport bilan shug'ullanish yoshlarni zararli odatlardan uzoqlashtiruvchi muhim omillardan biridir.

Ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning o'rni ham beqiyosdir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi hamdir. Pedagoglarning shaxsiy namunasi, madaniyati va yoshlar bilan ishlashdagi yondashuvi o'quvchilarning ongiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar dars jarayonida sog'lom turmush tarzi, ma'naviy barkamollik va zararli odatlardan saqlanish haqida tushuntirish ishlarini olib borishlari kerak.

Giyohvandlikning oldini olishda oilaning roli ham juda katta. Oila inson tarbiyasining birinchi va eng muhim maskani hisoblanadi. Farzandning qanday inson bo'lib voyaga yetishi ko'p jihatdan oiladagi muhitga bog'liq. Ota-onalar farzandlarning bo'sh vaqtini nazorat qilishi, ularning qiziqishlari va do'stlari bilan qiziqib borishi lozim. Oiladagi mehr-oqibat, o'zaro hurmat va sog'lom psixologik muhit yoshlarni turli zararli illatlardan asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mahalla va jamoatchilikning ham bu boradagi faol ishtiroki muhimdir. Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini kuchaytirish, profilaktik tadbirlarni muntazam tashkil etish orqali giyohvandlikka qarshi samarali kurashish mumkin. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, tibbiyot xodimlari, pedagoglar va ota-onalarning hamkorligi ushbu muammoni kamaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. [3]

Bugungi kunda internet va ommaviy axborot vositalari yoshlar ongiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ommaviy axborot vositalarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi ko'rsatuvlar, maqolalar va ijtimoiy roliklarni ko'paytirish zarur. Chunki yoshlar ongiga ijobiy g'oyalarni singdirish orqali ularni turli zararli oqimlardan himoya qilish mumkin.

Giyohvandlik nafaqat bir insonning, balki butun jamiyatning muammosidir. U jinoyatchilikning ortishi, oilalarning buzilishi, iqtisodiy qiyinchiliklar va sog'liq bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois bu illatga qarshi kurashishda barcha birdek mas'uldir. Ta'lim va tarbiya esa ushbu kurashning eng asosiy va samarali vositasi bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlikning oldini olishda ta'lim va tarbiya muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish, ularda mustahkam hayotiy qarashlarni shakllantirish va ma'naviy tarbiyani kuchaytirish orqali giyohvandlik kabi zararli illatlarning oldini olish mumkin. Oila, ta'lim muassasalari, mahalla va jamoatchilikning hamkorlikdagi faoliyati sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. Sodiqov A., Rasulov T. Yoshlar tarbiyasi va sog'lom turmush asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIKNING TARQALISH OMILLARI

Namozova Fotima,

NavDU Aniq fanlar fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Atoeva Sh.Sh.

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishiga sabab bo'layotgan asosiy ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, giyohvandlikning yoshlar hayotiga salbiy ta'siri hamda ushbu muammoning oldini olish bo'yicha profilaktik choralar yoritilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, yoshlar, ijtimoiy muammo, profilaktika, psixologik omillar, oilaviy muhit, zararli odatlar.

Bugungi kunda giyohvandlik insoniyat oldidagi eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar orasida narkotik moddalarni iste'mol qilish holatlarining ortib borayotgani jamiyat taraqqiyoti va millat kelajagiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Giyohvandlik yoshlarning nafaqat jismoniy salomatligiga, balki ularning ruhiy holati, ma'naviy dunyosi va ijtimoiy faolligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlarning giyohvandlikka moyilligi turli omillar bilan bog'liq bo'lib, mazkur muammoni chuqur o'rganish va uning oldini olish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Oiladagi nosog'lom muhit yoshlarning giyohvandlikka berilishidagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ota-onalar o'rtasidagi nizolar, farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik, oiladagi zo'ravonlik yoki mehr yetishmasligi yoshlarning ruhiy tushkunlikka tushishiga sabab bo'ladi.

Bunday holatda ayrim yoshlar muammolardan qochish vositasi sifatida giyohvand moddalarni iste'mol qilishga moyillik bildiradi. Shu sababli oiladagi sog'lom psixologik muhit giyohvandlik profilaktikasining muhim omili hisoblanadi.

Yoshlarning atrof-muhiti ham ularning xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, salbiy do'stlar davrasi va noto'g'ri ijtimoiy muhit yoshlarni zararli odatlarga yetaklashi mumkin.

Ko'plab holatlarda yoshlar:

- qiziqish;
- tengdoshlarga taqlid qilish;
- o'zini "zamonaviy" ko'rsatishga intilish;
- guruh bosimi

natijasida giyohvand moddalarni sinab ko'radi. Bu esa vaqt o'tishi bilan qaramlikni yuzaga keltiradi.

Stress, ruhiy tushkunlik, yolg'izlik va hayotdagi muammolar ham yoshlarni giyohvandlikka undovchi muhim omillardan biridir. Ayrim yoshlar o'z muammolaridan vaqtincha qochish maqsadida narkotik vositalarga murojaat qiladi.

Psixologlarning fikricha, o'ziga ishonchi past, maqsadsiz yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan mahrum bo'lgan yoshlar giyohvandlik xavfiga ko'proq duch keladi.

Ishsizlik, kambag'allik va bo'sh vaqtning ko'pligi ham giyohvandlikning tarqalishiga sabab bo'ladi. Band bo'lmagan yoshlar turli zararli oqimlar va noqonuniy faoliyat ta'siriga tez tushib qoladi.

Shu bois yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularning bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish muhim profilaktik choralar hisoblanadi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan internet orqali turli zararli axborotlarning tarqalishi kuchaydi. Ba'zi internet resurslari va ommaviy madaniyat mahsulotlari giyohvandlikni "erkinlik" yoki "zamonaviylik" sifatida targ'ib qilishi mumkin.

Natijada ayrim yoshlar narkotik moddalarni oddiy holat sifatida qabul qila boshlaydi. Shu sababli yoshlarning media madaniyatini oshirish va internetdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir.

Yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish zarur:

- oilada sog'lom tarbiya muhitini yaratish;
- ta'lim muassasalarida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish;
- sport va madaniy tadbirlarni kengaytirish;
- psixologik yordam xizmatlarini rivojlantirish;
- yoshlar bandligini ta'minlash;
- sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.

Bu borada davlat, oila, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishi turli ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar bilan bog'liq murakkab muammodir. Ushbu illatning oldini olish uchun yoshlarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega. Giyohvandlikka qarshi kurashishda oila, ta'lim tizimi va jamiyatning hamkorligi samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni.
2. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisobotlari.
4. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Xasanboyev J. *Pedagogika nazariyasi*. – Toshkent, 2016.
6. Abdullayeva Sh. *Yoshlar va ijtimoiy muammolar*. – Toshkent, 2021.

O'SMIRLAR ORASIDA GIYOHVANDLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISHDA OILANING O'RNI

Axadjonova Gulruxsor Toxirjon qizi

Namangan davlat universiteti psixologi

axadjonovag@gmail.com

+998-97-866-17-95

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smirlar orasida giyohvandlikning oldini olishda ta'lim va tarbiyaning muhim o'rni yoritiladi. Bugungi kunda giyohvandlik yoshlar salomatligi, ma'naviyati va kelajagiga jiddiy xavf tug'dirayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda o'smirlarning giyohvand moddalar ta'siriga tushib qolish sabablari, ularning psixologik va ijtimoiy omillari tahlil qilinadi. Shuningdek, oiladagi tarbiya, maktabdagi ta'lim jarayoni, pedagog va ota-onalarning hamkorligi orqali yoshlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada profilaktik tadbirlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish giyohvandlikning oldini olishda samarali vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: o'smirlar, giyohvandlik, ta'lim, tarbiya, profilaktika, sog'lom turmush tarzi, ma'naviy tarbiya, yoshlar, pedagogik yondashuv, ijtimoiy muammo.

Giyohvandlik (narkomaniya, bangilik) — narkotik moddalarga o'rganib qolish, ruju qilish, aniqrog'i tabiiy yoki sintetik zaharli moddalar (ayrim dori moddalari)ni vaqtincha yoki haddan ziyod shunday surunkali iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati hisoblanadi. Giyohvandlik organizm somatik va ruhiy holatining chuqur o'zgarishiga sabab bo'ladi va giyohvandni tanazzulga olib boradi. Giyohvandlikda o'zini to'xtatib bo'lmaydigan darajada giyohvand moddalarni iste'mol qilish mayli paydo bo'ladi, giyohvand moddaning miqdoriga nisbatan ehtiyoj, ruhiy va jismoniy bog'liqlik ortib boradi. Giyohvandlik asta-sekin boshlanib, surunkali davom etadi. Giyohvandlikka, odatda, irodasi kuchsiz, o'zini tiya olmaydigan, o'tkir sezgilarni o'zida sinab ko'rishga qiziquvchan, ruhan zaif va o'ta xudbin kishilar beriluvchan bo'ladi. Yoshlar tarbiyasidagi nuqson va kamchiliklar, giyohvand moddalarni iste'mol qilib yuruvchi katta yoshdagilarga taqlid va havas, oiladagi noxush sharoit (ota-onaning ichkilikboz yoki giyohvand bo'lishi) hamda giyohvand moddalarning oson topilishi yoki qo'l ostida bo'lishi ham giyohvandlikka sabab bo'lishi mumkin. G.ka muhtalo bo'lganlarda xastalik borgan sari kuchaya borib, odatda, kutilmagan yomon oqibatlariga olib keladi.

Giyohvandlik eyforiyasida, ya'ni kayfi chog'likda 2 bosqich kuzatiladi: qisqa muddatli —1-5 daqiqa davom etadigan o'tkir hissiyotli bosqich (haqiqiy eyforiya) va uzoq (1—3 soat) cho'ziladigan bo'shashish, tinchlanish davri. Bu bosqichlarning qisqa yoki uzoq bo'lishi qanday giyohvand modda qabul qilinganiga va miqdoriga bog'liq. Giyohvandlikning hamma turi ham o'z rivojida giyohvand moddalarga o'rganib qolish yo'li bilan G. sindromining shakllanishiga olib keladi. Bu sindromning rivojlanishida ham 3 bosqich farqlanadi: 1) giyohvand moddaga nisbatan organizm reaktivligining o'zgarishi va ruhiy bog'lanishning paydo bo'lishi; 2) xumori (abstinent) sindromi ko'rinishida jismoniy bog'lanishning yuzaga kelishi; 3) organizm barcha sistemalarining zaiflashishi (tolerantlikning pasayishi, ya'ni giyohvand moddalarning avvalgi miqdorini ko'tara olmaslik, xumorning surunkali davom etishi va ayrim hollarda polinarkomaniya ning vujudga kelishi). G.ka muhtalo bo'lgan kishi giyohvand moddalarni qayta-qayta va ko'proq miqdorda iste'mol qila boshlaydi. Keyinchalik esa giyohvand moddalarsiz turolmaydigan bo'lib qoladi. giyohvand moddalarni iste'mol qila boshlagan odam, qaysi tipda bo'lmasin, avvalo, unga odat yaratadi. Ammo bir yil o'tgach, preparat mehnatga yaroqsiz bo'lib qoladi. Natijada u jinoyatga qo'l urishga majbur bo'ladi. Ya'ni navbatdagi giyohvandlik vositasini qabul qilish maqsadida o'g'irlikni o'z uyi — oilasidan boshlaydi. Giyohvandlik va

giyohvandlikning yosh avlod tarbiyasiga, insoniyat kelajagiga katta zarar yetkazishi butun jahon hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Shuning uchun ham bu falokatga qarshi kurash hozirgi kunda yer maydonidagi global muammolardan biriga aylandi. Asr vabosiga qarshi kurashish barchamizning ishimiz. O'zini shu yurt farzandi deb bilgan har bir fuqaro bu harakatdan chetga chiqmasligi kerak. Bu jarayon umummilliy kurashga aylanishi kerak. Shundagina minglab yoshlarning kelajagini, oilalarimiz tinchligini asrab-avaylaymiz. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichining o'ziga xos shart-sharoitlari, aholining katta qismini ijtimoiy yo'qotish giyohvand moddalar iste'moli dinamikasining o'sishiga olib keladi. Turli sabablarga ko'ra mavjud dori-darmonlarga qarshi chora-tadbirlar tizimi barqaror emas va haqiqiy holatga mos kelmaydi. Vaziyatning asosiy xususiyati shundaki, giyohvandlik muammosi yosh avlod o'rtasida tobora keng tarqalmoqda. Shu jumladan o'rmirlar orasidagi giyohvandlik muammosi zamonaviy jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu salbiy jarayonga aralashish nafaqat maktab va davlat institutlari darajasida, balki, avvalambor oila ichidan boshlanadi. O'smirlar orasidagi giyohvandlikning oldini olishda oilaning roli bebahodir va bu yerda yomon odatlarga nisbatan barqaror munosabatni shakllantirish uchun asoslar yaratilgan. Oila bolalarda qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Giyohvandlikning oldini olish sog'lom hayot tamoyillarini, shu jumladan ma'sulyat, o'zini o'zi boshqarish va o'z sog'lig'iga hurmatni tarbiyalashga asoslangan. Ota-onalar, birinchi o'qituvchilar sifatida, ushbu qadriyatlarni o'z farzandlarining xatti-xarakatlariga kiritishlari zarurdir.

Giyohvandlikning oldini olishning muhim elementi oilada ochiq va ishonchli muhitni yaratishdir. Ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi va ularni tinglashga tayyorligini his qiladigan o'smirlar diqqat va tushunchaga ega bo'lmaganlarga qaraganda oilaviy qadriyatlarga ko'proq ishonishadi. Ota-onalar farzandlari uchun xulq-atvor namunalari bo'lib xizmat qilishadi. Agar ota-onalar sog'lom turmush tarzini olib borsalar, zararli moddalarni iste'mol qilishdan qochsalar, moderatsiya va ma'sulyatni namoyish qilsalar, unda o'spirinning yetarli hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lish ehtimoli ortadi. Giyohvand moddalarning zarari va ularning tanaga ta'siri haqida oilaviy ta'lim juda muhimdir. Ota-onalar giyohvand moddalarni iste'mol qilishning oqibatlari to'g'risida ma'lumot berib, farzandlarining ta'lim jarayoniga aralashishlari kerak. Bu jarayonlar o'smirlarga haqiqiy xavf-xatarlardan xabardor bo'lish va sog'lig'i haqida ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. [2]

Shuni ta'kidlash kerakki, giyohvandlikning oilaviy profilaktikasi faqat oila doirasi bilan cheklanmasligi kerak. Maktablar, jamoat tashkilotlari va davlat idoralari, shuningdek, o'spirinlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun axborot yordami va sharoit yaratishda muhim rol o'ynaydi. O'smirlar orasida giyohvandlikning oldini olishda oilaning rolini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Ota-onalarning ishonchi, qo'llab-quvvatlashi va namunali xulq-atvoriga asoslangan oilaviy muhit o'smirlarda sog'lom turmush tarzi va giyohvand moddalarga bo'lgan munosabatni shakllantirish uchun asosdir. Oilaning ta'lim va ijtimoiy institutlar bilan o'zaro aloqasi giyohvandlik muammosiga kompleks yondashuvni yaratishga yordam beradi, bu esa yosh avlodni giyohvand moddalarni iste'mol qilishning salbiy oqibatlaridan himoya qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimova Z.SH. O'smirlar orasida giyohvandlikning oldini olishda oilaning roli. Maqolasi
3. O'zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2016.
4. Abdullayeva Sh. *Pedagogika va psixologiya asoslari*. — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Xudoyberdiyev T. *Yoshlar tarbiyasida sog'lom turmush tarzining ahamiyati*. — Toshkent, 2021.
6. UNICEF. *Youth and Substance Abuse Prevention Programs*. — New York, 2019.
7. Rasulov A. *O'smirlar psixologiyasi va tarbiya masalalari*. — Toshkent: Fan, 2018.
8. Sodiqov B. *Giyohvandlikka qarshi kurashning ijtimoiy-pedagogik asoslari*. — Toshkent, 2022.
9. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi materiallari va statistik ma'lumotlari, 2023.

YOSHLAR VA GIYOHVANDLIK: MUAMMO VA ECHIM

NavDU “Tillar fakulteti” 4- kurs talabasi Алимова Рафиля

Ilmiy rahbar; NDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrası

katta o'qituvchisi N.M.Suvonova

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar o'rtasida giyohvandlikning tarqalish sabablari, uning salbiy oqibatlari hamda mazkur muammoning oldini olish choralari yoritilgan. Shuningdek, yoshlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ma'naviy tarbiyaning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Maqolada giyohvandlikka qarshi kurashishda oila, ta'lim muassasalari va jamiyat hamkorligining muhim o'rni ko'rsatib berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются причины распространения наркомании среди молодежи, её негативные последствия, а также меры по предотвращению данной проблемы. Кроме того, уделено внимание вопросам формирования у молодежи здорового образа жизни, содержательной организации их свободного времени и значению духовно-нравственного воспитания. В статье также показана важная роль сотрудничества семьи, образовательных учреждений и общества в борьбе с наркоманией.

Annotation: This article discusses the causes of drug addiction among young people, its negative consequences, and measures to prevent this problem. It also highlights the importance of promoting a healthy lifestyle among youth, organizing their free time meaningfully, and providing moral and spiritual education. The article emphasizes the significant role of cooperation between families, educational institutions, and society in combating drug addiction.

Kalit soʻzlar: giyohvandlik, huquqiy asoslar, milliy qonunchilik, jinoyat kodeksi, profilaktika, reabilitatsiya, psixotrop moddalar, noqonuniy aylanma, giyohvandlikka roʻja qoʻygan yoshlar, yoshlar siyosati.

Ключевые слова: наркомания, правовые основы, национальное законодательство, уголовный кодекс, профилактика, реабилитация, психотропные вещества, незаконный оборот, молодежь, употребляющая наркотики, молодежная политика.

InglizKeywords: drug addiction, legal framework, national legislation, criminal code, prevention, rehabilitation, psychotropic substances, illicit trafficking, youth involved in drug use, youth policy.

Bugungi kunda turli xalqaro tashkilotlarning bergan malumotlariga koʻra yer yuzi aholisining deyarli 500 mlndan ortiq qismi giyohvandlik vositalarini va psixotrop moddalarni isteʼmol qilib kelmoqda. Oʻzbekistonda esa 5 mingga yaqin fuqaro giyohvandlikka qaram kishilar hisobida turadi. Giyohvandlikka qaram kishilar hisobida turgan fuqarolarning 31 foizini 20-40 yoshdagilar tashkil etadi. Statistik malumotlarga qaraganda bahor va kuz oylarida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni gʻayri qonuniy isteʼmol qiluvchi shaxslarda kasallik asoratlari kuchaydi va bu davrda mazkur moddalar savdosi avjiga chiqadi. Giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasiga oid jinoyat ishlari tahlili shuni koʻrsatadiki, mazkur turdagi jinoiy qilmishlarning 60 foizi aynan fevral-aprel, 25 foizi sentyabr-noyabr, 15 foizi esa, boshqa davrlarda sodir etiladi.

Hozirgi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1987-yil 7-dekabrdagi qaroriga asosan, 26-iyun “Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni» deb eʼlon qilingan va mazkur tashkilot tomonidan “Narkotik moddalar toʻgʻrisida”gi, “Psixotrop moddalar” hamda “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi qurash toʻgʻrisida”gi konventsiyalar qabul qilingan.

Giyohvandlik oilaviy munosabatlarning buzilishi uchun asosiy jiddiy sabab boʻla oladi. Chunki, giyohvandlikka roʻja quygan inson maqsadsiz, befarq hamda oila maʼsulyatini unutib qoʻyishadi. Giyohvandlikning oldini olishda asosiy rolni oila va oila aʼzolar hisoblanadi. Oila aʼzolarining bir-biriga boʻlgan hurmati va oʻzaro tushunishi yoshlarning sogʻlom rivojlanishiga yordam beradi.

Yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashish va ularni oldini olish uchun ular bilan alohida ishlash lozim. Yoshlarni giyohvandlikdan saqlash uchun ijtimoiy tadbirlar, sport musobaqalari, sanʼat koʻrgazmalari va boshqa ijtimoiy faoliyatlarni tashkil etish mumkin. Giyohvandlikning oldini olish uchun koʻplab chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu chora-tadbirlar nafaqat huquqiy va tibbiy, balki ijtimoiy, psixologik va tarbiyaviy sohalarda ham boʻlishi kerak. Shunday qilib, giyohvandlikka qarshi kurashning samarali boʻlishi uchun jamiyatning barcha qatlamlari ishtirok etishi lozim. Hozirgi kunda mamlakatimizda giyohvandlik vositalarini oʻstirish va sotishga qaraganda psixotrop moddalar va ularning analoglarini dorixonalardan olish hollari yoshlar oʻrtasida keng tarqalmoqda shu sababli biz ushbu turdagi psixotrop moddalar va ularning analoglarini noqonuniy aylanmasiga chek qoʻyish uchun kurashmogʻimiz lozim.

Xonadondagi surunkali janjallar, ichkilikbozlikdan bezor bo'lgan o'smir ko'chadan «panoh» topishga harakat qiladi, yoshlar aynan balog'at davrida bekorchi bo'lib qolishi, ularni o'zlariga yoqmagan ish bilan bog'lab qo'yish giyohvandlik ko'chasiga kirib qolishiga olib keladi. Yoshlarimiz giyohvandlik kasaliga muhtalo bo'lib qolmasliklari uchun kattalar ularning bo'sh vaqtlari to'g'ri o'tishiga ko'maklashishlari, madaniy hordiq chiqarish, sport bilan shug'ullanish, foydali mehnat bilan band bo'lishlariga jiddiy e'tibor qaratishlari lozim.

Farzand tarbiyasiga o'ta mas'uliyat va ehtiyotkorlik bilan yondoshishimiz, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024-2028 yillarga mo'ljallangan milliy strategiyasida ko'rsatilgan maqsadlar va ularga erishish chora-tadbirlarini barcha davlat organlari va tashkilotlari og'ishmay amalga oshirish lozim. Ana shundagina respublikamizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasining barvaqt oldini olish, aholida ularni iste'mol qilishga nisbatan "immunitet"ni shakllantirish orqali genofondimizga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etgan bo'lamiz.

Giyohvandlik va giyohvand moddalarning noqonuniy muomalasi zamonaviy jamiyat uchun eng xavfli ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu illat nafaqat inson salomatligiga, balki jamiyat barqarorligi, huquq-tartibot va qonun ustuvorligiga jiddiy tahdid soladi. Sud amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar ko'p hollarda boshqa og'ir jinoyatlarni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik yoshlar kelajagiga jiddiy xavf tug'diruvchi illatlardan biridir. U nafaqat inson salomatligiga, balki oila, jamiyat va davlat taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yoshlarni giyohvandlikdan asrashda ota-onalar, ta'lim muassasalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va keng jamoatchilik hamkorlikda ish olib borishi muhimdir. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport va ilm-fanga jalb qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish orqali bu muammoning oldini olish mumkin. Sog'lom va ongli yoshlar esa jamiyatning mustahkam kelajagini yaratadi.

YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISH: TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI

Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti
Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi
2-bosqich talabasi **Shukurullayeva Laylo**
shukurullayevalaylo7@gmail.com / +998992601140
Ilmiy rahbar: **D.Y.Xodjayeve**

Annotasiya: Mazkur maqolada yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalish sabablari, uning salbiy oqibatlari hamda ushbu muammoning oldini olishda ta'lim va tarbiyaning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, oilaviy muhit, maktab, oliy ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va internetning yoshlar ongiga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada xalqaro tashkilotlar tavsiyalari, ilmiy manbalar hamda mutaxassislar fikrlari asosida profilaktik choralar ko'rib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: Giyohvandlik, yoshlar, taʼlim, tarbiya, profilaktika, sogʻlom turmush, psixologik muhit, maʼnaviyat, zararli odatlar, jamiyat.

Annotation: This article discusses the causes of drug addiction among young people, its negative consequences, and the importance of education and upbringing in preventing this problem. The influence of family environment, schools, higher educational institutions, mass media, and the internet on youth consciousness is also analyzed. Preventive measures based on international recommendations, scientific sources, and expert opinions are highlighted.

Keywords: Drug addiction, youth, education, upbringing, prevention, healthy lifestyle, psychological environment, spirituality, harmful habits, society.

Аннотация: В данной статье рассматриваются причины распространения наркомании среди молодежи, её негативные последствия, а также роль образования и воспитания в профилактике данной проблемы. Анализируется влияние семьи, школы, высших учебных заведений, средств массовой информации и интернета на сознание молодежи. Освещаются профилактические меры на основе международных рекомендаций, научных источников и мнений специалистов.

Ключевые слова: Наркомания, молодежь, образование, воспитание, профилактика, здоровый образ жизни, психологическая среда, духовность, вредные привычки, общество.

Bugungi globallashuv davrida insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri yoshlar orasida giyohvandlikning keng tarqalib borayotganidir. Giyohvandlik nafaqat inson salomatligiga, balki jamiyat taraqqiyoti, oilaviy muhit va maʼnaviy qadriyatlarga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi. Ayniqsa, yoshlarning bu illatga berilishi kelajak avlodning sogʻlom shakllanishiga xavf tugʻdiradi. Yoshlar hissiyotlarga tez beriluvchan, qiziqishga moyil hamda atrof-muhit taʼsiriga sezgir boʻlgani sababli zararli odatlarga tezroq duch kelishi mumkin. Shu bois giyohvandlikning oldini olishda taʼlim va tarbiya masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki toʻgʻri tashkil etilgan tarbiya yoshlarni turli salbiy oqimlardan himoya qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik boʻyicha boshqarma maʼlumotida: “Ilmiy asoslangan profilaktika dasturlari yoshlarni sogʻlom hayot tarziga yoʻnaltirishda muhim rol oʻynaydi” deb taʼkidlangan (UNODC, 2013). Ushbu fikr profilaktik taʼlimning naqadar muhim ekanligini koʻrsatadi. Bugungi kunda Oʻzbekistonda ham yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport va madaniyatga jalb qilish boʻyicha keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda. Chunki maʼnaviy jihatdan yetuk, bilimli va faol yoshlar turli zararli illatlarga kamroq beriladi.

Giyohvandlik — insonning narkotik moddalarni muntazam isteʼmol qilishi natijasida ularga jismoniy va ruhiy jihatdan qaram boʻlib qolishidir. Bu illat inson organizmiga kuchli zarar yetkazadi. Avvalo, narkotik moddalar miya faoliyatini izdan chiqaradi, asab tizimiga salbiy taʼsir qiladi hamda insonning fikrlash qobiliyatini pasaytiradi. Mutaxassislarining taʼkidlashicha, giyohvand moddalar yosh organizmga yanada kuchliroq zarar yetkazadi. Chunki oʻsmirlik davrida organizm hali toʻliq shakllanmagan boʻladi. Natijada yoshlarning ruhiy holati oʻzgaradi, xotira sustlashadi, oʻqishga qiziqish kamayadi va tajovuzkorlik kuchayadi. Psixolog E.Gʻoziyevning fikricha: “Shaxs tarbiyasidagi boʻshliq yoshlarning zararli odatlarga moyilligini kuchaytiradi” (Gʻoziyev, 2017). Darhaqiqat, oiladagi

e'tiborsizlik, mehr yetishmasligi yoki noto'g'ri muhit yoshlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Giyohvandlik faqat bir insonning emas, balki uning oilasi va jamiyatining ham muammosiga aylanadi. Giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi yoshlarning ko'pchiligi o'qishni tashlab ketadi, jinoyatga moyilligi ortadi va jamiyatdan uzoqlashadi. Bu esa ijtimoiy muammolarning ko'payishiga olib keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti mutaxassislari "Giyohvandlik insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini izdan chiqaruvchi kasallikdir" deb baholaydi (WHO, 2020). Shu sababli bu illatga qarshi kurashish barcha davlatlar oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishiga turli omillar sabab bo'ladi. Eng avvalo, oiladagi nosog'lom muhit muhim omillardan biridir. Ota-onaning farzand tarbiyasiga loqayd qarashi, oilaviy nizolar yoki ajrimlar yoshlarning ruhiy tushkunlikka tushishiga sabab bo'lishi mumkin. Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir" degan edi (Avloniy, 1992). Ushbu fikr bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki tarbiya sust bo'lgan joyda yoshlar turli zararli odatlarga moyil bo'lib qoladi. Ikkinchi muhim sabab — tengdoshlar ta'siri. O'smirlik davrida yoshlar o'z do'stlarining fikriga katta ahamiyat beradi. Agar yaqin do'stlari zararli odatlarga qiziqsa, boshqa yoshlar ham ularga ergashishi mumkin. Yana bir sabab — bo'sh vaqtning mazmunli tashkil etilmasligi. Sport, kitobxonlik, san'at yoki foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanmagan yoshlar salbiy ta'sirlarga tezroq uchraydi. Shu bois yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Pedagog olimi N.Muslimovaning ta'kidlashicha: "Yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantirish zararli illatlarga qarshi eng kuchli vositadir" (Muslimova, 2020). Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ham kuchaymoqda. Ayrim filmlar, musiqalar yoki yashirin internet sahifalarida zararli odatlar targ'ib qilinishi yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ruhiy tushkunlik holatidagi yoshlar bunga tezroq ishonib qoladi. Shuningdek, iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik, oilaviy nazoratning sustligi va kelajakdan qo'rquv hissi ham ayrim yoshlarni giyohvandlik tomon yetaklashi mumkin. Psixologlarning fikricha, o'zini yolg'iz his qiladigan yoshlar xavf guruhiga ko'proq kiradi. BMT ekspertlari "Yoshlarning qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish giyohvandlikning oldini olishda muhim omildir" deb hisoblaydi (UNODC, 2021).

Ta'lim tizimi yoshlarni sog'lom hayot tarziga yo'naltirishda muhim vosita hisoblanadi. Maktab va oliy ta'lim muassasalari faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiya maskani hamdir. O'quvchilarga giyohvandlikning salbiy oqibatlari haqida muntazam tushuntirish ishlari olib borilishi zarur. Bugungi kunda ko'plab davlatlarda sog'lom turmush tarzi va zararli odatlardan himoyalaniş mavzulari o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu yoshlarning ongida mustahkam ma'naviy immunitet shakllanishiga yordam beradi. UNODC ekspertlari: "Profilaktika ishlari faqat ogohlantirish bilan cheklanmasligi, balki yoshlarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak" deb ta'kidlaydi (UNODC, 2021). Hayotiy ko'nikmalar deganda stressni boshqarish, to'g'ri qaror qabul qilish, muloqot madaniyati va muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish kabi fazilatlar tushuniladi. Ana shu ko'nikmalar shakllangan yoshlar zararli odatlarga kamroq beriladi. Maktablarda psixologik xizmatni kuchaytirish ham muhimdir. Chunki ayrim yoshlar o'z muammolarini ota-onasi yoki do'stlariga ayta olmaydi. Psixolog esa ularning ruhiy holatini kuzatib, kerakli tavsiyalar bera oladi. Shuningdek, o'qituvchilarning shaxsiy namunasi ham katta ahamiyatga ega.

O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi hamdir. Shu sababli pedagoglarning ma'naviy saviyasi va madaniyati yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yoshlar tarbiyasi har qanday davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir" deb ta'kidlagan (Mirziyoyev, 2020). Ushbu fikr yosh avlod masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanini ko'rsatadi.

Oilaviy tarbiya yoshlarning shaxs sifatida shakllanishida eng asosiy omillardan biridir. Farzand avvalo oilada mehr, e'tibor va tarbiya oladi. Agar oilada sog'lom muhit bo'lsa, yoshlarning zararli odatlarga berilish ehtimoli kamayadi. Ota-onaning farzand bilan samimiy suhbat qurishi, uning muammolariga befarq bo'lmasligi juda muhimdir. Aks holda, yoshlar o'z muammolariga noto'g'ri yo'l bilan yechim izlay boshlaydi. Pedagog olim K.D.Ushinskiy "Tarbiya inson taqdirini hal qiluvchi kuchdir" deb yozgan (Ushinskiy, 1988). Haqiqatan ham, oiladagi tarbiya insonning keyingi hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ayrim ota-onalar farzandining moddiy ehtiyojlarini qondirishni yetarli deb hisoblaydi. Aslida esa yoshlar uchun mehr, muloqot va ruhiy qo'llab-quvvatlash moddiy ta'minotdan ham muhimroqdir. Farzandning kimlar bilan do'stlashayotgani, internetda nimalarga qiziqayotgani va bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotgani ota-onaning doimiy nazoratida bo'lishi kerak. Biroq bu nazorat bosim shaklida emas, ishonch va samimiylilik asosida olib borilishi lozim.

Bugungi raqamli davrda internet yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Internetning foydali jihatlari ko'p bo'lsa-da, uning salbiy ta'sirlari ham mavjud. Ayrim saytlar, filmlar yoki ijtimoiy tarmoqlarda zararli odatlar yashirin tarzda targ'ib qilinmoqda. Mutaxassislarning fikricha, yoshlar internetdagi har qanday axborotni to'g'ri tahlil qila olmaydi. Shu sababli media savodxonlikni oshirish muhim hisoblanadi. UNESCO hisobotida: "Media savodxonlik yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilishning muhim vositasidir" deb qayd etilgan (UNESCO, 2021). Ommaviy axborot vositalari esa yoshlarni sog'lom turmush tarziga targ'ib qiluvchi ko'rsatuvlar, ijtimoiy roliklar va maqolalarni ko'paytirishi kerak. Ayniqsa, mashhur sportchilar, san'atkorlar va blogerlarning ijobiy namunalari yoshlar ongiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Giyohvandlikning oldini olish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu borada oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari hamkorlikda ishlashi kerak. Birinchidan, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish muhimdir. Sport to'garaklari, kitobxonlik klublari, ijodiy markazlar yoshlarni foydali faoliyatga jalb qiladi. Ikkinchidan, psixologik yordam tizimini rivojlantirish kerak. Ruhiy tushkunlik holatidagi yoshlar bilan individual ishlash ularning zararli odatlarga berilishining oldini oladi. Uchinchidan, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish kuchaytirilishi zarur. Chunki sog'lom muhitda ulg'aygan yoshlarning ma'naviy immuniteti yuqori bo'ladi. Abu Ali ibn Sino "Inson salomatligi — eng katta boylikdir" deb yozgan (Ibn Sino, 1981). Shu sababli salomatlikni asrash har bir insonning muhim vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish ham muhimdir. Mustaqil fikrlaydigan inson zararli takliflarga tez ishonib qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu illat inson salomatligi, oilaviy muhit va jamiyat taraqqiyotiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli unga qarshi kurashishda ta'lim va tarbiya asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Oiladagi sog'lom muhit, maktabdagi to'g'ri tarbiya, psixologik yordam va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish

giyohvandlikning oldini olishda muhim omillardir. Shuningdek, internet va ommaviy axborot vositalarining ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Yosh avlodning ma'naviy va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lib voyaga yetishi jamiyat kelajagini belgilaydi. Shu sababli har bir ota-ona, pedagog va jamiyat a'zosi yoshlarni zararli odatlardan himoya qilish mas'uliyatini chuqur his qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. — Toshkent: O'qituvchi, 1992.\n
2. G'oziyev E. *Umumiy psixologiya*. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2017.\n
3. Muslimova N. *Pedagogik kompetentlik va yoshlar tarbiyasi*. — Toshkent, 2020.\n
4. Ushinskiy K.D. *Pedagogik asarlar*. — Moskva, 1988.\n
5. Ibn Sino. *Tib qonunlari*. — Toshkent: Fan, 1981.\n
6. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. — Toshkent: O'zbekiston, 2020.\n
7. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). *International Standards on Drug Use Prevention*. Vienna, 2013.\n
8. UNODC. *World Drug Report*. Vienna, 2021.\n
9. World Health Organization (WHO). *Drug Abuse and Public Health*. Geneva, 2020.\n
10. UNESCO. *Media and Information Literacy Guidelines*. Paris, 2021.\n
11. United Nations Regional Centre for Preventive Diplomacy for Central Asia (UNRCCA). "Youth and Drug Prevention Programs", 2025.\n
12. <https://www.unodc.org>
13. <https://www.who.int>
14. <https://www.unesco.org>

YOSHLAR O'RTASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIPISH XUSUSIDA

Zayniddinova Sevinch

NavDU, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fak. 1-kurs talabasi.

Ilm.rah.Achilova M.E.

NavDU Ijtimoiy fanlar kafedrasi.katta o'qituvchisi

Annontatsiya. Tezisdagi giyohvandlikning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri,uning yoshlar ongiga va ijtimoiy muhitga ko'rsatadigan zararli oqibatlari yoritilgan. Tarbiyada davlat va jamiyat hamkorligi, oilaning roli, ta'lim muassasalarida va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorlik yo'llari haqida fikr yuritilgan.O'zbekiston Respublikasida giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha qabul qilingan qonunlar,jinoyat kodeksining tegishli moddalari izohlangan.

Kalit soʻzlar : giyohvandlik, huquqiy asos, profilaktika, siyosiy yondashuv, ijtimoiy himoya, yoshlar tarbiyasi, sogʻlom turmush tarzi, hamkorlik, jinoyatchilik, narkotik vositalar.

Аннотация. В данной тезисной работе раскрывается пагубное влияние наркомании на общество и будущее молодежи. В ней анализируется сотрудничество государства, общества и семьи в воспитании, а также роль правоохранительных органов. Кроме того, освещены соответствующие статьи Уголовного кодекса Республики Узбекистан.

Ключевые слова: наркомания, здоровый образ жизни, профилактика, социальная защита, воспитание.

Bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri bu giyohvandlik hisoblanadi. Bu narkotik va psixotrop moddalarni muntazam isteʼmol qilish natijasida inson organizmida jismoniy va ruhiy qaramlik paydo boʻlishidir. Bunday moddalar inson asab tizimiga taʼsir qilib, vaqtinchalik kayfiyat oʻzgarishini yuzaga keltiradi, ammo keyinchalik organizmini yemiradi va ogʻir kasalliklarga sabab boʻladi. Giyohvandlik natijasida insonda ruhiy va jismoniy qaramlik paydo boʻlib, turli kasalliklar, jinoyatchilik, oilaviy nizolar va ijtimoiy muammolar kelib chiqadi. Shu sababli giyohvandlikning oldini olish, yoshlarni sogʻlom turmush tarziga yoʻnaltirish hamda bu illatga qarshi kurashishda davlat, oila, taʼlim muassasalari va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlarni turli zararli illatlardan asrash masalasiga alohida eʼtibor qaratib: „Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak maʼnaviyatli insonlar etib tarbiyalash-eng asosiy vazifamizdir“, deb taʼkidlagan. Ushbu fikr yoshlarni giyohvandlik kabi illatlardan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Giyohvandlikka qarshi kurashning huquqiy asoslarida narkotik va psixotrop moddalarni noqonuniy tayyorlash, saqlash, tashish va sotishning oldini olish, fuqarolar salomatligini himoya qilish hamda jamiyat xavfsizligini taʼminlash masalalari belgilab berilgan.

Asosiy huquqiy hujjatlar: „Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi“, „Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar toʻgʻrisidagi“ qonun, „Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida“gi qonun.

Jinoyat kodeksida: 270-moddada –taqiqlangan oʻsimliklarni yetishtish, 271-moddada –giyohvand moddalarni noqonuniy egallash, 273-moddada-giyohvand moddalarni tayyorlash, saqlash, tashish yoki sotish kabi holatlar uchun javobgarlik belgilangan. Huquqiy asoslarda shuningdek, yoshlarni zararli illatlardan himoya qilish, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, huquqbuzarlikning oldini olish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish masalalari ham yoritilgan.

Giyohvandlikni oldini olishda oiladagi nazoratni kuchaytirish, yoshlarni sport va toʻgaraklarga jalb qilish, taʼlim muassasalarida ichki ishlar, oʻqituvchilar tomidan targʻibot ishlarini olib boorish ham samarali natijalarga olib keladi. Yoshlarimizni huquqiy savodxonligini oshirishimiz darkor. Nimaga deganda, bugungi kunda yoshlarimiz orasida bu ishlarni sodir qiladiganlari juda ham koʻp. Chunki yoshlarimiz juda qiziquvchan

hisoblanadi. Ularni yoshligidanoq foydali kasb-hunarga yo'naltirishimiz kerak. Shunda biz o'z maqsadimizga erishamiz. Giyohvandlikning kelib chiqish sabablarini aytib o'tadigan bo'lsam, oilada nosog'lom muhit, qiziqish va havas, no'to'g'ri tanlangan do'stlar ta'siri, ruhiy tushkunlik va stress, nazoratsizlik, ishsizlik va bekorchilik, internetdagi salbiy axborotlar ta'siriga tushib qolish, tarbiyaning yetarli emasligi va hokazolar misol bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar orasida qiziqish yoki tengdoshlariga taqlid qilish sababli giyohvandlikka moyillik kuchayadi. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish – bu illatlarning yechimi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. T. 1994 y.
(270, 271, 273, 274-moddalar).
3. "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T. 1999 y. 19 avgust.
4. N. Habibullayeva. O'quvchi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish. T. 2026.

YOSHLAR O'RTASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXATROP MODDALAR BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI OLDINI OLISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI

Shodmon Ashurov -
NavDU Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar o'rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarning kriminologik xususiyatlari tahlil qilingan. Mavjud muammolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olishning samarali yo'llari kriminologik nuqtai nazardan tasniflangan. Shuningdek, profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация: В данной статье проанализированы криминологические особенности преступлений, связанных с наркотическими средствами и психотропными веществами среди молодежи. Криминологическая классификация охватывает существующие проблемы, причины их возникновения, а также эффективные пути предотвращения преступлений данного типа. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию профилактических мер.

Annotation: This article analyzes the criminological characteristics of crimes related to narcotic drugs and psychotropic substances among youth. The criminological classification covers existing problems, the causes of their emergence, as well as effective ways to prevent such crimes. In addition, proposals and recommendations for improving preventive measures have been developed.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, psixotrop moddalar, yoshlar, jinoyatchilik, kriminologiya, profilaktika, huquqbuzarlik, jamiyat, ta'lim, jinoyatlarni oldini olish.

Ключевые слова: наркомания, психотропные вещества, молодежь, преступность, криминология, профилактика, правонарушение, общество, образование, предотвращение преступлений.

Keywords: drug addiction, psychotropic substances, youth, crime, criminology, prevention, offense, society, education, crime prevention.

KIRISH. Jamiyat taraqqiyoti va yosh avlodning sog'lom ulg'ayishi uchun xavf solayotgan omillardan biri bu — giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning yoshlar o'rtasida keng tarqalishidir. Bugungi kunda mazkur muammo nafaqat ijtimoiy va tibbiy, balki huquqiy va kriminologik jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu turdagi jinoyatlar nafaqat shaxsiy fojialarga, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka ham jiddiy tahdid solmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etuvchilarning katta qismi 18–30 yosh oralig'idagilardan iborat. SHu bois yoshlar o'rtasidagi bu turdagi jinoyatlarni tahlil qilish, sabablarini aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Mazkur maqolada aynan shu masalaga kriminologik yondashuvda yondashishga harakat qilingan.

YOsh avlod — har qanday jamiyatning istiqboli va rivojining mustahkam tayanchi hisoblanadi. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy salohiyatini oshirishda yoshlarning yetuk, bilimli va jismonan sog'lom bo'lishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ammo afsuski, globallashuv, axborot oqimi va turli madaniy ta'sirlar ortidan yoshlar o'rtasida salbiy illatlar, xususan, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan foydalanish holatlari ortib bormoqda. Giyohvandlik — nafaqat inson salomatligiga, balki jamiyatning ma'naviy asoslariga, huquqiy tartibotga ham jiddiy tahdid soladigan xavfli illatdir. Ayniqsa, ushbu muammoning yoshlar orasida keng tarqalayotgani jinoyatchilikning o'sishi, jinoiy guruhlariga yoshlarni jalb qilish, ta'lim jarayonida uzilishlar va ijtimoiy muhitda notinchlik kabi og'ir oqibatlariga olib kelmoqda.

Tadqiqot davomida dastavval giyohvand moddalarning paydo bo'lishi tarixiga nazar tashlasak:

Afyun²² (aslida yunoncha abijum – mudratuvchi, uxlatuvchi), “opiy”, “qora dori” – degan ma'nolarni bildirib, ko'knorning xomroq ko'sagini tilib qo'yganda undan oqib chiqib, havoda qorayib qotgan, sutsimon shiradir. Tarkibida morfin, papaverin, kodein, tebain, narkotin va 20 ga yaqin boshqa alkaloidlar bor. Dam badam qabul qilib turilsa, boshqa narkotiklar kabi unga o'rganib qolish mumkin. Bu hayot uchun xavfli. Misr yozuvlarida (mil. av. 1552 yil) dori sifatida tavsiya qilingan. Teofrast (mil. av. 3 asr), Dioskoridus-Diskuridis (mil. av. 77 yil) ham o'z asarlarida Afyun dori ekanligini aytib o'tishgan.

Afyun dastlab dori sifatida Kichik Osiyoning janubi-sharqida, yevropada ishlatilgan va “opiy” deb atalgan. YUnonlardan arablar va YAqin SHarqdagi boshqa xalqlarga “afyun” shaklida kirgan (o'zbeklar “qora dori” ham deyishadi). Abu Bakr ar-Roziy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Baytor, Dovuvdi Antoqiylarning asarlarida ham Afyunning tibbiy naf'i, ishlatilish usullari bayon etilgan. Xitoyda Afyunni tutatib chekish rasm bo'lgan. Bu odat keyinchalik Hindiston va Eronga ham o'tgan. Afyun kuchli narkotik bo'lgani uchun hamma mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham uni iste'mol qilish taqiqlangan. Tadqiqotchilar tomonidan bugungi kunda giyohvandlikning yangi bosqichi ya'ni, yangi psixoaktiv moddalar keng tarqala boshlanganligi iddao qilinadi. YAngi psixoaktiv moddalar (YAPM) — 2005 yildan boshlab moddiy va ruhiy bog'liqlikka olib kelishi mumkin bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lgan psixoaktiv moddalar bozorida paydo bo'lgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (BMT GJB) ta'rifiga ko'ra, YAPM — bu “1961 yildagi Giyohvand moddalar to'g'risidagi konvensiya yoki 1971 yildagi Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiya bilan nazorat qilinmaydigan, ammo jamoat salomatligi uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan, toza holda yoki preparatlar tarkibida iste'mol qilinadigan moddalardir”²³.

Jahon tajribasi va BMT, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) kabi xalqaro tuzilmalarning ma'lumotlariga ko'ra, giyohvand moddalardan foydalanishning boshlanish nuqtasi aynan o'smirlik va yoshlik davriga to'g'ri keladi. Bu esa ushbu muammoning nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, psixologik va kriminologik jihatdan ham chuqur o'rganilishini taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlarni giyohvandlik va unga

²² O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. Электрон манбаа: https://uz.wikipedia.org/wiki/Afyun#cite_note-1.

²³ United Nations Office on Drugs and Crime. The Challenge of New Psychoactive Substances: A Report from the Global SMART Programme, March 2013. Viena: United Nations Office on Drugs and Crime; 2013. Манзил: https://www.unodc.org/documents/scientific/NPS_Report.pdf (мурожаат вақти: 11.10.2025).

bog‘liq jinoyatlardan himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Jumladan, Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan “YOshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, “YOshlar daftari” tizimi va boshqa islohotlar — yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va salbiy illatlardan himoya qilishga qaratilgan muhim chora-tadbirlardir. SHu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq jinoyatlar yildan-yilga murakkablashmoqda, uning sodir etilish shakllari va usullari o‘zgarmoqda, yoshlarni jalb etish mexanizmlari esa yanada mo‘ljallangan va maqsadli tus olmoqda. Bu esa ushbu jinoyatlarni oldini olishda yangi nazariy yondashuvlar va samarali kriminologik chora-tadbirlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga nisbatan qarshi immunitetni shakllantirish, shuningdek, inson salomatligini ta‘minlashga qaratilgan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo so‘nggi yillarda yangi turdagi sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar paydo bo‘layotgani, ular inson omilisiz internetning ijtimoiy tarmoqlaridan foydalangan holda aholi, ayniqsa, yoshlar orasida oson tarqatilayotgani mas‘ul davlat tuzilmalarining bu boradagi faoliyatini “Barcha sa‘y-harakatlar qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini taqozo etmoqda. Aytish kerakki, Prezidentimizning 2025 yil 7 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73sonli Farmoni²⁴ bu borada muhim huquqiy asos bo‘ldi. Ilg‘or xorijiy tajriba, xalqaro, shu jumladan BMT ekspertlarining xulosa va tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya tasdiqlandi. Milliy strategiya doirasida aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda “giyohvandlikka qarshi immunitet”ni, o‘quvchi va talabalar orasida kuchli ta‘sir qiluvchi dorilarni iste‘mol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish, ta‘lim muassasalarida psixofaol moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan yangi ta‘sirchan targ‘ibot-tashviqot va tarbiyaviy-profilaktik mexanizmlarni joriy etish maqsadlarga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda dorixonalarining giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanish amaliyotini nazorat qilish, shuningdek, farmatsevtika korxonalari, giyohvandlik vositalarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi sub‘ektlar mas‘uliyatini oshirishning ta‘sirchan mexanizmlarini yaratish ham ularning ustuvor vazifalariga kiradi. Afsuski, hozirgi kunda yoshlar orasida tarkibida giyohvandlik vositalari bo‘lgan (“Tramadol”, “Nalbufin”, “Sanaat” va h.k.) psixofaol (“Lirika”, “Regapen”, “Galara” va h.k.) dorivositalarini iste‘mol qilish holatlarining uchrab turishi hamda, 3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 7 maydagi “O‘zbekiston

²⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 7 майдаги “Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига чек қўйиш орқали уларнинг аҳоли саломатлиги ва мамлакатимиз генофондига салбий таъсирини бартараф этиш стратегик чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-73сонли Фармони. <https://lex.uz/uz/docs/7132120> . Электрон манба: (мурожаат вақти: 11.10.2025 й)

Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/7132120>. Elektron manba: (murojaat vaqti: 11.10.2025 y) yoshlarimizning ruxan va jismonan sog'lom bo'lib yetishishlari, zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib berilgan bo'lishiga qaramay narkotik moddalar bilan bog'liq jinoyatlarni sodir qilishlari va giyohvandlik yo'lga kirib ketayotganligi achinarli holdir. Xulosa Xulosa sifatida yoshlar o'rtasida giyohvandlik vositalarining iste'moli profilaktikasini amalga oshirish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish uchun quydagi amaliy tadbirlarni qo'llash maqsadga muvofiq.

Birinchidan, mahallalar va barcha ta'lim muassasalarida aholining ommaviy sport bilan shug'ullanishi uchun zaruriy infratuzilmani bosqichma bosqich rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

Ikkinchidan, barcha turdagi davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida mavjud shtat birliklari doirasida jamoatchilik asosida "sport va tarbiya targ'ibotchisi" faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish;

Uchinchidan, mahalla va ta'lim muassasalarda aholining jismoniy tayyorgarligi va salomatligi darajasini davlat talablari asosida belgilovchi "Jismoniy tayyorgarlik" sinovlarini tashkil etish, shuningdek sportning "kibersport" yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'lganlarni rag'batlantirish borasida yoshlarga ta'lim muassasalarga o'qishga kirish uchun imtiyozlar berish, o'quvchi va talabalarga bir oylik stipendiya miqdorini to'lash, mahalla aholiga "Jismoniy tarbiya va sport a'lochisi" ko'krak nishoni, "Sog'lom avlod uchun", "Sog'lom turmush" kabi medal va orden bilan taqdirlash amaliyotini yo'lga qo'yish;

To'rtinchidan, "Cog'lom turmush tarzi" platformasini qayta ishga tushirish va aholi o'rtasida unga ulanish bo'yicha keng qamrovli axborot kompaniyasini tashkil etish;

Beshinchidan, Qishloq sharoitlarida yoshlarga ommaviy sport bilan shug'ullanish uchun munosib sharoitlarni yaratish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida oilaviy nodavlat sport ta'limi muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yish, bu borada hududiy yoshlar siyosati va sport bo'linmalari bilan bitim tuzish, ularga 3 yildan kam bo'lmagan muddatga bepul foydalanish uchun sport jihozlari taqdim etish, yangi sport anjomlarini xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmlarni belgilash.

Oltinchidan, yoshlar orasida giyohvandlik vositalariga qarshi immunitetni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari imkoniyatlaridan keng foydalanish bo'yicha "Media konsepsiya"ni ishlab chiqish, bunda, mahalliy va tijorat telekanallari orqali namoyish qilinadigan ommabop teleko'rsatuvlar davomida yoshlar uchun "giyohvandlik va zaharvandlikka qarshimiz" mavzusida ijtimoiy roliklar berib borilishini muntazam yo'lga qo'yish. YOshlar o'rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlar — jamiyatning dolzarb va murakkab muammosidir. Hozirgi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, globallashuv jarayonlari, internet va axborot vositalarining rivojlanishi yoshlarni narkotik moddalarga osonroq kirishiga va ular bilan bog'liq huquqbuzarliklarga tortilishiga sabab bo'lmoqda. SHu bois, ushbu jinoyatlarning oldini olishda kompleks va tizimli yondashuv zarur. Kriminologik tasnif asosidagi tadqiqotlar yoshlar o'rtasidagi narkotik bilan bog'liq jinoyatlarning turlari, ularning

sabablari va xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa profilaktika choralari samarali ravishda yo‘lga qo‘yishga va davlat siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilashga xizmat qiladi. YOshlar orasidagi giyohvandlik va psixotrop moddalarga bog‘liq jinoyatlar ko‘p jihatdan ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, do‘stlar ta’siri, ta’lim tizimi va iqtisodiy omillar bilan bog‘liqdir. SHuning uchun, profilaktikada faqat qonunchilik va jazo choralari emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar, yoshlar uchun salbiy ta’sirlardan himoyalash mexanizmlari ham joriy etilishi kerak. Kriminologiyadagi tasniflash yordamida jinoyatlarning turli xil shakllari — noqonuniy moddalarni muomala qilish, noqonuniy ishlab chiqarish, yoshlarning narkotiklar iste’moliga yo‘naltirilishi, shuningdek, ushbu jinoyatlarning profilaktikasini aniqlash mumkin. Bu esa huquqni muhofaza qilish organlari va ijtimoiy muassasalarning hamkorligini mustahkamlashga imkon beradi. SHu bilan birga, global tajribalar va ilmiy tadqiqotlardan kelib chiqib, yoshlar o‘rtasidagi giyohvandlikka qarshi kurashda profilaktika faoliyatini jamiyatning barcha qatlamlarida — maktablarda, oilalarda, madaniy va sport muassasalarida samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega. SHu tariqa yoshlarni narkotiklardan himoya qilish va ularni jinoyatchilikdan olib qolishda ijtimoiy va huquqiy mexanizmlar birgalikda faoliyat ko‘rsatishi lozim. Xulosa qilib aytganda, yoshlar o‘rtasidagi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlarni oldini olishning kriminologik tasnifi jamoatchilik xavfsizligini ta’minlash, yosh avlodni himoya qilish va jinoyatchilik darajasini kamaytirishda muhim vosita sanaladi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar va amaliyotni yanada rivojlantirish orqali, yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni bartaraf etish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qurbonov Sh.X. – Kriminologiya: nazariya va amaliyot. T.: “Yurist nashriyoti”, 2021. 2. yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Oxirgi tahriri – 2024 Abduraxmonov S. – Giyohvandlik va yoshlar: muammolar va yechimlar, “Jamiyat va huquq”, 2022.
4. Hamidov U. – Giyohvandlikka qarshi kurashda profilaktikaning ahamiyati, “Ichki ishlar axboroti”, 2023, №2. 5.
6. UNODC – World Drug Report 2023. <https://www.unodc.org> World Health Organization – Youth and substance use: global analysis, 2022.
7. President.uz – “Giyohvandlikka qarshi kurashish bo‘yicha 2020–2024 yillarga mo‘ljallangan Dastur” haqidagi PQ–4644-son qaror, 2020.
8. Abdullayev M. – YOshlar va giyohvandlik: ijtimoiy tahdidlar va huquqiy yondashuv, “Huquq” jurnali, 2023, №2.
9. Azizov A. – Criminological Prevention of Drug Crimes Among Youth, Tashkent State Law University Journal, 2024. 81-son 1–to‘plam Oktyabr-2025 Sahifa: 177

ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА СОҒЛОМ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ОМИЛИ

Эшдавлатов Отаниёз Гаффорович
Навоий давлат университети катта ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада глобаллашув шароитида ёшларнинг дунёқараши, ёшлар дунёқарашининг трансформацияси ва намоён бўлиш хусусиятлари, уларга таъсир этувчи омиллар ҳамда ёшларда соғлом дунёқарашни шакллантириш, бунда таълим-тарбиянинг ўрни борасидаги масалалар баён этилган.

Таянч сўзлар: глобаллашув, дунёқараш, ёшлар дунёқараши, трансформация, деградация, интернет, маънавий таҳдидлар, манипуляция, таълим-тарбия

Аннотация: В статье описывается мировоззрение молодежи в контексте глобализации, особенности трансформации и проявления мировоззрения молодежи, факторы, влияющие на него, и формирование здорового мировоззрения у молодых людей, а также роль образования в этом процессе.

Ключевые слова: глобализация, мировоззрение, мировоззрение молодежи, трансформация, деградация, интернет, моральные угрозы, манипуляция, образование

Annotation: The article describes the worldview of young people in the context of globalization, the characteristics of the transformation and manifestation of the worldview of young people, the factors that affect them, and the formation of a healthy worldview in young people, as well as the role of education in this.

Key words: globalization, worldview, youth worldview, transformation, degradation, internet, moral threats, manipulation, education

Кириш ва долзарблиги. Маълумки, ёш авлод таълим-тарбияси, камолоти барча даврларда ҳам долзарб аҳамиятга эга бўлиб келгани ҳолда, ҳозирги XXI асрда, глобаллашув шароитида ҳар қачонгидан ҳам муҳим аҳамиятга эга масалага айланиб бормоқда.

Глобаллашув жараёнлари шиддат билан кечаётган ҳозирги даврда ер юзи аҳолисининг каттагина қисмини ташкил этадиган, сон жиҳатидан (2 миллиард кишини ташкил этмоқда) бутун инсоният тарихидаги энг йирик авлод, бугунги дунё ёшлари тафаккури, дунёқараши, қизиқишлари, маданияти, маънавияти, орзу-истаклари, муаммолари, ижтимоий-иқтисодий мўлжаллари, камолоти, уларга хос кадриятлар тизими ҳамда улар трансформацияси билан боғлиқ масалалар ҳозирги кунда мамлакатлар сиёсатининг асоси, жамиятлар фаолиятининг асосий мезонига айланиб улгурган, дейиш мумкин.

Адабиётлар таҳлили ва тадқиқот методологияси. Дунёқараш тушунчаси, мазмун-моҳияти, кўлами, намоён бўлиш шакллари масалалари узок тарихий тараққиёт йилларида кўплаб мутафаккирлар, олимлар, илм-фан намоёндалари жумладан, А.Г.Сpirкин, Г.Г.Кириленко, В.Ф.Черноволенко, И.В.Мартынычев, А.Ҳотамов, Э.Ибрагимов ва бошқалар томонидан тадқиқ қилинган, ўрганилган. Ушбу тадқиқотлар, ортирилган билимлар келгусидаги илмий-тадқиқот ишлари учун назарий-методологик асос бўлиб хизмат қилиб келмоқда.

Мақола глобаллашув шароитида ёшларнинг дунёқараши ва улар дунёқараши трансформациясининг хусусиятлари бугун мамлакатимизда умум қабул қилинган тарихий ва социологик методлар – тизимли таҳлил, қиёсий-тарихий, функционал ёндошув, мантикийлик, таҳлилий, холислик, объективлик тамойиллари асосида ёритилган.

Таҳлил ва натижалар. Табиийки, ХХІ аср, бугунги шиддатли замон, глобаллашув жараёнлари ва унинг ижобий ҳамда салбий таъсирлари, геосиёсий ва геоиктисодий вазият, дунёдаги кескин рақобат муҳити, турли хавф-хатарлар ҳозирги замон манзарасини тубдан ўзгартириб юбормоқда ҳамда ушбу омилларнинг ёшлар дунёқарашига таъсирлари бениҳоя каттадир. Шундан келиб чиқиб таъкидлаш ўринлики, ёш авлод тарбияси ХХІ асрда ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормоқда.

“Тарбия қанча мукаммал бўлса, халқ шунча бахтли яшайди”, дейди донишмандлар. Тарбия мукаммал бўлиши учун эса бу масалада бўшлиқ пайдо бўлишига мутлақо йўл қўйиб бўлмайди.

Барчангизга аён, ҳозирги кунда дунё миқёсида бешафқат рақобат, қарама-қаршилик ва зиддиятлар тобора кескин тус олмоқда.

Диний экстремизм, терроризм, гиёҳвандлик, одам савдоси, ноқонуний миграция, “оммавий маданият” каби хавф-хатарлар кучайиб, одамзот асрлар давомида амал қилиб келган эътиқодлар, оилавий қадриятларга путур етказмоқда.

Мана шундай ва бошқа кўплаб таҳдидлар инсоният ҳаётида жиддий муаммоларни келтириб чиқараётгани – аини ҳақиқат ва буни ҳеч ким инкор этолмайди.²⁵

Дунёқарашни дунёни идрок этиш, англаш дейдиган бўлсак, инсон аввало дунёни ҳиссий сезади. Кейин ҳиссий инъикос этилган воқелик ҳақида тўплаган билимлари асосида инсоннинг дунёқараши пайдо бўлади. Шу тариха шахснинг дунёни англаши орқали унинг ўзини англаши ҳам шаклланиб боради. Дунё ҳақидаги барча олинаятган билимлар юксак даражада умумлаштирилади ва яхлит дунёқараш шаклланади. Инсон воқеликка муайян мақсад, манфаат ва қизиқишлардан келиб чиқиб ёндашади. Шу маънода инсон дунёқараши ундаги мафкура билан боғлиқ ҳисобланади. Дунёқараш инсонларнинг юриш-туриш ва ахлоқ меъёрлари, ҳаётдаги қизиқишлари, интилишлари, меҳнат ва турмуш фаолиятларига таъсир кўрсатиб, катта амалий маъно қасб этади. Дунёқараш тизимининг ривожланиш даражаси ҳамма вақт ҳам жамият тараққиётига мос келади ва уни ифодалаб туради. Дунёқараш тизими ва уларнинг хусусиятлари муайян инсон, ижтимоий гуруҳ, табақа ва бутун миллатнинг маънавий қиёфасини белгилаб беради.

Янги Ўзбекистонда ёшларни мустаҳкам ва қатъий дунёқарашга эга, Ватанга ҳамда ота-она ва яқинларига меҳр-муҳаббатли, садоқатли, мустақил, эркин, инновацион, креатив фикрлайдиган, рақобатбардош, жисмоний ва маънавий соғлом ҳамда баркамол қилиб тарбиялаш муҳим ва устувор вазифаларимиздан бири сифатида ушбу масала тизимли ёндошувни тақозо этади.

²⁵ Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи <https://president.uz/uz/lists/view/729>

Президентимиз Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асарида бу борада шундай таъкидлайди:

Бизнинг Тараққиёт стратегиямизда ҳар жиҳатдан баркамол ривожланган, эркин фикрлайдиган, Ватанга содиқ, қатъий ҳаётий қарашларга эга йигит-қизларни тарбиялаш энг устувор вазифаларимиздан бири сифатида белгиланган.²⁶

Маълумки, глобаллашув жараёнлари, “оммавий маданият” ва унинг таъсирлари, ахборот хуружлари, турли иллатлар, инсон онги ва тафаккури учун кечаётган курашлар ёшлар онгу тафаккурига салбий таъсирларини ўтказиб келмоқда.

Маълумки, XX аср охири ва янги XXI аср ҳозирги авлод учун ўзига хос ютуқ ва камчиликлари билан намоён бўлмоқда. Ҳозирги глобаллашув шароитида дунё геосиёсий оламида рўй бераётган воқелиklar, маънавий-мафкуравий ва ахборот хуружлари, инсоният онгу тафаккури учун курашлар, тафаккур манипуляцияси жараёнлари нафақат ёшлар, балки барча инсонлар тафаккури ва дунёқарашида, тафаккурида рўй берадиган деградация (таназзул), емирилиш жараёнини ифода этмоқда, дейиш мумкин.

“Айниқса, бугунги мураккаб мафкуравий жараёнларни илмий-амалий жиҳатдан атрофлича таҳлил қилиш ва баҳолаш, уларнинг устувор йўналишларини, кимга ва нимага қарши қаратилганини аниқлаш, аҳоли турли қатламларига таъсирини ўрганиш, миллий манфаатларимизга, ҳаёт тарзимизга зид бўлган зарарли ғоялар ва мафкуравий хуружларнинг моҳиятини очиб бериш, фуқароларимиз қалбида миллий тафаккур ва соғлом дунёқараш асосларини мустаҳкамлаш алоҳида аҳамият касб этади.

Фақат ана шундай асосда ёшларни ўз фикрига эга, турли маънавий хуружларга қарши собит тура олишга қодир бўлган, иродали, фидойи ва ватанпарвар инсонлар этиб тарбиялашга эришиш мумкин.”²⁷ - дейилади Биринчи Президентимиз Ислом Каримовнинг “Юксак маънавият – енгилмас куч” асарида.

Ҳозирги глобаллашган замонда интернет, глобал ижтимоий тармоқлар кишилар кундалик ҳаётининг ажралмас қисмига айланиб улгурди. Глобал тармоқ афзалликларини инкор этмаган ҳолда, унинг инсон маънавиятига туғдирадиган хавф-хатарлари тўғрисида айтиш лозим. Хусусан, Интернет орқали шахс манфаатини қондиришга қаратилган индивидуалистик қарашлар турли бузғунчи ғоя ва мафкуралар билан тўлиб бораётганлигини таъкидлаш зарур. Албатта ҳозирги кунда ижтимоий тармоқлар орқали дунёда рўй бераётган воқеа-ҳодисаларни, нафақат матн ҳолида, балки аудио, видео, фотосурат, жонли мулоқот шаклида етказиш имконияти мавжудлиги ахборотлашган жамиятидаги қулай имкониятдир. Лекин ижтимоий тармоқларнинг чегара билмаслиги, ушбу ахборот ва маълумотларнинг кишилар, айниқса ёшлар онгига салбий таъсирлари ҳам бор, албатта. Мана шундай шароитда миллий, диний ва умуминсоний қадриятларни ёшлар онгига сингдириш орқали уларни Ватанга фидойи, ўз мустақил фикрига эга, баркамол шахслар қилиб тарбиялаш энг муҳим бурчимиз ҳисобланади.

²⁶ Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. –Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2022. – Б. 245.

²⁷ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Ma’naviyat” нашриёти, 2008. -Б.59.

Шу нуқтаи назардан олиб қаралса, мафкуралар кураши кечаётган бугунги мураккаб даврда ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш масаласи муҳим аҳамият касб этади.

XX аср охири – XXI аср бошларига келиб, ёшлар маънавий-мафкуравий таъсир объектига, инсон руҳи ва онги учун кечаётган курашнинг энг аҳамиятли нуқтасига айланди. Турли ижтимоий гуруҳлар, сиёсий давралар, ҳукуматларнинг ёшлар руҳиятини у ёки бу мақсадларга мақбул равишда ўзгартиришга, уни манипуляция қилишга интилиши ниҳоятда фаоллашди. Йигит ва қизларга турли иқтисодий фаолият норма ва принципларини, сиёсий ғоя ва нуқтаи-назарларни, ижтимоий позицияларни, маънавий-мафкуравий қадриятларни сингдиришга қаратилган саъй-ҳаракатлар йил сайин жадаллашиб бормокда.²⁸

Манипуляция жараёнларининг амалга оширилиши, хусусан ёшлар нисбатан қўлланилиши, яъни ёшлар – маънавий-руҳий манипуляция объектига айланиши, ёшлар дунёқарашини манипуляция қилиш сабаблари *биринчидан*, жаҳоннинг турли мамлакатларида, жумладан мамлакатимизда ҳам ёшларнинг манфаатдор давралар диққат-эътиборига тушиши аввало уларнинг салмоғи билан боғлиқлиги, яъни бугунги дунё ёшлари – сон жиҳатидан бутун инсоният тарихидаги энг йирик авлод бўлиб, улар 2 миллиард кишини ташкил этаётган бўлса, мамлакатимизда 30 ёшгача бўлган ёшлар 19 миллиондан ортиқ ёки аҳолининг 55 фоизини ташкил қилиши, *иккинчидан*, ёшларнинг жамиятда тутган ўрни бекиёслиги ҳамда имкониятлари бениҳоя аҳамиятлилиги ушбу ижтимоий гуруҳ дунёқарашини ўзгартириш илинжининг кучайишидир.

Таъкидлаш ўринлики, албатта, бугунги кунда ёшлар дунёқарашидаги ўзгаришларнинг барчасини ҳам манипуляцион саъй-ҳаракатларнинг маҳсули сифатида баҳолаб бўлмайди. Ёшларнинг борлиқ ҳақидаги қарашлари тизими ҳозирги замон цивилизацияси, бугунги кун реалликларининг объектив таъсири натижасида ҳам янгича тус олиб бормокда. Айни вақтда манипуляция жараёни ҳам ёшлар дунёқарашига жиддий таъсир қилган ҳолда муайян оқибатларни пайдо қилмокда.

Мана шундай шароитда ёшлар билими, тафаккури ва дунёқарашини шакллантириш ва юксалтириш ҳамда мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш ҳар қачонгиданда муҳимдир, албатта.

Дунёқарашнинг ёш авлод камолотида роли ва аҳамияти бениҳоя каттадир. Кенг дунёқарашга эга, маънавий-маърифий жиҳатдан камол топган ёшлар демократик ислохотларни истеъмолчисигина бўлиб қолмай, уларнинг фаол яратувчиси ва ҳимоячисига айланади. Ёшларнинг янги жамият қуриш ва янгича яшаш тарзига асосланган миллий тафаккури ва дунёқарашини шакллантириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Ёш авлод дунёқарашини шакллантирувчи омиллар қаторида ўзликни англаш, миллий ўзликни англаш масалалари муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Маълумки, шахс камолотида, унинг тафаккурининг юксалишида таълим-тарбия ва илм-фаннинг ўрни бениҳоя катта ҳисобланади. Бугунги кунда ёшларни кенг

²⁸ Ибрагимов Э. Маънавий-руҳий манипуляциянинг ёшлар дунёқарашига таъсири. Фалс.фан.фалс.докт (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Самарқанд.: 2020. – Б. 12

дунёқарашга эга, маънавий-маърифий жиҳатдан камол топган баркамол шахс қилиб вояга етказиш давлат аҳамиятига эга бўлган энг муҳим вазифалардан биридир. Ёшларнинг замон талаблари асосида пухта билим олиши, касб-хунар эгаллаши, жамиятда муносиб ўрин топиши учун барча шарт-шароитлар яратилган.

Ҳозирги вақтда мамлакатимизни ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири бу шубҳасиз, таълим-тарбия тизимидир. Шу мақсадда “Янги Ўзбекистон – мактаб остонасидан, таълим-тарбия тизимидан бошланади”, деган ғоя асосида кенг қўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотлар тизимида миллий таълим-тарбия тизимининг сифати ва самарадорлигини ошириш, унинг узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлаш борасида тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 30-июнь Ёшлар кuni муносабати билан Ўзбекистон ёшларига байрам табригида ёш авлод ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш масалалари борасида тўхталиб шундай дейди:

Навқирон авлодимизнинг ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш, ўғил-қизларимизнинг билим олиши, меҳнат қилиши, ўз қобилият ва истеъдодини рўёбга чиқариши учун барча шароитларни яратиш сўнгги йилларда Ўзбекистонда давлат сиёсати даражасига кўтарилгани ва бу борада улкан ишлар амалга оширилаётгани сизларга яхши маълум, албатта.

Ўтган қисқа даврда ушбу йўналишда 100 дан ортиқ қонун ҳужжатлари қабул қилиниб, изчил амалга оширилаётгани буни яққол тасдиқлайди. Айниқса, янгиланган Конституциямизда ёш авлоднинг ҳуқуқ ва манфаатлари аниқ моддалар билан муҳраб қўйилгани, ҳеч шубҳасиз, бу борадаги ҳуқуқий базани янада кенгайтириш, амалий ишларимизни янги босқичга кўтариш имконини бермоқда.²⁹

Ёш авлодга таълим-тарбия бериш, билим бериш, ўқитиш-ўргатиш, у орқали илмий дунёқарашини шакллантириш уларни ижтимоий ҳаёт ва фаолиятга тайёрлашнинг асосий мезонларидан бири ҳисобланади. Таълим-тарбия ва билим бериш орқали ёшларнинг миллий ва умуминсоний қадриятлари сирасига кирувчи ахлоқий фазилатлари шаклланади, жамиятдаги ғоявий, мафкуравий жараёнларга нисбатан муносабати, дунёқарашини ўзгаради ҳамда мустаҳкам илмий дунёқарашга эга баркамол шахс бўлиб етишишида имкониятлар пайдо бўлади.

Дунёқараш инсоннинг ўзини ва дунёни зарурий равишда англаши ҳамда баҳолаши асосида шаклланади. Шахснинг дунёқарашини, айниқса, илмий дунёқарашнинг кенглиги уларнинг асосий таркибий қисмлари: ақл, онг, фикр, илм, билим, илмий билиш, илмий қараш, эътиқод, илмий тафаккур ва шу кабиларга боғлиқ.

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, ёшларни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш, ҳар томонлама соғлом ва баркамол қилиб вояга етказиш, дунёқарашини ва фаол фуқаролик позициясини шакллантириш ҳамда фаоллигини кучайтириш, уларни мустақил фикрлайдиган, замонавий билим ва касб-хунарларни пухта эгаллаб, халқро майдонда рақобатга кириша оладиган баркамол шахслар этиб

²⁹ Ўзбекистон ёшларига байрам табриги. <https://president.uz/uz/lists/view/6451>

тарбиялаш уларнинг ижтимоий фаоллигини оширишга хизмат қилиб, маънавий комилликка эришувида асосий ва белгиловчи омил вазифасини ўтайди.

YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISHNIH AYRIM JIHATLARI

NDU Aniq fanlar fakulteti Amaliy matematika bo'limi

2-kurs talabasi Hosilov Ozodbek

Ilmiy rahbar "Ijtimoiy fanlar" kafedrası

katta o'qituvchisi Shoira Turobova

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida insoniyat ko'plab tahdidlarga duch kelmoqda. Bular orasida eng xavflilaridan biri bu giyohvandlikdir. Giyohvandlik inson salomatligini ham jismonan, ham ruhan jiddiy shikastlaydi. Bu illat hozirda asosan yoshlarimizni kelajagiga jiddiy zarar yetkazishi hattoki barbod qilishi ham mumkin. Tibbiyotda aytilganidek: "Kasalni davolagandan ko'ra, uni oldini olish avzaldir". Giyohvandlik balosiga duchor bo'lgan insonni yana sog'lom hayotga qaytarish ancha mushkul vazifa. Biz avvalambor yoshlarimiz orasida giyohvandlikni avj olishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Buning uchun yoshlarimizni bo'sh vaqtini unumli o'tkazish, ularni turli xil sport yo'nalishlariga qiziqtirishimiz, yo'naltirishimiz va ularga yetarlicha sharoitlar yaratib berishimiz lozim. Lekin masala ancha murakkab. Faqatgina jismoniy yetuklik va vaqtni unumli sarflashning o'zi yetarli emas. Mantiqan o'ylab ko'radigan bo'lsak, giyohvandlik ko'chasiga kiradigan inson avvalambor ma'naviy jihatdan o'z ustida ishlamagan, yaxshini yomondan ajrata olmaydigan, o'zini mustaqil fikriga ega bo'lmagan inson bo'lishi ehtimoli katta.

Avvalambor o'smirlarimiz, yoshlarimiz ongidagi bo'shliqni to'ldirishimiz, uni ilm, bilim bilan boyitishimiz kerak. Buning uchun yetarlicha sharoitlar yaratib berilgan. Yoshlarni ilm olishga, badiiy asarlar, o'qishga undashimiz kerak. Yoshlarni qalbida ilmga nisbatan mehrni, shijoatni, ishtiyoqni yoqishimiz shart. Shundagina yosh avlod o'z ustida ishlashi, ilm olishi, har tomonlama rivojlanib, komil inson bo'lishi kerakligini anglab yetadi. Bularni tushungan o'quvchi yoki talaba kutubxonaga kitoblar mutolaa qilish, ilmini-bilimini oshirish uchun o'zi hohlab harakat qiladi.

Vaqt o'tishi bilan mustaqil fikri shakllanib, dunyoqarashi ortib boradi. Mustaqil fikri bor inson yaxshini yomondan ajrata oladi.

Sohibqiron Amir Temur ayganlaridek: "Kuch birlikdadir". Giyohvandlik va shunga o'xshash jiddiy muammolar qarshisida birlashmasak bo'lmaydi. Hech bbirimiz befarq bo'lmasligimiz kerak. Jamiyatda shu va shunga o'xshash vaziyatlarga duch kelganimizda albatta tegishli joylarga bildirishimiz lozim. Vatanimizni turli xil yot g'oyalardan, yomon illatlardan himoya qilish har birimizning burchimizdir. Erta ogohlantirish, profilaktika ishlarini olib borish yaxshi yo'llardan biri. Yoshlarda media savodxonligini oshirishimiz, ijtimoiy tarmoqlarda turli xil zararli oqimlarga qo'shilib qolishini oldini olishimiz lozim.

Mana shunaqangi jirkanch jinoyatlarni qilayotganlar ham afsuski ichimizda.

Ular o'z manfaat yo'lida boshqa birovni farzandini kelajagini kuydirib, hayotini barbod qilishdan ham tap tortmaydi. Bu kabi insonlar hech qachon rost so'zlamaydi, ezgulikni ko'zlamaydi. Bularning o'ljasi esa yoshlar.

Yoshlarni har tomonlama qo'llab quvvatlashimiz kerak bo'lsa himoya qilishimiz kerak. Yosh avlod ichidan giyohvandlikni targ'ib etadiganlarni yetishib chiqishini oldini

olish ham muhim masaladir. Buning uchun ularni bu yo'lga kirishga undaydigan muammoni ildizi bilan quritish kerak. Yangi qo'shimcha ish o'rinlari yaratishga qo'limizdan kelguncha o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Kichik bo'lsada odamlarga, yurtga foydasi tegadigan ishxonalar ochish kerak. Dastoyevskiy shunday deydi: "Kambag'allik ayb emas, lekin yo'qchilik illatdir". Ayrim yoshlarimizni yo'qchilik qarshisiga tashlab qo'yishimiz, ularni o'zlari hohlamagan ishlarni qilishga, razil insonlarning arziyas beradigan chaqasi evaziga o'z yaqin atrofdagilariga og'u tarqatishga majbur qilishi ham mumkin. Shuning uchun yoshlarga juda ham e'tiborli bo'lishimiz, ularni avaylab asrashimiz, bizdan ham kuchli, bizdan ham yetuk avlod sifatida voyaga yetkazishimiz, ularni har tomonlama qo'llab quvvatlashimiz lozim.

GIYOHVANDLIKNING OLDINI OLISHGA DOIR TIBBIY YONDASHUVLAR

Nayimova Ruxshona Davlatbek qizi

NavDU Tabiiy fanlar fak., Pediatriya ishi yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Achilova M.E.

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar o'rtasida giyohvandlik va psixotrop moddalar iste'mol qilinishining oldini olish masalalari tibbiy va pedagogik yondashuvlar uyg'unligida tadqiq etilgan. Zamonaviy dunyoda sintetik narkotiklar tarqalishining xususiyatlari, ularning o'smirlar va yoshlar organizmiga, markaziy nerv tizimiga salbiy ta'siri tibbiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida profilaktika ishlarini tashkil etish, yoshlarning tibbiy madaniyatini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda pedagogik metodlarning o'рни tahlil qilingan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: giyohvandlik, psixotrop moddalar, yoshlar, tibbiy-pedagogik profilaktika, sog'lom turmush tarzi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы профилактики наркомании и употребления психотропных веществ среди молодежи в контексте интеграции медицинских и педагогических подходов. С медицинской точки зрения обоснованы особенности распространения синтетических наркотиков в современном мире, их негативное влияние на организм подростков и молодежи. Анализируется роль педагогических методов в организации профилактической работы в образовательных учреждениях, повышении медицинской грамотности молодежи и формировании здорового образа жизни.

Ключевые слова: наркомания, психотропные вещества, молодежь, медико-педагогическая профилактика, здоровый образ жизни.

Abstract

This article examines the prevention of drug addiction and psychotropic substance abuse among youth through the integration of medical and pedagogical approaches. From

a medical perspective, the characteristics of synthetic drug proliferation in the modern world and their negative impact on the body and central nervous system of adolescents and young people are scientifically justified. Furthermore, the role of pedagogical methods in organizing preventive work in educational institutions, increasing the medical literacy of youth, and shaping a healthy lifestyle is analyzed.

Keywords: drug addiction, psychotropic substances, youth, medical-pedagogical prevention, healthy lifestyle.

Giyohvandlik va psixotrop moddalar iste'moli yoshlar salomatligi, ijtimoiy faolligi hamda jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi global muammolardan biri hisoblanib kelmoqda. Ushbu muammo shunchaki individual zararli odat bo'libgina qolmasdan, balki millat genofondi va ertangi kun davomchilarining intellektual salohiyatiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid solib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda kimyoviy yo'l bilan tayyorlanadigan, tez fursatda kuchli ruhiy va jismoniy qaramlikni keltirib chiqaruvchi sintetik narkotiklar hamda turli psixotrop dori vositalarining internet do'konlari va yashirin ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgani xavf miqyosini yanada kengaytirdi. O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.[1] Shu sababli, ta'lim muassasalarida profilaktika ishlarining shakllarini yangilash va zamonaviy usullarni joriy etish obektiv zaruriyat hisoblanadi. Mazkur muammo tibbiyot, psixologiya va pedagogika fanlari doirasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Biroq profilaktik faoliyatda tibbiy va pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Aksariyat hollarda tibbiyot xodimlari muammoning faqat klinik va oqibat qismlari bilan, pedagoglar esa umumiy tarbiyaviy choralar bilan cheklanib qolmoqda. Ushbu tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-pedagogik kuzatuv hamda xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlarini o'rganish metodlaridan foydalanildi. Talabalarning yosh fiziologiyasi xususiyatlarini inobatga olgan holda profilaktika ishlarining samaradorligini oshirish mexanizmlari tahlil qilindi. BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC) hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda psixoaktiv moddalarni iste'mol qilish va ularga qaramlik holatlari ayniqsa 15–24 yosh oralig'idagi yoshlar o'rtasida eng yuqori ko'rsatkichni qayd etmoqda.[4]

Klinik-fiziologik nuqtai nazardan yondashilganda, har qanday tarkibli psixotrop moddalar markaziy nerv tizimidagi neyromediatorlar (dofamin, serotonin) almashinuvini keskin buzib, miya po'stlog'i hujayralarining (neyronlarning) ommaviy patologik nobud bo'lishiga olib keladi. Natijada yosh organizmda kognitiv funksiyalar susaydi, xotira zaiflashadi, intellektual pasayish va tajovuzkorlik namoyon bo'ladi. Somatik jihatdan esa jigar toksik distrofiyasi, surunkali buyrak yetishmovchiligi hamda immun tizimining chuqur depressiyasi shakllanadi.[2] Ko'p hollarda ushbu vositalarning bir marta iste'mol qilinishi ham o'tkir yurak yetishmovchiligi oqibatida o'lim holatlariga sabab bo'lishi tibbiy amaliyotda ko'p kuzatilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurashish faqat huquq-tartibot organlarining vazifasi emas, balki tibbiy va pedagogik soha vakillarining hamkorlikdagi harakatini talab etadi. Tahlillar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida "Tibbiy-huquqiy savodxonlik" yo'nalishidagi amaliy seminarlarni ko'paytirish;

- Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning qiziqishlariga mos bo'lgan, psixotrop moddalarning biologik zararini aks ettiruvchi qisqa metrajli ijtimoiy-tibbiy roliklar va vizual infografikalar tarqatish ko'lamini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 1999.

2. Safarova N.O. Ijtimoiy pedagogika va yoshlar tarbiyasi muammolari. – Navoiy, 2023.

3. Shavkatov A.N. Yoshlar fiziologiyasi va sog'lom turmush tarzi asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.

РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В ПРОФИЛАКТИКЕ НАРКОМАНИИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Сидирова Жанар Умирбековна

Преподаватель кафедры русского языка и литературы

Навоийского государственного университета г. Навои, Узбекистан

E-mail: sidirova.janar@gmail.com / +998934352855

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные вопросы профилактики наркомании среди молодежи, а также роль образования и воспитания в формировании у подрастающего поколения устойчивого негативного отношения к употреблению наркотических веществ. Анализируются основные причины распространения наркомании в молодежной среде, включая социальные, психологические и культурные факторы. Особое внимание уделяется образовательным учреждениям и семье как важнейшим институтам социализации личности. Подчеркивается значение профилактической работы, направленной на развитие правовой культуры, ответственности, навыков здорового образа жизни и способности противостоять негативному влиянию окружающей среды. Делается вывод о необходимости комплексного взаимодействия образовательных организаций, семьи и общества в целях предупреждения наркотической зависимости среди молодежи.

Ключевые слова: наркомания, молодежь, профилактика, образование, воспитание, здоровый образ жизни, социальная адаптация, наркотическая зависимость.

Проблема наркомании среди молодежи является одной из наиболее острых социальных проблем современного общества. Употребление наркотических веществ негативно влияет на физическое и психическое здоровье человека, способствует

росту преступности и социальной дезадаптации молодежи.³⁰ Особую тревогу вызывает распространение наркотической зависимости среди подростков, поскольку именно в этом возрасте происходит формирование личности, мировоззрения и жизненных ценностей.

Современные исследователи отмечают, что причинами вовлечения молодежи в употребление наркотиков становятся социальная нестабильность, неблагополучная семейная среда, психологические проблемы и влияние окружения.³¹ В связи с этим особое значение приобретает профилактическая работа, направленная на формирование устойчивого негативного отношения к наркотикам.

Важную роль в предупреждении наркомании играют образование и воспитание. Образовательные учреждения способны формировать у молодежи ответственное отношение к собственному здоровью, правовую культуру и навыки безопасного поведения.

Одной из основных причин распространения наркомании среди молодежи является влияние социальной среды. Подростки стремятся к самоутверждению и признанию со стороны сверстников, что делает их особенно уязвимыми перед негативным влиянием окружения. Желание испытать новые ощущения и эмоциональная нестабильность также повышают риск вовлечения в употребление наркотических веществ.

Серьезное влияние оказывает семейная ситуация. Конфликты в семье, недостаток внимания со стороны родителей и отсутствие эмоциональной поддержки могут способствовать формированию девиантного поведения подростков³². Исследования показывают, что неблагоприятная семейная атмосфера значительно увеличивает вероятность вовлечения молодежи в асоциальную деятельность.

Кроме того, распространению наркомании способствует недостаточная информированность подростков о последствиях употребления наркотиков. Многие молодые люди ошибочно считают, что могут отказаться от наркотиков в любой момент, не осознавая опасности формирования зависимости.³³

Негативное влияние оказывают и социальные сети, где иногда формируется ложное представление о наркотиках как о способе снятия стресса или получения удовольствия.

Система образования играет важнейшую роль в профилактике наркомании среди молодежи. Школы и высшие учебные заведения являются не только источником знаний, но и важным институтом социализации личности. Именно в образовательной среде формируются нравственные ценности, культура поведения и отношение к здоровому образу жизни.

³⁰ Никифорова Т.Ю., Маскалянова С.А. Педагогическая профилактика наркомании в системе общего образования: здоровьесберегающий аспект // Вестник Тамбовского университета. 2021. № 2. С. 45–51.

³¹ Хильченко И.Ф. Особенности системы превентивных мер, применяемых для противодействия наркомании в молодежной среде // Вестник РУДН. 2010. № 3. С. 88–94.

³² Гарифуллин Р.Р. Некоторые особенности психолого-педагогического подхода к профилактике наркомании среди учащихся // Вестник практической психологии образования. 2012. № 1. С. 63–67.

³³ Видерман Н.С. Социальный педагог в сфере профилактики наркомании // Психологическая наука и образование. 2004. № 4. С. 72–78.

Профилактическая деятельность должна включать лекции, тренинги, тематические беседы и мероприятия, направленные на формирование устойчивой антинаркотической позиции³⁴. Важным условием эффективности профилактики является систематический характер работы и учет возрастных особенностей подростков.

Особое значение имеет деятельность педагогов и психологов, которые способны своевременно выявлять подростков группы риска и оказывать им необходимую поддержку. Формирование стрессоустойчивости, уверенности в себе и навыков принятия самостоятельных решений помогает молодежи противостоять негативному влиянию окружающей среды.

Эффективным средством профилактики наркомании являются занятия физической культурой и спортом. Спортивная деятельность способствует укреплению здоровья, развитию дисциплины и организации полезного досуга молодежи³⁵.

Семья играет ключевую роль в формировании личности подростка и его отношения к вредным привычкам. Именно в семье закладываются нравственные ценности, модели поведения и основы здорового образа жизни.³⁶ Доверительные отношения между родителями и детьми, эмоциональная поддержка и внимание к проблемам подростка значительно снижают риск вовлечения в употребление наркотиков.

Воспитание должно быть направлено на формирование у молодежи ответственности за собственное здоровье и будущее. Родителям необходимо уделять внимание кругу общения подростка, его интересам и эмоциональному состоянию.

Большое значение имеет взаимодействие семьи и образовательных учреждений. Совместная профилактическая работа педагогов и родителей позволяет своевременно выявлять проблемы подростков и предотвращать развитие наркотической зависимости.³⁷

Исследователи подчеркивают, что эффективная профилактика наркомании возможна только при комплексном взаимодействии семьи, образовательных организаций и общества.

Таким образом, профилактика наркомании среди молодежи является важнейшей задачей современного общества. Рост наркотической зависимости среди подростков требует комплексного подхода, объединяющего усилия семьи, образовательных учреждений и государства. Наркомания рассматривается не только как медицинская проблема, но и как социально-педагогическое явление, затрагивающее процессы воспитания, социализации и формирования личности.

³⁴ Семенова А.А., Подолина И.В., Никифорова Т.Ю. *Подходы к организации первичной профилактики наркомании среди несовершеннолетних* // Молодежный инновационный вестник. 2015. № 4. С. 112–118.

³⁵ Латышевская Н.И. Физическая культура и спорт — эффективное направление профилактики наркомании подростков и молодежи // Вестник ВолГМУ. 2006. № 1. С. 37–41.

³⁶ Ларина Е.В. *Сравнительный анализ социальных практик профилактики наркопотребления: российский и зарубежный опыт* // Социологическая наука и социальная практика. 2023. № 2. С. 91–98.

³⁷ Акматова А. *Профилактика подростковой наркомании в образовательной среде: правовой и педагогический подход* // Вестник Ошского государственного университета. 2025. № 1. С. 56–61.

Особую роль играет информационно-коммуникационная среда. В условиях активного развития цифровых технологий возрастает необходимость противодействия распространению деструктивного контента в интернете, который может романтизировать употребление наркотиков.³⁸ В этой связи образовательные учреждения должны развивать у молодежи медиа грамотность и критическое восприятие информации.

Образование и воспитание выступают основными средствами формирования у молодежи здорового образа жизни, нравственных ценностей и способности противостоять негативному влиянию окружающей среды. Эффективная профилактическая работа способствует снижению уровня наркотизации молодежи и формированию социально ответственной личности.

Развитие профилактических программ, повышение правовой и медицинской грамотности молодежи, а также укрепление взаимодействия семьи и образовательных учреждений являются необходимыми условиями предупреждения наркотической зависимости среди подростков и молодежи.

Список использованной литературы:

1. Никифорова Т.Ю., Маскалянова С.А. *Педагогическая профилактика наркомании в системе общего образования: здоровьесберегающий аспект* // Вестник Тамбовского университета. 2021. № 2. С. 45–51.
2. Хильченко И.Ф. *Особенности системы превентивных мер, применяемых для противодействия наркомании в молодежной среде* // Вестник РУДН. 2010. № 3. С. 88–94.
3. Гарифуллин Р.Р. *Некоторые особенности психолого-педагогического подхода к профилактике наркомании среди учащихся* // Вестник практической психологии образования. 2012. № 1. С. 63–67
4. Видерман Н.С. *Социальный педагог в сфере профилактики наркомании* // Психологическая наука и образование. 2004. № 4. С. 72–78.
5. Семенова А.А., Подолина И.В., Никифорова Т.Ю. *Подходы к организации первичной профилактики наркомании среди несовершеннолетних* // Молодежный инновационный вестник. 2015. № 4. С. 112–118.
6. Латышевская Н.И. *Физическая культура и спорт — эффективное направление профилактики наркомании подростков и молодежи* // Вестник ВолГМУ. 2006. № 1. С. 37–41.
7. Ларина Е.В. *Сравнительный анализ социальных практик профилактики наркопотребления: российский и зарубежный опыт* // Социологическая наука и социальная практика. 2023. № 2. С. 91–98.
8. Акматова А. *Профилактика подростковой наркомании в образовательной среде: правовой и педагогический подход* // Вестник Ошского государственного университета. 2025. № 1. С. 56–61.

³⁸ Касимова Л.М. *Формирование жизненных навыков как основа профилактики зависимого поведения у подростков* // Педагогика и психология образования. 2020. № 4. С. 112–118.

9. Касимова Л.М. *Формирование жизненных навыков как основа профилактики зависимого поведения у подростков* // Педагогика и психология образования. 2020. № 4. С. 112–118.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINI

Sobirjonova Marjona,

NavDU Tillar fak. 4-kurs talabasi

Ilm.rahbar: Achilova M.E.,

NavDU katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda giyohvandlikka qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati va xalqaro tajribalar tahlil qilingan. Dunyo mamlakatlarida televideniye, radio, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borilayotgan profilaktik targ'ibot ishlari, yoshlarni zararli odatlardan himoya qilishdagi samarali usullar yoritilgan. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining jamiyat ongiga ta'siri hamda xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan axborot siyosatining o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Giyohvandlik, ommaviy axborot vositalari, xalqaro tajriba, internet, ijtimoiy tarmoqlar, profilaktika, yoshlar tarbiyasi, axborot xavfsizligi, sog'lom turmush tarzi, targ'ibot.

Bugungi kunda giyohvandlik global miqyosdagi eng xavfli ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu illat nafaqat inson salomatligiga, balki jamiyat barqarorligi, iqtisodiyot va ma'naviy muhitga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Giyohvandlikka qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari jamiyatda sog'lom fikrni shakllantirish, yoshlarni zararli odatlardan himoya qilish va profilaktik targ'ibotni kuchaytirishda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda giyohvandlikka qarshi kurashishda televideniye va internet orqali olib borilayotgan ijtimoiy roliklar samarali natija bermoqda. Ushbu roliklarda giyohvand moddalarning inson organizmiga, oilaga va jamiyatga salbiy ta'siri aniq misollar asosida tushuntiriladi. [1]

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarda yoshlar uchun maxsus media dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlarda sport, san'at, ilm-fan va sog'lom turmush tarzi targ'ib qilinib, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga alohida e'tibor qaratiladi. Ko'plab mamlakatlarda mashhur sportchilar, san'atkorlar va bloggerlar giyohvandlikka qarshi targ'ibot ishlarida faol ishtirok etmoqda. Bu esa yoshlar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng rivojlanishi bilan bir qatorda yangi xavflar ham paydo bo'lmoqda. Ayrim noqonuniy guruhlar internet orqali narkotik moddalarni

targ'ib qilish yoki yashirin savdosini amalga oshirishga urinmoqda. Shu sababli ko'plab davlatlarda kiberxavfsizlik tizimlari kuchaytirilib, zararli kontentlarni bloklash ishlari yo'lga qo'yilgan. Xalqaro tashkilotlar tomonidan internet tarmog'ida narkotik moddalar targ'ibotiga qarshi maxsus monitoring tizimlari ishlab chiqilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar giyohvandlikka qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi axborot kampaniyalarini tashkil etish muhim vazifa sifatida belgilanmoqda. [2]

O'zbekiston Respublikasida ham giyohvandlikka qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Telekanallarda profilaktik ko'rsatuvlar, ijtimoiy roliklar va mutaxassislar ishtirokidagi suhbatlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarni hushyorlikka chaqiruvchi ma'lumotlar muntazam e'lon qilinmoqda.

Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalarining ta'siri faqat ma'lumot berish bilan cheklanmaydi. Ular yoshlarning dunyoqarashi, ma'naviyati va hayotiy qarashlarini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli OAV orqali tarqatilayotgan axborotlarning sifatli, haqqoniy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi talab etiladi.[3]

Giyohvandlikka qarshi kurashishda xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni milliy tizimga moslashtirish katta samara beradi. Xususan, rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan media kampaniyalar, onlayn profilaktik platformalar va interaktiv ta'lim dasturlari yoshlarni zararli odatlardan himoya qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy axborot vositalari giyohvandlikka qarshi kurashishda eng kuchli ta'sir vositalaridan biridir. Ayniqsa, xalqaro tajribalarni o'rganish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali yoshlarni giyohvandlik kabi zararli illatlardan himoya qilish mumkin. Televideniye, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish jamiyat barqarorligi va kelajak avlod salomatligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 62-63-b
2. O'zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2016.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHNING IJTIMOIIY HUQUQIIY ASOSLARI

Yusupova Kamola- Navoiy Davlat Universiteti
Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Giyohvandlik ijtimoiy illat, ma'naviy va jismoniy xastalikdan boshqa narsa emas. Biroq, uning shavqatsiz fojea ekanligini teran anglamay, unga chalinib qolayotganlar oz emas. Giyohvandlikning boshlanishi juda oddiy. Unga qiziqqanlar "oq poroshok" dan chekib yoki hidlab ko'rishga oshiqqanlardir. Kunlar o'tishi bilan esa bu kamdek tuyuladi. Beixtiyor "doza" miqdori ham osha bordi. Keyingi safar avvalgi miqdordan kam iste'mol qilib ko'rsin-chi? Sog'liqni saqlash vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 1999-yilning birinchi yarmigacha respublikamizdagi narkologik shifoxonalarda 14 ming 445 kishi hisobga olingan. Ularning 10 ming nafariga giyohvand tashxisi qo'yilgan. Achinarlisi, ular o'rtacha yoshi 16 dan 40 yoshgacha bo'lgan shaxslardir. Xush, ularning taqdiri nima bo'ladi? O'ylasang, yuraging ezilib ketadi. Bu yoshlar o'zlaridan qanday iz, qanday nom-nishon, qanday zurriyod qoldirishadi? Afsuski kishi ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi, inson umriga zavol yetkazuvchi modda – heroin tayyorlashning ko'payib borishi tashvishlidir. Faktlarga suyansak: giyohvandlik vositalari savdosi bilan shug'ullanish jinoyatlari 1993-yilda 780 marta qayd etilgan yoki giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarning 9 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 1998-yilda bu ko'rsatkich uch baravarga o'sganligini, ya'ni 2 ming 954 taga yetganini ko'rish mumkin. Bu esa giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarning 35 foizini tashkil etadi. Mutahasislarning fikricha giyohvand o'simliklar yetishtirish bilan shug'ullanayotgan avg'on "tadbirkorlarining" yillik daromadlari umumiy xajmda 120-150 milliard dollarni tashkil etadi. Giyohvandlik savdosidan kelayotgan daromad qurol yarog' biznesidan ham o'zib ketdi. Butun Afg'oniston giyohvandlik bozoriga yiliga 2000 tonna qoradori yetkazib bermoqda.

Yomon tomoni shuki, davlatimiz chegaralaridan o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshirish niyatida kirib kelayotganlar ham yo'q emas. Darhaqiqat, Respublikamiz o'z huquq tartiboti organlari faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, yosh mustaqil davlatimizda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi tinimsiz kurash olib borilayotganligi yaqqqol ko'zga tashlanadi. Ko'rilyotgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, bir holat hamon tashvishli bo'lib qolmaoqda. Ya'ni, Afg'oniston Islom Respublikasi hamda Tojikiston Respublikasidagi notinchliklar va nazoratning yo'qligi sababali narkobiznes guruhlari davlatimizda, MDH davlatlarida g'ayriqonuniy giyohvand furushlik jinoiy harakatlarini amalga oshirishga harakat qilishmoqda.

Darhaqiqat Tojikistondan Yevropaga yetib borgunicha heroinning narxi 63 baravar oshib borar ekan. Masalan: Tojikiston Badaxshonida 1 kg heroin 4 mingdan 8 ming dollargacha, Dushanbeda 12-17 ming dollar, Toshkentda 30-40 ming dollar, Moskvada 150-200 ming dollar, yevropada 250-300 ming dollar turadi. Giyohvand moddalar narxining yo'l bo'ylab bu qadar oshib borishi, ayniqsa, turmush darajasi past bo'lgan Markaziy Osiyo va boshqa davlatlarning ayrim fuqarolari uchun bu moddani tashishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarni oqlaydigan rag'bat bo'lib, ularni giyohvand moddani kontrabanda yo'li bilan tashib borishga undadi³⁹.

³⁹ Sh.G'oyibnazarov Xalqaro terrorizm: ildizi omili va manbalari. T.: O'zbekiston, 2013. –B.272.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabr, PF-207-son Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida⁴⁰ Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024–2028-yillarga mo'ljallangan milliy strategiyaning ustuvor maqsadlariga erishish, giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholini, birinchi navbatda, yoshlar salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash maqsadida qaror qabul qilingan.

Mutaxassislar fikricha, narkotraffikga qarshi kurash muammosini hal etish davlat miqyosidagi ishdir. Bu borada O'zbekiston 1995-yildan Birlashgan millatlar tashkilotining narkotiklarga qarshi kurashga taalluqli konvensiyalari hamda MDH va bir qator dunyo davlatlari bilan o'zaro kelishuvlarni imzolagan.

Narkomafiya faoliyati inson savdosi, noqonuniy mablag'larni yuvish hamda qurol-yaroq kontrabandasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu hol nafaqat davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy muammosi, balki mamlakat xavfsizligi uchun ham xatar tug'dirishini urg'ulashadi mutaxassislar. Narkotraffik yo'lining O'zbekiston orqali o'tishi mamlakatdagi yoshlarning SPIDga chalinish hollarini ham ko'paytirgan. Vazirlar mahkamasi qoshidagi giyohvand moddalarni nazorat qilish bo'yicha milliy markaz mulozimlarining bildirishicha, O'zbekistonda 1992-yildan to 2005-yil oralig'ida 40 tonnadan ortiq noqonuniy giyohvand moddalar qo'lga olinib, yo'q qilingan.

Yalpi giyohvandlik yo'liga birinchi bo'lib AQSH o'tdi: agar 1936-yilda AQShda giyohvandlar soni 60 mingdan oshmagan, 1964-yilga kelib, hatto 48 mingga kamaygan bo'lsa, 1969-1971-yillarda bu raqam sakrab 69 mingdan 560 mingga chiqdi.⁴¹

Narkotraffik yo'lining O'zbekiston orqali o'tishi mamlakatdagi giyohvandlar sonining ham ortib borishiga olib kelayotgani aytiladi. Nafisa ismli ayol o'zining giyohvandlikka berilish sabablarini tushuntirishga harakat qilarkan, har bir mahalla va mavzeda giyohvandfurushlarning borligi yoshlar orasida narkomanlarning ko'payayotgani boisidir, deb hisoblaydi.

Ayni paytda respublikada faoliyat yuritayotgan Birlashgan millatlar tashkiloti, Amerika qo'shma shtatlari, Yaponiya va boshqa bir qator davlat tashkilotlari o'z faoliyatlarini yoshlarni narkotik moddalar iste'molidan qaytarish, giyohvandlarning vich infeksiyasi yuqtirib olishiga qarshi tadbirlarga qaratmoqdalar. "World Vision" Yaponiya hamda Yaponiyaning JICA tashkiloti loyihasi yoshlar orasida Spid va giyohvandlikning oldini olish hamda targ'ibot ishlari amalga oshirilgan.

So'nggi yillarda giyohvandlik vositalari savdosi hajmi global darajada keskin o'sib, xalqaro xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi noqonuniy narkobiznes aylanmasi yiliga 320 milliard dollardan oshib ketgan. Bundan tashqari, Osiyo mintaqasida afyun moddalarini ishlab chiqarish hajmi oxirgi

⁴⁰ Qarang: <https://lex.uz/uz/docs/-7818774>

⁴¹ Никифоров А.С. Контроль над преступностью в России // Государство и право 1994. № 5. -С.64-73.

5 yilda 30 foizga o'sgan. Shunga ko'ra, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik va tajriba almashish katta ahamiyatga ega⁴².

Giyohvand vositalari savdosi va aylanmasini oldini olishda 2024-yil 4-iyunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan "Markaziy Osiyo davlatlarining giyohvandlik bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish va bartaraf etishda yagona front bo'lib hamkorlik qilishga tayyorligi" to'g'risidagi rezolyutsiyani qabul qilingani mazkur yo'nalishdagi ishlarni, qarshi ta'sir chora-tadbirlari samaradorligini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Giyohvandlik har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'liga g'ov bo'lish barobarida, ayniqsa yigit-qizlarning salomatligi, kelajagi, hayotiga raxna solmoqda. Mamlakatimizda giyohvandlikning payini qirqish, yoshlarni bu xatardan asrash yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilayotir. Bu xavfning oldini olish nafaqat huquq-tartibot idoralari, balki barcha jamoat tashkilotlari va har bir yurtdoshimizning eng muhim burchidir.

⁴² Qarang: <https://iiu.uz/oz/news/3753>

**UCHINCHI RENESANSNING MA'RIFIY VA MA'NAVIY ASOSLARI:
TA'LIM VA TARBIYA MASALASI**

**Navoiy Davlat Universiteti Tarix fakulteti
Falsafa yo'nalishi talabasi 1-bosqich talabasi
Qurbonova Malika Salohiddin qizi**

Ilmiy rahbar: f.f.d. (DSc), dots. Shamsutdinova Nigina Karimovna

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi Uchinchi Renessansning ma'rifiy va ma'naviy asoslari, ta'lim va tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Yosh avlodni ma'naviy yetuk, keng dunyoqarashli va barkamol inson etib tarbiyalash masalalari yoritilgan. Shuningdek, buyuk allomalar merosi, kitob mutolaasining ahamiyati hamda zamonaviy axborot muhitining yoshlar ongiga ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Uchinchi Renessans, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, yoshlar, taraqqiyot, dunyoqarash, kitob mutolaasi, Abu Ali ibn Sino.*

Аннотация

В данной статье анализируются просветительские и духовные основы Третьего Ренессанса, а также роль образования и воспитания в развитии общества. Освещаются вопросы формирования молодого поколения как духовно зрелых, всесторонне развитых и широко мыслящих личностей. Также рассматриваются наследие великих мыслителей, значение чтения книг и влияние современной информационной среды на сознание молодежи.

Ключевые слова: *Третий Ренессанс, образование, воспитание, духовность, молодежь, развитие, мировоззрение, чтение книг, Абу Али ибн Сино.*

Abstract

This thesis analyzes the educational and spiritual foundations of the Third Renaissance and the role of education and upbringing in social development. The issues of raising the younger generation as spiritually mature, broad-minded, and well-rounded individuals are highlighted. The thesis also discusses the heritage of great scholars, the importance of reading books, and the influence of the modern information environment on the consciousness of young people.

Keywords: *Third Renaissance, education, upbringing, spirituality, youth, development, worldview, book reading, Abu Ali ibn Sina.*

Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida yashab ijod qilgan mutafakkirlar an'analari kabi, Uchinchi Renessans ham o'zida buyuk ilmiy va teran tafakkurli yoshlarni shakllantirish an'anasini davom ettirmoqda. Bunday o'zgarishlarga yurtimizda ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor, ilm-fandagi innovatsiyalar, zamonaviy metodikalar va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli va millatni buyuk qiladigan eng asosiy kuch ham - ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev

ta'kidlaganidek, bugungi kunda har qanday mamlakatning taraqqiyoti va dunyoda raqobatbardoshligi, avvalo, ta'lim sifati hamda ilm-fan rivojiga bog'liqdir [1].

Bugungi kunning muhim masalalaridan biri - yoshlarni qanday qilib ilmli, tarbiyali va ma'naviy yetuk inson qilib voyaga yetkazishdir. Bu jarayonni empirik va ratsional bilish tizimi orqali rivojlantirish mumkin. Har bir inson ulg'ayib borar ekan, uning hayotida turli tanlovlar yuzaga keladi. Ushbu tanlovlarning muvaffaqiyatli va istiqbolli bo'lishi esa, avvalo, ota-onaning to'g'ri orientatsiya va ma'naviy yo'naltirish berishiga bog'liqdir.

Bolaning dunyosi - bu uning ko'rgan muhiti, eshitgan so'zlari va havas qilgan insonlari orqali shakllanadigan ma'naviy olamdır. Bola kimga havas qilsa, asta-sekin o'sha insonning fazilatlarini o'zida mujassamlashtirishga harakat qiladi. Shu sababli yosh avlod ongida to'g'ri ideal va sog'lom tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning dunyosi ikki yo'nalishda shakllanadi: biri ekranlar bilan cheklanib, uni tor doiradagi fikrlashga olib kirsā, ikkinchisi esa kitob orqali keng tafakkur va yangi olam sari yo'l ochadi. Bugungi kunda yoshlarning ko'pchiligi turli internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar yoki o'yin qahramonlariga havas qilmoqda. Ulardan kelajakda kim bo'lishni so'ralganda, ko'pincha blogger yoki youtuber bo'lishni aytishadi. Bu esa zamonaviy axborot muhitining yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi. Biroq kitob mutolaasi bilan ulg'aygan avlodning tafakkuri keng, maqsadi ulug' va dunyoqarashi teran bo'ladi. Biz Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy kabi buyuk allomalar avlodi ekanmiz, yosh avlodni ham ana shunday keng tafakkurli, ma'naviy yetuk va barkamol insonlar etib tarbiyalashimiz zarur. "Jahon tibbiyot ilmining sultoni buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sinoning bebaho merosini chuqur o'rganish, mamlakatimiz va jahon miqyosida keng targ'ib qilish maqsadida "Abu Ali ibn Sino va Sharq Renessansi" mavzusida xalqaro ilmiy-ma'rifiy anjumanlar o'tkazish an'anasi yo'lga qo'yilmoqda" [2].

Xulosa qilib aytganda, Uchinchi Renessans davrida biz buyuk ajdodlarimizning munosib izdoshlari ekanligimizni unutmasligimiz lozim. Yoshlarni keng dunyoqarashli, axloqan yetuk va barkamol shaxs sifatida kamol toptirishni asosiy maqsadga aylantirish zarur. Buning uchun inson o'z ijtimoiy muhitini ongli ravishda tanlashi, jamiyat vakillarining ma'naviy ta'siriga e'tibor berishi kerak. Shuningdek, yosh avlodni kitob bilan do'st tutinishga o'rgatish, ajdodlarimizning ilmiy-falsafiy merosini yoshlikdan anglash yoshlar tafakkurida ma'naviy uyg'oqlik va chuqur mushohadani shakllantiradi. Muxtasar aytganda, oila mustahkam bo'lsa - jamiyat mustahkam bo'ladi, jamiyat mustahkam bo'lsa - mamlakat barqaror taraqqiy etadi [3]. Shuningdek, atoqli faylasuf Erkin Yusupovning: "Umuman, axloq ijtimoiy munosabatlar zahirida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yorlari, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir", - degan ta'rifi ham diqqatga sazovordir [4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent, 2024.– 121 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2023. – 82 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008. – 58 b.
4. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998. – 38 b.

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN INTEGRATIV METODIK TIZIM

**Boboyorov Shuhratjon Suvonqulovich-
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan integrativ metodik tizimning mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Integrativ yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish orqali bo'lajak tarix o'qituvchilarida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda ularning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, metodik tizimning maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy komponentlari o'zaro uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqilib, tarix ta'limi samaradorligini oshirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv, metodik tizim, kasbiy kompetentlik, bo'lajak tarix o'qituvchisi, tarix ta'limi, pedagogik integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim texnologiyalari, pedagogik faoliyat, metodik ta'minot, ta'lim samaradorligi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность, структурные компоненты и практическое значение интегративной методической системы, направленной на развитие профессиональной компетентности будущих учителей истории. Анализируются вопросы формирования профессиональных знаний, навыков и квалификаций будущих учителей истории и повышения их подготовки к педагогической деятельности путем организации образовательного процесса на основе интегративного подхода. Также рассматривается взаимосвязь целевого, содержательного, технологического и результативного компонентов методической системы и обосновывается их роль в повышении эффективности исторического образования.

Ключевые слова: интегративный подход, методическая система, профессиональная компетентность, будущий учитель истории, историческое образование, педагогическая интеграция, компетентностный подход, профессиональная подготовка, образовательные технологии, педагогическая деятельность, методическое обеспечение, эффективность образования.

Abstract: Vdannyoy state rassmatrivayutsya sushchnost, structural components and practical meaning of the integrative methodical system, aimed at the development of professional competence of future teachers. Analyziruyutsya voprosy formirovaniya professionalnykh znaniy, navykov i qualificatsiy budushchikh uchiteley istorii i povysheniya ix podgotovki k pedagogicheskoy deyatel'nosti putem organizatsii obrazovatel'nogo protsesa na osnove integrativnogo podkhoda. Takje rassmatrivaetsya vzaimosvyaz tselevogo, soderjatelnogo, tekhnologicheskogo i rezultativnogo komponentov methodicheskoy sistemy i obosnovyvaetsya ix role v povyshenii effektivnosti istoricheskogo obrazovaniya.

Key words: integrative approach, methodical system, professional competence, future teacher history, historical education, pedagogical integration, competence approach,

professional training, educational technologies, pedagogical competence, methodical assurance, educational effectiveness.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqobatbardosh, ijodiy fikrlovchi va kasbiy kompetent pedagoglarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sanaladi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayoniga integrativ yondashuvni tatbiq etish tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tarix fani o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat o'tmish voqea-hodisalarini o'rgatadi, balki yosh avlodda tarixiy tafakkur, fuqarolik pozitsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, tahliliy va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Shu bois bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy kompetentligi ko'p qirrali, murakkab va integrallashgan tuzilishga ega bo'lishi zarur. Bugungi globalashuv, axborot oqimining tezlashuvi, fan va texnologiyalar taraqqiyoti, ta'lim mazmunining yangilanishi sharoitida bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlashga nisbatan qo'yilayotgan talablar ham tubdan o'zgarib bormoqda. Endilikda tarix o'qituvchisi faqat tarixiy faktlarni bayon etuvchi mutaxassis emas, balki o'quvchilarda tarixiy ong, tarixiy tahlil, tarixiy xotira, fuqarolik madaniyati hamda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi pedagog sifatida namoyon bo'lishi kerak. Bunday natijaga esa faqat integrativ yondashuv asosidagina erishish mumkin. Integrativ yondashuv bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida turli fanlar, metodologik yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, nazariy bilimlar hamda amaliy faoliyat elementlarini o'zaro uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini kompleks rivojlantirish uchun muhim pedagogik asos vazifasini bajaradi. Integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan model esa bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va takomillashtirish jarayonini tizimli, izchil hamda maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini yaratadi. Shu bois, integrativ yondashuv negizida bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish zamonaviy pedagogika nazariyasi va ta'lim amaliyotining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish o'qituvchi tomonidan ham hayotiy faoliyat, ham pedagogik kasbiy faoliyat doirasidagi qadriyatli bo'lgan shaxsiy yondashuvlarni o'zlashtirishga muvofiq tadqiq etiladi. O'qituvchi shu asosda kutilgan natijaga erishish yo'lidagi maqsad va vazifalarini belgilaydi. Innovatsion ta'lim jarayonida bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish strategiyasi deganda, ijtimoiy jarayonlar rivojlanishidagi aniq, zarur, izchil, ketma-ket va asoslangan qonuniyatlarning maxsus majmuini tushunamiz. Ular quyidagilardir: adekvat kommunikativ kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchini kasbga tayyorlashdagi ziddiyatlarni imkon darajada kamaytirish; pedagogik ta'limni tashkillashda innovatsion jarayonning muhim yo'nalishlarini belgilash; bo'lajak o'qituvchini shakllantirishda maqsad qilib olingan, innovatsion ta'lim jarayonidagi vositalarni qamrab olgan kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali modeliga erishishni ta'minlash.

“Ta'lim jarayoni” deganda qator tadqiqotchilar (E.A.Alisov, M.Kuranov, Y.N.Mixaylova, L.S.Podimova, Y.A.SHmeleva, F.R.Yuzlikayev), ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning “muloqot mahsuli” ta'kidlashgan, “ta'lim jarayoni inson va olam

o'rtasidagi muloqot shakllaridan biri. Ta'lim oluvchi nafaqat ta'lim muhiti bilan o'zaro ta'sirga kirishadi, balki o'z shaxsiy hayotiy faoliyati jarayoniga madaniyatni egallash, ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish orqali o'z imkoniyatlarini qo'llashi mumkin. Shunday qilib, ta'lim jarayoni bu ta'lim jarayoni subyektlarining o'zaro munosabatlari mahsulidir⁴³, "berilgan namuna bo'yicha shaxsni shakllantirish ta'siri va shartlari, shuningdek, shaxsni ijtimoiy mazmunga ega va predmetli maydon qurshovida rivojlanishi uchun imkoniyat" sifatida ham tavsiflash mumkin.⁴⁴

Ta'lim jarayonida quyidagi integratsiyalovchi komponentlar alohida ajralib turadi: psixodidaktik (faoliyatning mazmuni, shakl va uslublari); ijtimoiy komponent (subyektlar o'rtasida yuz beruvchi muloqot); predmetli (narsalar joylashgan muhitni ta'minlovchi, ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillash va rivojlantirish uchun imkoniyat); ta'lim muhitining subyektlari".⁴⁵

Innovatsion ta'lim mohiyatini aniqlash maqsadida tadqiqotchilar Y.A. Alisov va L.S. Podimovalar quyidagilarni qayd etishadi, uning muhim belgilaridan biri "ta'lim oluvchilarning ijodiy salohiyatini amalga oshirishga yo'naltirilgan shaxsni rivojlantiruvchi asosiy omillar sintezi - hayotiy faoliyat, tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil ta'lim. Bunday muhit innovatsion pedagogikaning vazifalarni bajarish va ularni amalga oshirishning asosiy tamoyillarini namoyon etadi va o'quv muassasasining yagona ta'limiy makonini tashkil qiladi. Bunda u bo'lajak mutaxassislarni sifatli tayyorlashdan manfaatdor bo'lgan barcha subyekt va obyektlarning bor imkoniyatlarini birlashtiradi".⁴⁶ Shuningdek, "innovatsion jarayonini shakllantirish yangi g'oyalar, yangi mahsulot, texnologiya, turli bilim sohalarida, shu jumladan pedagogika sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni jadallashtirish, kasbiy sohada innovatsion faoliyat olib borishning asosi bo'lgan shaxsning innovatsion faolligini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan innovatsion salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan".⁴⁷

Bundan tashqari zamonamizning dolzarb tavsiflaridan asosiysi sifatida jamiyatning innovatsion rivojlanish yo'lini ko'rsatish mumkin. Chunki "zamonaviy raqobat muhitida kurash, avvalo, resurslar, moddiy qadriyatlarni egallash uchun emas, balki yangiliklar kirita olish qobiliyati uchun boradi".⁴⁸

Mutaxassislar tayyorlashda zamonaviy talablarga binoan ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim shartlaridan biri bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish hisoblanadi. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida e'tibor berilmoqda. "Tarix o'qitish metodikasi" fanini o'qitishda kasbiy kompetentlikning o'rni va

⁴³ Михайлова Ю.Н. Воспитательно-образовательная среда вуза как средство повышения уровня адаптивности студентов к профессиональной деятельности // Вопросы современной науки и практики. Университет им. В. И. Вернадского. № 7-9(30). 2010. - С. 134.

⁴⁴ Ясвин В.А. Тренинг педагогического взаимодействия в творческой образовательной среде / под ред. В.И. Ланова. - М, 1997. - С. 28.

⁴⁵ Вестник ПСТГУ. IV: Педагогика. Психология. - 2006. - Вып. 3. - С. 107—122.

⁴⁶ Алисов Е.А., Подымова Л. С. Инновационная образовательная среда как фактор самореализации личности // СПО. - 2001. - № 1.- с. 61-62.

⁴⁷ Шмельёва Е.А. Инновационная образовательная среда вуза: пространство развития // Научный поиск. - 2012.- № 1(3). - С. 14.

⁴⁸ Glozier M. L'entreprise a l'econte. Apprendre le management postindustriale / M. Glozier. - Paris, 1991. - P. 26.

roli masalasini hal qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. Qaysi texnika tanlangan bo'lsa, u ma'lum prinsiplarga amal qilishi kerak: tarixni o'rgatish maxsus tuzilgan misollarda emas, balki haqiqiy kommunikativ vaziyatlarda amalga oshiriladi, o'qituvchi aniq maqsadlar qo'yishi kerak va o'quvchilar nima uchun topshiriqlarni bajarishlarini yoki muayyan qoidalarini o'rganishlarini bilishlari va tushunishlari kerak, o'qituvchi tomonidan diqqat bilan tanlanishi kerak bo'lgan turli xil topshiriqlar, ko'rgazmali o'qitish vositalaridan foydalanish (diagrammalar, jadvallar, rasmlar, ko'rgazmalar yordamida), didaktik o'yinlar, ulardan foydalanishda tarixiy tahlil ko'nikmalarini o'rgatish mavjud.

Tadqiqotimizda bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, integrativ, epistemologik yondashuvlarga tayanildi. Integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda bu kabi pedagogik yondashuvlarning qo'llanilishi – ularning kasbiy tayyorgarligini chuqur va har tomonlama baholash imkonini beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini faqat o'zlashtirilgan bilimlar hajmi bilan emas, balki ularni turli vaziyatlarda samarali qo'llay olish layoqati bilan belgilaydi. Tarix darslarida bu yondashuv o'quvchining tarixiy voqealarni shunchaki yod olishi emas, balki ularning mazmun-mohiyatini tushunishi, sabab va oqibatlarini tahlil qilishi, tarixiy shaxslar faoliyatiga baho bera olishi, tarixiy manbalarni solishtirishi va mustaqil xulosalar chiqarishi bilan ifodalanadi. Mazkur yondashuv asosida tarix ta'limining markazida o'quvchi shaxsi turadi. O'quvchi dars jarayonida tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki faol subyekt, izlanuvchi, tahlilchi va baholovchi sifatida ishtirok etadi. O'qituvchi esa bilim beruvchi yagona manba emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi, maslahatchi va motivator vazifasini bajaradi. Kompetensiyaviy yondashuvning tarix darslaridagi mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, tarixiy bilimlar amaliy ahamiyat kasb etadi, ya'ni o'quvchi ularni turli o'quv va hayotiy vaziyatlarda qo'llashga o'rganadi; ikkinchidan, tarixiy voqealar, jarayonlar va shaxslarni baholashda tanqidiy va tahliliy fikrlash rivojlanadi; uchinchidan, dars jarayonida o'quvchi faoliyati ustuvor bo'lib, mustaqil ishlash, izlanish va fikr yuritish ko'nikmalari shakllanadi; to'rtinchidan, tarixiy ta'lim mazmuni faqat fakt va sanalardan iborat bo'lib qolmay, balki qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik va tolerantlik bilan boyitiladi. Tarix fanida bir qator mavzular mavjudki, ular turli nuqtai nazarlar asosida yoritilishi mumkin. Debat va munozara usullari aynan shunday mavzularni o'rganishda samarali hisoblanadi. Masalan, "Jadidchilik harakati Turkiston taraqqiyoti uchun qanchalik muhim bo'lgan?" yoki "Mustamlakachilik siyosati qanday oqibatlarga olib kelgan?" kabi savollar yuzasidan munozara tashkil etish o'quvchilarda dalillash, qarshi fikrni tinglash, o'z pozitsiyasini himoya qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvning mohiyati shundan iboratki, ta'lim jarayonida bilimlar tayyor holda berilmaydi, balki talabaning bilish va amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi. Bu yondashuvda talaba o'quv jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. "Tarix o'qitish metodikasi" fanida bu jarayon metodik faoliyatni bajarish orqali amalga oshiriladi, ya'ni talaba darsni loyihalaydi, metodlarni tanlaydi, tarixiy materialni didaktik jihatdan qayta ishlaydi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladi va baholash vositalarini ishlab chiqadi. Aynan shu faoliyatlar orqali metodik kompetentlik shakllanadi.

Tarix o'qitish metodikasini o'rganayotgan talabalar uchun tizimli yondashuv nihoyatda muhimdir. Bo'lajak o'qituvchi tarix darsini faqat alohida metodlar majmui sifatida emas, balki yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'ra bilishi kerak. U maqsad, mazmun, metod, shakl, vosita va natija o'rtasidagi bog'liqlikni anglamasa, samarali dars tashkil eta olmaydi. Shu sababli "Tarix o'qitish metodikasi" fanida talabalarga darsni tizimli loyihalash, metodlarni o'zaro uyg'unlashtirish, o'quvchilar faoliyatini rejalashtirish, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ta'lim mazmuni bilan bog'lash ko'nikmalari berilishi zarur. Mikroo'qitish, keys-stadi, dars ishlanmasi tuzish, metodik vaziyatlarni tahlil qilish kabi faoliyatlar ana shu tizimli fikrlashni rivojlantiradi. Tizimli yondashuv interfaol metodlarni tasodifiy yoki shunchaki darsni qiziqarli qilish vositasi sifatida emas, balki aniq pedagogik maqsadga xizmat qiluvchi tizim elementlari sifatida ko'rishni talab etadi. Masalan, debat o'quvchilarning tarixiy voqealarga baho berish ko'nikmasini rivojlantirsa, manba bilan ishlash tarixiy tafakkurni shakllantiradi, klaster esa tarixiy materialni tizimlashtirishga yordam beradi. Tarix o'qitish metodikasida tizimli yondashuvni qo'llash bir qator muhim afzalliklarga ega. Avvalo, u tarix ta'limining barcha komponentlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlaydi. Natijada darsning ichki mantiqi mustahkamlanadi va ta'lim jarayoni maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Demak, tarix o'qitish metodikasida tizimli yondashuv ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning muhim metodologik poydevori hisoblanadi. Ushbu yondashuv tarix ta'limining maqsadi, mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari va natijalarini o'zaro bog'liq pedagogik tizim sifatida talqin etadi. Natijada tarix darslari puxta rejalashtirilgan, ichki mantiqqa ega, maqsadga yo'naltirilgan va samarali pedagogik jarayonga aylanadi. Tizimli yondashuv tarixiy bilimlarni chuqur o'zlashtirish, tarixiy tafakkurni rivojlantirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning metodik kompetentligini rivojlantirish, darsni yaxlit ko'ra bilish va ilmiy asosda loyihalash imkonini beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv pedagogik nazariyada ta'lim jarayonini shaxsning individual rivojlanishi, ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va qadriyatlariga mos ravishda tashkil etishni nazarda tutuvchi yondashuv sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuvning markaziy g'oyasi shundan iboratki, ta'lim oluvchi tayyor bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki o'z rivojlanishini ongli ravishda boshqaruvchi, mustaqil fikrlovchi va faoliyatini maqsadli tashkil etuvchi subyektdir. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda talabaning individual imkoniyatlari, psixologik xususiyatlari, bilish uslubi, kasbiy qiziqishlari va hayotiy pozitsiyasi muhim o'rin tutadi. Bunda ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari talabaning ichki dunyosiga moslashtiriladi. Natijada ta'lim jarayoni shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning o'ziga xos salohiyatini yuzaga chiqarish va kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash nuqtayi nazaridan qaralganda, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabada faqat metodik bilim va ko'nikmalarni emas, balki kasbiy o'zini anglash, pedagogik refleksiya, tarixiy tafakkur, qadriyatlarga asoslangan yondashuv va kasbiy o'zini rivojlantirishga tayyorlikni ham shakllantiradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bo'lajak tarix o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Avvalo, bu yondashuv talabaning kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi. Agar ta'lim

jarayonida talabaning qiziqishlari, ehtiyojlari va shaxsiy maqsadlari hisobga olinsa, u o'quv faoliyatida faolroq ishtirok etadi, o'z kasbiga ongli munosabat bildiradi va pedagogik faoliyatga nisbatan ijobiy ichki motivatsiya shakllanadi. Bo'lajak tarix o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amaliyotga tatbiq etish uchun interfaol, refleksiv va faoliyatga asoslangan metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday metodlar qatoriga quyidagilar kiradi: **muammoli o'qitish**, bu talabani mustaqil fikrlashga va yechim izlashga undaydi; **keys-stadi**, metodik va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishga yordam beradi; **loyiha metodi**, talabaning ijodiy va mustaqil faoliyatini rivojlantiradi; **mikroo'qitish**, talabaning metodik mahoratini namoyon etish va tahlil qilish imkonini beradi; **portfel usuli**, talabaning kasbiy o'sishini bosqichma-bosqich kuzatishga yordam beradi; **esse va refleksiv yozuvlar**, kasbiy o'zini anglashni kuchaytiradi; **debat va munozaralar**, talabaning kommunikativ va tahliliy kompetensiyalarini rivojlantiradi; **individual maslahat va mentorlik**, talabaning individual qiyinchiliklarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar yordamida talaba o'z imkoniyatlarini anglaydi, o'z kasbiy uslubini shakllantiradi va kompetentlikni individual tajriba asosida rivojlantiradi. Ushbu yondashuv talaba shaxsining betakrorligi, individual ehtiyojlari, qobiliyatlari, kasbiy qiziqishlari va o'zini rivojlantirish salohiyatini markazga qo'yadi. Natijada kasbiy kompetentlik faqat bilim va ko'nikmalar majmui sifatida emas, balki shaxsiy rivojlanish, kasbiy o'zini anglash, refleksiya, qadriyatlarga sodiqlik va mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlik sifatida shakllanadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi, metodik individualligini rivojlantiradi, refleksiv madaniyatini shakllantiradi va kasbiy o'zini rivojlantirishga undaydi. Shu sababli mazkur yondashuv tarix o'qituvchilarini tayyorlash tizimida, ayniqsa "Tarix o'qitish metodikasi" fanida, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali pedagogik strategiyasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Integrativ yondashuvning ahamiyati shundaki, u bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini fragmentar tarzda emas, balki yaxlit kasbiy shakllanish jarayoni sifatida talqin etadi. Natijada talaba tarixiy bilimlarni, ularni o'qitish metodikasini, pedagogik muloqotni, shaxsiy qadriyatlarni va kasbiy refleksiyani o'zaro bog'liqlikda egallaydi. Shuning uchun ham integrativ yondashuvni nazariy va amaliy jihatdan asoslash bo'lajak tarix o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning muhim ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash nuqtayi nazaridan integrativ yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi: tarixiy bilimlar bilan pedagogik bilimlarning uyg'unligi; nazariya bilan amaliyotning uzviy birligi; umumkasbiy va maxsus kasbiy kompetensiyalarning o'zaro bog'liqligi; ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarning yaxlitligi; shaxsiy sifatlar bilan kasbiy tayyorgarlikning birligi; fanlararo aloqadorlik asosida fikrlashni shakllantirish. Integrativ yondashuv bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy kompetentligini tor doirada emas, balki ko'p o'lchamli, kompleks va tizimli sifat sifatida tushunishga imkon beradi. U ta'lim jarayonida parchalanib ketgan bilim va ko'nikmalarni yagona kasbiy tayyorgarlik tizimiga birlashtiradi. Integrativ yondashuv kasbiy tayyorgarlikning yaxlitligini ta'minlaydi. Amaliyotda ko'pincha tarixiy bilimlar alohida, metodik tayyorgarlik alohida, pedagogik mahorat alohida o'rgatiladi. Integrativ yondashuv mazkur fanda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin: tarixiy mavzuni metodik tahlil qilish; bir mavzu doirasida tarixiy, tarbiyaviy va

rivojlantiruvchi maqsadlarni uyg'un belgilash; dars ishlanmasini tuzishda mazmun, metod, vosita, shakl va baholashni bir tizimda ko'rish; tarixiy manbalarni o'qitish metodikasi bilan bog'lash; interfaol metodlar orqali tarixiy tafakkur va kasbiy ko'nikmalarni birgalikda rivojlantirish; maktab darsi bilan oliy ta'limdagi metodik tayyorgarlik o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash bo'lajak tarix o'qituvchisining tarixiy tafakkurini, metodik savodxonligini, pedagogik refleksiyasini, qadriyatlarga asoslangan pozitsiyasini va amaliy kasbiy tayyorgarligini uyg'un rivojlantiradi. Bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy kompetentligi nafaqat tarixiy bilimlarning hajmi bilan, balki uning bilimni qanday anglay olishi, tarixiy haqiqatga qanday yondashishi, manba va talqinlar bilan qanday ishlashi, tarixiy bilish mexanizmlarini qay darajada tushunishi bilan ham belgilanadi. Mazkur ehtiyoj bo'lajak tarix o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda epistemologik yondashuvni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan integrativ metodik tizim ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu tizim asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni tarix o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini yuqori bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Михайлова Ю.Н. Воспитательно-образовательная среда вуза как средство повышения уровня адаптивности студентов к профессиональной деятельности // Вопросы современной науки и практики. Университет им. В. И. Вернадского. № 7-9(30). 2010. - С. 134.
2. Ясвин В.А. Тренинг педагогического взаимодействия в творческой образовательной среде / под ред. В.И. Ланова. - М, 1997. - С. 28.
3. Вестник ПСТГУ. IV: Педагогика. Психология. - 2006. - Вып. 3. - С. 107—122.
4. Алисов Е.А., Подымова Л. С. Инновационная образовательная среда как фактор самореализации личности // СПО. - 2001. - № 1.- с. 61-62.
5. Шмелёва Е.А. Инновационная образовательная среда вуза: пространство развития //Научный поиск. - 2012.- № 1(3). - С. 14.
6. Glozier M. L'entreprise a l'econte. Apprendre le management postindustriale / M. Glozier. - Paris, 1991. - P. 26.

SOG'LOM AVLOD-UCHINCHI RENESANS POYDEVORI

Qiyosova Gavhar Tursunovna

NavDU tarix fakulteti tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Shamsutdinova N.K.

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti f.f.d.(DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada sog'lom avlodni tarbiyalashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, uchinchi Renesansni barpo etishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, ularni giyohvandlik kabi zararli illatlardan asrash masalalari haqida fikr yuritilgan. Sog'lom, bilimli va vatanparvar yoshlar kelajak taraqqiyotining asosiy kuchi ekani ta'kidlangan.

Аннотация. В данной статье раскрывается значение воспитания здорового поколения в развитии общества и строительстве третьего Ренессанса. Также

рассматриваются вопросы духовного и физического воспитания молодежи, защиты их от вредных привычек, в частности наркомании. Подчеркивается, что здоровая, образованная и патриотичная молодежь является главной силой будущего развития страны.

This article highlights the importance of raising a healthy generation in the development of society and in building the Third Renaissance. It also discusses the spiritual and physical education of young people and the need to protect them from harmful habits such as drug addiction. The article emphasizes that healthy, educated, and patriotic youth are the main force of future progress.

Bugungi kunda yurtimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki sog‘lom, bilimli va ma‘naviy yetuk yoshlar jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi sanaladi. Shu bois “Sog‘lom avlod — uchinchi Renesans poydevori” degan g‘oya bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Avvalo, “Renesans” tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu so‘z “uyg‘onish”, “yuksalish” ma’nolarini anglatadi. Tarixga nazar tashlasak, Markaziy Osiyo hududida birinchi va ikkinchi Renesans davrlarida ilm-fan, madaniyat va ma‘rifat nihoyatda rivojlangan. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar dunyo tamadduniga ulkan hissa qo‘shganlar. Bugungi kunda esa Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchinchi Renesansni barpo etish maqsadini oldimizga qo‘ymoqda.

Uchinchi Renesansning mustahkam poydevori esa, albatta, sog‘lom avloddir. Sog‘lom avlod deganda nafaqat jismonan baquvvat, balki ma‘nan yetuk, bilimli, vatanparvar va zamonaviy fikrlaydigan yoshlar tushuniladi. Chunki sog‘lom tanada sog‘lom aql bo‘ladi. Yoshlarning sog‘lom ulg‘ayishi uchun oilada, maktabda va jamiyatda qulay muhit yaratish juda muhimdir.

Shuningdek, mamlakatimizda yoshlar salomatligini mustahkamlash, sportni rivojlantirish, sifatli ta‘lim berish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy maktablar, sport majmualari, oliy ta‘lim muassasalari bunyod etilayotgani yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlarning yorqin namunasidir. Ayniqsa, yoshlarning chet tillari, axborot texnologiyalari va ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish kelajak taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, bugungi jamiyatning eng xavfli illatlaridan biri — giyohvandlikdir. Giyohvand moddalar inson salomatligini yemiradi, uning ongini zaharlaydi va kelajagini barbod qiladi. Ayniqsa, yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashish juda muhimdir. Chunki bu illat nafaqat bir insonning, balki oilaning va jamiyatning ham tanazzuliga sabab bo‘ladi. Giyohvandlik tufayli jinoyatchilik, ishsizlik va turli kasalliklar ko‘payadi. Shu sababli yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, sport va kitobxonlikka jalb etish, ularni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ma‘naviy tarbiya ham sog‘lom avlodni shakllantirishda katta o‘rin tutadi.

Bundan tashqari, ma‘naviy tarbiya ham sog‘lom avlodni shakllantirishda katta o‘rin tutadi. Yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni turli zararli illatlardan, jumladan giyohvandlik va boshqa yomon odatlardan asrash, kitobxonlikka va ilm olishga undash har bir ota-ona va ustozning muhim vazifasidir.

Xulosa qilib aytganda, uchinchi Renesansni barpo etish uchun eng avvalo sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol yoshlarni voyaga yetkazish zarur. Chunki kelajak aynan

yoshlar qo‘lidadir. Sog‘lom avlod — yurt ravnaqi, millat kelajagi va yangi uyg‘onish davrining mustahkam poydevoridir. Giyohvandlikka qarshi kurashish esa ana shu buyuk maqsadga erishishning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch / Islom Karimov. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-207-son Farmoni. — Toshkent, 2025.
3. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. — Toshkent.
4. Sog‘lom turmush tarzi va zararli odatlarning oldini olish — 2021-yilda nashr etilgan

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING MA’NAVIY VA MA’RIFIY ASOSLARI

Narkulova Shaxnoza Xakimovna

Navoiy Davlat Universiteti tarix fakulteti

Falsafa yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.d., dotsent Shamsutdinova Nigina Karimovna

Annotatsiya. Mazkur tezisda Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar siyosatining ma’naviy va ma’rifiy asoslari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda yoshlar siyosati faqat davlat tomonidan amalga oshiriladigan tashkiliy, iqtisodiy yoki huquqiy chora-tadbirlar majmui sifatida emas, balki jamiyatning kelajakdagi ma’naviy qiyofasini, fuqarolik madaniyatini, intellektual salohiyatini va ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi strategik jarayon sifatida talqin etiladi. Tezisda yoshlar siyosatining ma’naviy asosi qadriyat, axloq, vatanparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat va milliy o‘zlikni anglash bilan, ma’rifiy asosi esa bilim, tanqidiy tafakkur, kasbiy kompetensiya, huquqiy madaniyat va zamonaviy dunyoqarash bilan bog‘liqligi asoslanadi. Shuningdek, yoshlar siyosatining samaradorligi faqat rasmiy tadbirlar yoki statistik ko‘rsatkichlar bilan emas, balki yoshlarning ongida shakllanadigan mustaqil fikr, ma’naviy immunitet, jamiyatga daxldorlik hissi va ijtimoiy faol pozitsiya bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, yoshlar siyosati, ma’naviyat, ma’rifat, yoshlar tarbiyasi, huquqiy madaniyat, milliy qadriyat, ma’naviy immunitet, ijtimoiy faollik, fuqarolik mas’uliyati.

Аннотация. В данном тезисе социально-философски анализируются духовно-нравственные и просветительские основы молодежной политики в условиях Нового Узбекистана. Молодежная политика рассматривается не только как совокупность организационных, экономических или правовых мер, реализуемых государством, но и как стратегический процесс, обеспечивающий формирование будущего духовного облика общества, гражданской культуры, интеллектуального потенциала и социальной стабильности. В тезисе обосновывается, что духовная основа молодежной политики связана с ценностями, нравственностью, патриотизмом, социальной

ответственностью и осознанием национальной идентичности, а просветительская основа — со знаниями, критическим мышлением, профессиональной компетентностью, правовой культурой и современным мировоззрением. Также подчеркивается, что эффективность молодежной политики определяется не только официальными мероприятиями или статистическими показателями, но и формированием у молодежи самостоятельного мышления, духовного иммунитета, чувства сопричастности к обществу и активной гражданской позиции.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, молодежная политика, духовность, просвещение, воспитание молодежи, правовая культура, национальные ценности, духовный иммунитет, социальная активность, гражданская ответственность.

Abstract. This thesis analyzes the spiritual and educational foundations of youth policy in the context of New Uzbekistan from a socio-philosophical perspective. Youth policy is interpreted not only as a set of organizational, economic, and legal measures implemented by the state, but also as a strategic process that ensures the future spiritual image of society, civic culture, intellectual potential, and social stability. The thesis substantiates that the spiritual foundation of youth policy is connected with values, morality, patriotism, social responsibility, and national identity, while its educational foundation is associated with knowledge, critical thinking, professional competence, legal culture, and a modern worldview. It is also emphasized that the effectiveness of youth policy is determined not only by official events or statistical indicators, but also by the development of independent thinking, spiritual immunity, a sense of belonging to society, and an active civic position among young people.

Keywords: New Uzbekistan, youth policy, spirituality, enlightenment, youth education, legal culture, national values, spiritual immunity, social activity, civic responsibility.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlar siyosati davlat va jamiyat rivojining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki yoshlar nafaqat demografik qatlam, balki jamiyatning ma‘naviy, intellektual va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy kuch hisoblanadi. Yoshlar qanday qadriyatlar asosida shakllansa, jamiyatning ertangi qiyofasi ham shunga mos ravishda shakllanadi. Shu sababli yoshlar siyosatini faqat ta‘lim, bandlik yoki sport tadbirlari bilan cheklab bo‘lmaydi. Aslida u davlatning kelajak avlodni ma‘naviy, intellektual va fuqarolik jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan strategik faoliyatidir.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunida yoshlar siyosati yoshlarni ijtimoiy shakllantirish hamda ularning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi sifatida ta’riflanadi. Bu esa yoshlarni jamiyat hayotiga tayyorlash va ularni faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi murakkab tizim ekanini ko‘rsatadi⁴⁹.

⁴⁹ <https://lex.uz/docs/-3026246>. O‘zbekiston Respublikasining *Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi* Qonuni, 3-modda.

Yoshlar siyosatining ma'naviy asosi shaxsning qadriyatlari, axloqiy tanlovi va ijtimoiy mas'uliyati bilan bog'liq. Ma'naviyat insonning o'zini, jamiyatni va Vatanni anglashida namoyon bo'ladi. Agar yoshlar siyosati ma'naviy asosga ega bo'lmasa, u faqat tashqi tadbirlar yig'indisiga aylanib, yoshlarda mustaqil fikr va barqaror qadriyatlarning shakllanishiga yetarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Shu jihatdan yoshlar siyosatining asosiy prinsiplari ichida "ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi"⁵⁰ alohida ahamiyatga ega. Bu prinsip yoshlarning o'zligini anglashiga, jamiyatdagi o'rnini topishiga hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini tushunishiga xizmat qiladi. Chunki bilim axloqiy mezon bilan uyg'unlashmaganda, u jamiyat taraqqiyotiga yetarli foyda keltirmasligi mumkin.

Qonunchilikda yoshlar siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida "yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish"⁵¹ belgilangan. Bu yondashuv yoshlarni nafaqat bilimli, balki mas'uliyatli, ijtimoiy faol va ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalash zarurligini ko'rsatadi.

Yoshlar siyosatining ma'rifiy mazmuni zamonaviy kasblar, chet tillari, raqamli texnologiyalar va innovatsion tafakkur bilan bog'liq holda tobora kuchaymoqda. Bugungi kunda mehnat bozori tez o'zgarib, sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot kabi sohalarida yangi talablar yuzaga kelmoqda. Shu sababli yoshlarni zamonaviy kasblarga tayyorlash va ularning global bilim makoniga integratsiyasini ta'minlash yoshlar siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Bu borada *O'zbekiston — 2030* strategiyasida "Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o'qitish tizimini yaratish"⁵² vazifasi belgilangan. Bu yoshlarni global raqobat sharoitida mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy ko'nikmalarga ega shaxs sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Biroq kasbiy tayyorgarlik ma'naviy tarbiya bilan uyg'unlashmasa, u faqat texnik ijrochilik darajasida qolib ketishi mumkin. Shu sababli kasbiy ta'lim fuqarolik mas'uliyati, axloqiy madaniyat va milliy qadriyatlar bilan birga olib borilishi zarur.

Yoshlar siyosatining muhim ma'naviy asosi — milliy qadriyatlar va zamonaviy tafakkur uyg'unligidir. Milliy qadriyatlar faqat urf-odat yoki tarixni eslash emas, balki yoshlarning fikrlashi, muomala madaniyati, mehnatga munosabati, Vatanga va ota-onaga hurmati, til va tarixga e'tiborida namoyon bo'ladi. Agar u faqat tashqi ko'rinishda qolsa, tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotadi; kundalik hayot va faoliyatga singganda esa haqiqiy ma'naviy asosga aylanadi.

Shu jihatdan ma'naviy muhit masalasi yoshlar siyosatida alohida o'rin tutadi. *O'zbekiston — 2030* strategiyasida "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash"⁵³ vazifasi belgilangan. Yoshlar tarbiyasi faqat ta'lim muassasalarida emas, balki oila, mahalla, internet, do'stlar va ish muhitida shakllanadi. Agar bu muhitlar turli va zid

⁵⁰ <https://lex.uz/docs/-3026246> O'zbekiston Respublikasining *Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi* Qonuni, 4-modda.

⁵¹ <https://lex.uz/docs/-3026246> O'zbekiston Respublikasining *Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi* Qonuni, 5-modda.

⁵² <https://lex.uz/docs/-6600413> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risidagi* Farmoni, 30-maqсад.

⁵³ <https://lex.uz/docs/-6600413>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *O'zbekiston — 2030 strategiyasi to'g'risidagi* Farmoni, 38-maqсад.

qadriyatlarni targʻib qilsa, yoshlar ongida chalkashlik paydo boʻladi. Aksincha, ular uygʻun boʻlsa, yoshlar siyosatining samarasi oshadi.

Bu nuqtada yoshlar siyosatining huquqiy-maʼrifiy jihati ham muhim ahamiyatga ega. Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish konsepsiyasida “yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish”⁵⁴ vazifasi belgilangan. Bu yoshlarni qonundan qoʻrqadigan emas, uni anglaydigan, hurmat qiladigan va oʻz huquq hamda majburiyatlarini biladigan shaxs sifatida shakllantiradi. Huquqiy madaniyat boʻlmasa, erkinlik masʼuliyatsizlikka, faollik esa tartibsizlikka aylanishi mumkin. Shu sababli huquqiy tarbiya maʼnaviy va maʼrifiy tarbiyaning ajralmas qismidir.

Yangi Oʻzbekiston sharoitida yoshlar siyosatining asosiy maqsadi — yoshlarni shiorlarni takrorlovchi emas, balki ularni tushunadigan, tahlil qiladigan va hayotda qoʻllaydigan, jamiyat taraqqiyotiga ongʻli hissa qoʻshadigan shaxslar sifatida shakllantirishdir. Bunday siyosat tashqi tadbirlar bilan emas, balki yoshlarning ichki maʼnaviy oʻsishi, intellektual rivoji, huquqiy madaniyati va fuqarolik masʼuliyati bilan baholanadi. Yangi Oʻzbekistonning barqaror rivoji esa aynan bilimli, vatanparvar va ijtimoiy masʼuliyatli yosh avlodga bogʻliq.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. “Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni.” *“Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”* (2016-yil 14-sentyabr, OʻRQ-406-son). – 3,4,5 – moddalar.
2. “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.” *“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida (2023+yil 11-sentabr, PF-158-son).* – Kirish qismi, 30, 38-maqсадlar.
3. “Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori.” *“Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”* (2021-yil 18-yanvar, 23-son). – 2-yoʻnalish.

HIJOMANING BOLALAR SALOMATLIGINI TAʼMINLASHDAGI FOYDA VA ZARARLARI

Nusratova Dilorom Oʻktamovna

Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi katta oʻqituvchisi

Аннотация. Ushbu maqolada insonni sogʻlom turmush tarzini kechirishini bosh koʻrsatkichi –bu hijoma avvalo uning fizik rivojlanish holati va unga bogʻliq oʻzini umumiy his etishi, tanasidagi, qolaversa qonidagi nikroelimentlarning organ va aʼzolar boʻylab harakatlanishi tufayli inson salomatligini yanada xush kayfiyatda boʻlishini taʼminlashdir. Shunday ekan ushbu maqola orqali qonni qay darajada va qanday tarzda tizalash imkoniyatlari haqida maʼlumot berilgan..

Калит сўзлар: соғлиқ, қон, hijoma, jarroxlik, tana, teri, қон томirlar, toʻqimalar, kislorod

⁵⁴ <https://lex.uz/docs/-5234746> Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2-yoʻnalish.

Аннотация. В данной статье основным показателем здорового образа жизни человека является хиджама, прежде всего состояние его физического развития и общее самочувствие, а также движение микроэлементов в его организме и крови по органам и органов.. является улучшение настроения. Поэтому в этой статье представлена информация о том, как и в какой степени можно регулировать кровь.

Ключевые слова: здоровье, гиподинамика, добро, радость, личная гигиена.

Annattosia. In this article, the main indicator of a person's healthy lifestyle is hijama, first of all, the state of his physical development and his overall feeling of well-being, and the movement of microelements in his body and blood through the organs and organs. is to promote a better mood. Therefore, this article provides information on how and to what extent the blood can be regulated.

Key words: health, blood circulation, surgery, body, skin, blood vessels, tissues, oxygen

Bugungi kunda respublikamizda ko‘plab hijoma markazlarini ko‘rishimiz mumkin. Xo‘sh hijoma o‘zi nima? U inson sog‘ligi va kasalliklarni davolash uchun qay darajada foydali? Aholining asosiy qismida bugungi kunda ushbu savol mavjud. Shu sababli bugun aynan hijoma haqida to‘liq ma‘lumot berishga qaror qildik.

Hijoma nima?

Hijoma arabcha “al-hajm” so‘zidan olingan bo‘lib, “ so‘rib olish” , “tashqariga chizish” degan ma‘nolarni bildiradi. Qon inson organizmining eng muhim elementlaridan biri. U to‘qimalarga kislorod yetkazishda va moddalar almashinuvida faol ishtirok etadi. Kishi harakatsiz holatida qon «qariy boshlaydi», o‘zining sifati ko‘rsatkichlarini yo‘qotadi. Qolaversa, noto‘g‘ri ovqatlanish, havoning ifloslanishi, stresslar natijasida qonning tarkibida zararli moddalar to‘planib qoladi. Bu moddalardan xalos bo‘lishda esa hijoma katta yordam beradi.

Jarrohlik bo‘lmagan bu jarayonda tanadagi toksik qon chiqarib tashlanadi. Albatta bu tanadagi aniq hijoma nuqtalari orqali amalga oshiriladi. Bunday nuqtalarda avval qon yig‘ilishiga rag‘batlantiriladi va keyin kichik vakuum sistemasi orqali so‘rib olinadi. Bunda teri yuzasida maxsus kesmalar kesilib, ular orqali qon tashqariga chiqaridi va bu qon stakanlarga yig‘ib olinadi. Qon olingach organizm himoya funksiyasi ishga tushadi, ya‘ni yo‘qotilgan qon o‘rni yangi qon ishlab chiqarish orqali to‘ldiriladi. O‘z navbatida bu jarayon barcha to‘qima va hujayralar faoliyatini rag‘batlantiradi va funksiyasini yaxshilaydi. Demak hijoma organizm himoya funksiyasini ishga tushirishda, organizm holatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.

Qanday kasalliklarda foydalaniladi?

Qon bosimi oshishi, bo‘yin va yelkadagi og‘riqlar, jinsiy zaiflik, immunitet susayishi, bavoril, miyada qon aylanishi buzilishi bilan bog‘liq bosh og‘rig‘i, yurak-qon tomir xastaliklari, qandli diabet, revmatizm, ko‘z nuri xiralashishi, glaukoma, gaymorit va boshqalar.

Hijoma tarixi

Hijoma ming yillar ilgari ham bo‘lgan va dunyodagi deyarli har bir rivojlangan davlatlarda foydalanilgan. Faktga ko‘ra bu terapiya bir qancha tillar orqali ma‘lum bo‘lgan (fransuz, ingliz, ispan, rus, xitoy, koreys, arab, urdu, grek) . Bu hijomaning global darajada terapevtik aralashganining yorqindalilidir. Yana bir manbalarga ko‘ra hijomaning asosiy qoidalari yahudiy bitiklarida ham tasvirlangan. Shunga o‘xshash uning asosiy bosqichlari qadimiy xristian bitiklarida ham yozilgan. Bugungi kunda hijoma tibbiyot amaliyotining butun bir qismi hisoblanadi va hozirda ham saqlanib qolgan. Qadimgi Xitoy

tibbiyot manbalariga ko'ra hijoma qadimgi tibbiyot usuli sifatida hurmat qilingan. Nei Jing yoki Inner klassikasi shunday deydi: "agar turg'unlik bo'lsa u birinchi igna terapiyadan oldin hijoma orqali hal qilinishi kerak.

Hijoma Muhammad (s.a.v) dan ilgarigi vaqtda ham mavjud bo'lgan. U Islom an'analarining bir qismi va davolashda qo'llaniladigan ta'limdir. Muhammad (s.a.v) turli vaziyatlarida hijomadan foydalanganlar va uning ahamiyatini ta'kidlab o'tganlar. Jumladan Sahih Buxoriy va Muslimda quyidagi hadis rivoyat qilinadi: "Anas ibn Molik raziyallohu anhudan, hajjom (qon oluvchi)ning kasbi haqida so'ralganda, u zot: "Rasululloh sallallohu alayhi va sallam hijoma qildirganlar. U zot sallallohu alayhi va sallamga hajjomlik qilgan Abu Toyyibaga ikki so' (o'rtacha 5 kg atrofida) taom berishga buyurib va ahillariga uning xirojidan bir oz kamaytirishni tayinladilar. Keyin (rasululloh sallallohu alayhi va sallam) dedilar: "Davolanishlaring uchun eng afzal narsa hijomadir".

Yana bir rivoyatda esa shunday keltirilgan: Sayid ibn Zubayr raziyallohu anhu Ibn Abbos raziyallohu anhumodan, u kishi esa, Rosululloh sollallohu alayhi va sallamdan rivojat qilgan hadisni Imom Buxoriy o'z sahihlarida rivoyat qildilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: Shifo uch narsadadir – asal ichishda, mehjam (hijomada ishlatiladigan asbob)ning tilishida (ya'ni, Hijoma qildirishda) va o't bilan kuydirishda. Va (men) ummatimni o't bilan kuydirib (davolanish)dan qaytaraman?». (Buxoriy: 5269) Islom ta'limotiga ko'ra hijoma muhim davolash usuli va sunnatdir.

Qadimgi Misrlilar birinchi bo'lib hijoma tanadagi patogenetik moddalarni chiqarib tashlashda eng foydali usul ekanligini yozib qoldirishgan. Qadimgi yunonlar ham buni yoqlagan. Ba'zi fikrlarga ko'ra hijoma qadimgi gretsiyaga Misr orqali kirib kelgan. Boshqa manbalarga ko'ra esa hijoma qadimgi Xitoyda paydo bo'lgan. Qadimgi Xitoy diniy kitoblarida ko'rsatilishicha tanadagi turg'unlik qonni chiqarib tashlash orqali hal qilinadi.

Hijoma qaysi kunlarda qilish afzal?

Imom Termiziy Abdulloh ibn Abbos raziyallohu anhumodan rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (s.a.v) dedilar: «Sizlar hijoma qiladigan kunlaringizning eng yaxshisi 17, 19 va 21-kunlardir» (bu kunlar hijriy-qamariy hisobdagi oylar kunlaridir).

Anas ibn Molik raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi Rasululloh (s.a.v) dedilar: «Kimki hijoma qilmoqchi bo'lsa 17, 19 va 21- kunlarni tanlasin, sizlardan birortangizning qoni oshib ketib uni o'ldirib qo'ymasini» (ya'ni, agar birortangizning qoni suyulib, oshib ketsa qaysi kunda bo'lsa ham hijoma qilaversin. Bu izoh Ibnul Qoyyimning «Zodul-Ma'od» kitobidan olindi) Ibn Moja rivoyati.

Imom Ibn Moja Ibn Umar raziyallohu anhumodan rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (s.a.v) shunday dedilar: "Och qoringa (ertalabda) qilingan hijoma yaxshiroqdir. Unda shifo va baraka bor, aql va zehnni oshiradi. Allohning barakasi bilan payshanba kuni hijoma qilinglar. Chorshanba, juma, shanba va yakshanba kunlari hijomadan saqlaningerlar. Dushanba va seshanba kunlari hijoma qilinglar, u Alloh Ayyubni musibatdan xalos qilgan kun, unga musibatni chorshanba kuni yuborgandi. Mohov va pes chorshanba kuni yoki chorshanbaga o'tar kechasi paydo bo'ladi". Imom Ibnul Qoyyim "Zodul-Ma'od" kitobida aytadilar: "Hadislardagi mazkur 17,19 va 21- kunlar oyning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelmoqda. Bu tabiblar ittifoq qilgan muddatga muvofiqdir. Bu hijoma uchun eng munosib vaqtga dalolat qiladi, xolos. Agar kishi qaysidir sababga ko'ra badanidan qon oldirishga ehtiyoj sezsa qaysi kunda bo'lsa ham hijoma qilsa bo'laveradi". (Zodul Ma'od» 674 bet)

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Шоумаров Ф. Б., Мамедов К.К.. Рухий ривожланиши сустлашган болалар.- Т.: —Ўқитувчи, 1995.
- 2.Петрова В.Г., Беякова И.В. Психология умственно отсталых

школьников.-М.: —АСАМЕДИА,2004.

3. Левченко И.Е., Забрамная С.Д. Психолого-педагогическая диагностика.-М.: —АСАМЕДИА, 2005.

Ахборот манбаалари

1. www. Tdpu. Uz

2. www. Pedagog. Uz

NAVOIY VILOYATIDA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIGA OID TUB ISLOHOTLARNING AMALGA OSHIRILISHI

**Asadova Mohirabonu Hasanovna,
Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi o‘qituvchisi.**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach barcha hududlarda, jumladan Navoiy viloyati tumanlarida sog‘liqni saqlash tizimida salmoqli ishlar amalga oshirildi. 5 bosqichli xizmatdan 2 bosqichli tibbiy xizmatga o‘tildi.

Viloyatda o‘z o‘rni va potensialiga ega bo‘lgan Xatirchi tumanida 2017 yilning 1 iyunigacha 33 ta qishloq vrachlik punkti ishga tushirildi, ulardan 18 tasi yangidan qurildi, 15 tasi moslashtirilgan binolarda faoliyat ko‘rsatdi. 2017 yilning 1 iyunidan 33 ta qishloq vrachlik punktlari maqbullashtirilib, ularning negizida 8 ta qishloq oilaviy poliklinikasi tashkil etildi, 14 ta qishloq vrachlik punkti qisqartirildi, 11 qishloq vrachlik punkti o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Tumanda aholining sog‘ligini saqlash, tibbiy xizmatni yanada yaxshilash borasida olib borilgan islohotlar natijasida bir guruh shifokorlar “Sog‘liqni saqlash a‘lochisi” nishoni bilan taqdirlangan. Ular B.Oydinov, T.Qurbonniyozov, A.Xoliqulov, B.Avlonov, B.O‘rinov, X.Ismoilov, A.Ostanayeva, R.Lyapina, I.Toshniyozov, B.Raxmonov, R.Ravshanov, F.Toshbotirova, U.Bo‘tayev, F.Usmonov, J. Boliyev, I. Nusratillayevlardir⁵⁵. Bundan tashqari, “Tasmachi” QVP umumiy amaliyot shifokori M.Nurmamatova “SHuhrat” medali, M.Muhammadiyeva I darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan taqdirlangan. Oxirgi 30 yil tuman tibbiyoti uchun tub burilish, sifat o‘zgarishi davri bo‘ldi. SHart-sharoitlar, moddiy texnik baza ancha yuksaldi. Jumladan, 2015 yilda tuman markazida 350 qatnovga mo‘ljallangan tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi yangi binosi foydalanishga topshirildi. Shu yili tuman tez tibbiy yordam bo‘limi ham yangi binoda ish boshladi va bugungi kunda 12 ta filial bilan aholiga shoshilinch tibbiy yordam xizmati ko‘rsatib kelinmoqda.

Bugungi kunda tumanda 238 nafar vrach aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatmoqda. SHundan 69 nafar vrach oliy toifali bo‘lib, umumiy vrachlarga nisbatan 28,8 foizni tashkil etadi. 17 nafari 1-toifali (7,1 foiz), 23 nafari 2-toifali (9,6 foiz). O‘rta tibbiyot xodimlari 1754 nafar bo‘lib, shundan 338 nafari oliy (19,2 foiz), 127 nafari 1-toifa (7,2 foiz), 215 nafari 2-toifaga ega (12,2 foiz). Yurtimizda xususiy tibbiyot rivojiga ham qaratilayotgan e‘tibor tufayli joylarda zamonaviy klinikalar qad rostlab, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati oshmoqda. Natijada, chekka hududlarda ham murakkab davolash usullarini tatbiq etish imkoni paydo bo‘lmoqda. Jumladan, Xatirchi tumanida bugungi kunda 30 ga yaqin xususiy davolash muassasasi faoliyat olib borayotgan bo‘lsa, ulardan biri “CHoriqul SHaymatov gavhari” xususiy tibbiyot korxonasi ko‘p yildan buyon ish olib boradi. Uning 100 qatnovga ega poliklinika hamda 40 o‘rinli statsionar kasalxonasi el xizmatida.

⁵⁵ X.Курбонов ва бошқалар. “Хатирчи тумани. Кеча ва бугун”. 2021. 350 – бет.

2015 yilda qad rostlagan ikki qavatli bino o'tgan yilda chet eldan xarid qilingan uskunalar bilan boyidi. Respublikamizning turli hududlaridan kelgan bemorlarga oliy hamda 1-toifali vrachlar va tajribali hamshiralalar xizmat ko'rsatib kelmoqda. Davolash muassasasida faoliyat turlarini kengaytirish maqsadida joriy yilda quloq, burun, tomoq kasalliklarini davolash va ultratovush tashhisi, qon tarkibidagi biokimyoviy va IFA garmonlarini tekshirish laboratoriya xizmati yo'lga qo'yildi. "Shams tabobat" xususiy korxonasi esa tajribali shifokor Saydulla Qobilov tomonidan tashkil etilgan bo'lib, 30 qatnovga mo'ljallangan xususiy poliklinikada 10 nafar tibbiyot xodimi mehnat qilmoqda. Bu yerda aholiga asosan stomatologiya xizmatlari ko'rsatiladi⁵⁶.

Navoiy viloyatining eng ilg'or hududlaridan biri – bu Qiziltepa tumani hisoblanadi. Qiziltepa tumani sog'liqni saqlash tizimi tarixiga nazar tashlasak, uzoq davrga borib taqaladi. Adabiyotlarda qayd etiliicha, Qiziltepa tumanida tibbiy muassasalar paydo bo'lganiga 90 yil to'ldi.

Tuman hududida ilk bor 1930 yillarda tumanning Vang'ozu hududida kasalxona ochilib, unda rus millatiga mansub, o'rta ma'lumotli ayol ish boshlaydi. O'sha davrda bezgak, ko'z og'rig'i, ich ketish kasalligi, qorin tifi, ko'k yo'tal, bo'g'ma singari kasalliklar juda ko'p uchrar edi. 1935 yilda tumanda markaziy kasalxona poydevori qurildi va 50 nafar kasalga mo'ljallangan kasalxona qurildi. Bemorlarning hamma turi ham bir eshikdan kirib, bir eshikdan chiqar edi. Bemorlar aralash yotqizilib, bir vrach barcha xildagi kasallarni ko'zdan kechirib, davolar edi. 1961 yilda Vang'ozida 15 o'rinli kasalxona ham ochilgan.

Qiziltepa tuman markaziy shifoxonasida bosh vrach lavozimida O'roq Rajabov (1935-1952 yillar), Sa'dullo Rajabov (1952-1962 yillar), Nuriddin Razzoqov (1962-1970 yillar), Abdullo Hakimov (1970-1974 yillar), Akmal Halimov (1974-1977 yillar), Kurash Boymurodov (1977-1980 yillar), Abdurahmon Nosirov (1980-1998 yillar), Orif Jumayev (1998-2008 yillar), Erkinjon O'rinov (2008 yildan hozirgacha) kabi insonlar faoliyat olib borgan.

Markaziy shifoxonaning laboratoriya bo'limi 1960 yilda, qon quyish bo'limi 1965 yilda, tez yordam bo'limi 1954 yilda (unda faqatgina 1 ta tez yordam mashinasi bo'lgan), ichki kasalliklar bo'limi 1939 yilda, asab kasalliklari bo'limi 1985 yilda, tug'uruqxona bo'limi 1939 yilda, homilador ayollar bo'limi 1994 yilda, ginekologiya bo'limi 1976 yilda, chaqaloqlar kasalliklari bo'limi 1989 yilda, rentgen bo'limi 1952 yilda, shoshilinch tez tibbiy yordam bo'limi 2000 yilda tashkil topgan.

So'nggi yillarda tuman tibbiyoti tubdan yangilandi va aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat turlari hamda sifati oshdi. Tuman tibbiyot birlashmasida 2017 yil ixtisoslashtirilgan 20 o'rinli endokrinologiya, 20 o'rinli kardiologiya, 20 o'rinli travmatologiya va 20 o'rinli terapiya bo'limlari tashkil etildi va hozirgi kunda faoliyat olib boryapti. Hozirgi kunda tumandagi mavjud 11 QOP, 2 ta QVP, bitta ko'p tarmoqli markaziy poliklinika, 300 o'ringa mo'ljallangan markaziy shifoxonasida 247 nafar shifokor va 2038 nafar o'rta tibbiyot xodimlari tuman aholisiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Ayni damda birlashma eng so'nggi rusumdagi tibbiy jihozlar bilan ta'minlangan bo'lib, bir qator murakkab jarrohlik amaliyotlari malakali shifokorlar tomonidan shu yerning o'zida amalga oshirilmoqda⁵⁷.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrda "Birlamchi tibbiy sanitariya muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni

⁵⁶ X.Курбонов ва бошқалар. "Хатирчи тумани. Кеча ва бугун". 2021. 350 – бет.

⁵⁷ Қаҳрамон Ражабов, Раҳим Мақсудов. "Қизилтепа тарихи". – Тошкент. 156-157-бетлар.

saqlash izimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 6110 – sonli Farmoniga muvofiq .

2022 yil 28 sentyabr VI-38-126-5-72-K/22 Xalq deputatlari Qiziltepa tumani hokimligida tumanda tibbiyot sohasida olib borilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida muhokamasi bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi “Birlamchi tibbiy santariya muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi” PF-6110-sonli Farmoniga muvofiq fuqarolarning salomatlik va fiziologik holatidan kelib chiqib, tegishli guruhlariga mansubligiga ko‘ra belgilangan muddatlarda tibbiy ko‘riklardan o‘tkazildi va salomatligi davriy kuzatuvga olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sog‘liqni saqlash vakillari bilan “o‘chtq muloqoti”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi F – 33 – sonli farmoyishi ijrosi bo‘yicha quyidagi ishoar amalga oshirildi:

Bugungi kunda Qiziltepa tuman tibbiyot birlashmasi tizimida jami 25 ta tibbiy muassasa bo‘lib, ularni 1 ta tuman markaziy shifoxonasi, 1 ta Somatik kasalliklar shifoxonasi, 1 ta ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika, 1 ta Sil kasalliklari ambulatoriyasi, 12 ta oilaviy poliklinika, 5 ta oilaviy shifokorlik punkti, 5 ta oilaviy poliklinika filiallari tashkil etadi.

Tuman sog‘liqni saqlash tizimidagi davolash profilaktika muassasalarida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan patronaj tizimi faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida byudjet mablag‘laridan dori – darmon uchun 182 mln. 83 ming so‘mlik 117 turdagi dori – darmonlar, 216 mln. 389 ming 952 so‘mlik 60 turdagi tibbiy buyum va reaktivlar olingan.

Jami 4208 nafar “D” nazoratida turadigan ijtimoiy kasalliklar bilan og‘rigan bemorlar uchun 47 mln. 863 ming so‘mlik dori – darmonlar bilan ta‘minlandi.

Aholiga yuqori texnologik operatsiyalar o‘tkazish yuzasidan viloyat tumanlari orasida birinchi marotaba 2 nafar bemorda tizza bo‘g‘imini va son chanoq bo‘g‘imida endoprotezlash jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o‘tkazildi.⁵⁸

Navoiy viloyati sog‘liqni saqlash tizimida Konimex tumani faoliyati ham alohida o‘ringa ega. Mustaqillik sharofati bilan Konimexda ham ko‘zga ko‘rinarli ishlar amadga oshirildi. Adabiyotlarda mustaqillikgacha bo‘lgan davrda Konimex tumani tarixida sog‘liqni saqlash tizimi bo‘yicha ma‘lumotlar uchraydi. “Konimex tumani sog‘liqni saqlash sohasidagi dastlabki ma‘lumotlar XX asr 20-yillari oxiridan qayd etiladi. 1929 yilda Toremurat Arslanbayev tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i vazifasida ishlagan. 1931 yildan bo‘limni Ayimtal Aqtekeyeva boshqaradi. Bu vaqtda Kojamberdiyev oliy toifali shifokor bo‘lgan, keyinchalik, tumanga hududlardan turli millatga mansub mutaxassislar kelgan”⁵⁹.

Xullas, Navoiy viloyatida sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan ishlar, avvalo, aholi salomatligini yaxshilash va mustahkamlashga, viloyatda eng ko‘p uchraydigan yuqumli, onkologik, bo‘qoq kasalliklarini davolashni zamonaviy standartlar asosida olib borish bilan birga, xotin-qizlar orasida uchraydigan o‘sma kasalliklarining hamda qizlar o‘rtasida erta turmushning oldini olish, Konimex, Tomdi tumanlarining olis cho‘l

⁵⁸ Қизилтепа туман ҳокимлиги жорий архиви. 2022 йил. 2 – жилд. 16 – варақ.

⁵⁹ Нарбай Тағайұлы Қожахмет немереси. Кенимех және мениң кейіпкерлерім. Жетінші кітап, Шымкент: 2019, – Б. 100.

hududlaridagi ayollarni asoratsiz tug‘ruq jarayoniga tayyorlash borasida fidoyilik ko‘rsatilib, davolash va profilaktik xizmatlarni amalga oshirib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. X.Қурбонов ва бошқалар. “Хатирчи тумани. Кеча ва бугун”. 2021. 350 – бет.
2. Қаҳрамон Ражабов, Раҳим Мақсудов. “Қизилтепа тарихи”. – Тошкент. 156-157-бетлар.
3. Қизилтепа туман ҳокимлиги жорий архиви. 2022 йил. 2 – жилд. 16 – varaқ.
4. Нарбай Тағайұлы Қожахмет немереси. Кенимех және мениң кейіпкерлерім. Жетінши кітап, Шымкент: 2019, – Б. 100.

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATI: SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA AMALIY NATIJALARI

Nasirov Muhriddin Zayniddin o‘g‘li,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: PhD dotsent **M.A.Choriyeva**

Hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan bebaho ma’naviy e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati qanday amalga oshirilyapti, bu sohada qanday muammolar bor, ularni qanday hal qilishimiz kerak, degan savollar doimiy e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Yoshlar ishtirokida huquqbuzarlik, jinoyat sodir etilayotgani, yosh oilalar o‘rtasida ajralish holatlarining qayd etilayotgani barchamizni jiddiy tashvishga solishi kerak. Yoshlar o‘rtasida jinoyat sodir etish, diniy ekstremistik oqimlarga, terrorchi guruhlariga qo‘shilib qolish holatlari uchramoqda. Albatta, bu borada hamma aybni u yoki bu idoraga, tashkilotga yuklab qo‘yish adolatdan emas. Bu masalada hammamiz javobgarmiz. Hech kimning bu jarayonlardan chetda turishga haqqi yo‘q.

Biz yoshlarga bepisand, loqayd munosabatda bo‘lsak, oqibati nima bo‘lishi aniq – ular ham bizdan begonalashadi. O‘qishdan, ishdan, jamiyatdan, davlatdan, boringki, hayotdan ko‘ngli sovib, qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga uradi. Shuning uchun dabdabali, balandparvoz tadbirlar o‘tkazish emas, balki yoshlar bilan bevosita ishlash, ular bilan amaliy muloqot qilish, ularni o‘ylantirayotgan hayotiy muammolarni hal etishga e’tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan, keyingi paytda turli mamlakatlarda sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining ijrochilari qatorida millatimizga mansub kimsalar ham borligi xalqimizda afsus va nadomat uyg‘otmoqda. Tinchlik va osoyishtalikni, insoniylikni hamma narsadan ustun qo‘yadigan xalqimiz bunday kimsalarning qilmishlarini keskin qoralaydi. Ularni o‘zbek degan nomga nomunosib hisoblaydi. Hozirgi vaqtda yoshlar, ayniqsa, chet elda ishlab, halol mehnat bilan daromad topaman deb yurgan fuqarolarimiz terrorizm va ekstremizm changaliga tushib qolmasligi uchun davlatimiz barcha choralarni ko‘ryapti. Bu yo‘lda, avvalambor, qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi chog‘ida mehnat migratsiyasi bo‘yicha muhim kelishuvga erishildi. Mamlakatimizning bu boradagi pozitsiyasi aniq: odam qayerda bo‘lsa ham ishlashi, oilasi, bola-chaqasini boqishi kerak. Lekin u halol mehnat qilishi, qonuniy yo‘l bilan daromad topishi lozim. Buning uchun davlatimiz barcha sharoitlarni yaratib berayotgani e’tiborga molik. Bugungi kunda ijtimoiy-ma’naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi barchamiz uchun asosiy masala bo‘lib turibdi. Respublikamizda jaholatga qarshi ma’rifat tashabbusi bilan amaliy ishlar olib borilyapti. Shuning uchun yo‘ldan adashgan o‘smirni darrov dushmanga chiqarmasdan, uni o‘zimizning farzandimiz deb bilishimiz kerak. Unga butun qalbimiz, yuragimiz bilan achinayotganimizni shu bola bilsin. Zora, shunda uning ham qalb ko‘zi ochilsa, to‘g‘ri

yo'lga qadam qo'ysa... Bir bolaning yo'ldan adashishi – bu nafaqat bir oila, balki butun jamiyat boshiga tushgan kulfat. Bundan, avvalo, uning ota-onasi, aka-ukalari, yaqinlari jabr ko'radi. Bunday paytda ularga yordam berish kerak, zararli diniy oqimga kirgan bolani “Bu – qo'shnining bolasi, boshqa qishloq yoki tumanning bolasi” deb loqayd bo'layotganlar ham oramizda yo'q emas. Axir kechagina shu yoshlar, o'zimizning qorako'zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o'g'limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku! Ular qachon adashdi, qachon noto'g'ri yo'lga kirib ketdi? Biz nega g'aflatda qoldik? Qachon, qayerda xatoga yo'l qo'ydik? Farzandlarimiz qachon begonalarning qo'liga o'tib ketdi? Nima jin urdi-yu, ular o'z ota-onasi, o'z yurtining dushmaniga aylanib qoldi? Bugun bu mudhish balo-qazoning oldini olmasak, bor kuchimizni shunga safarbar etmasak, ertaga kech bo'ladi.

Biz ko'pincha bolam maktabda, o'qishda yoki chet elda ishlayapti deb xotirjam yuramiz. Lekin bizning bunday soddaligimiz, beparvoligimizdan dushmanlar makkorlik bilan foydalanmoqda. Jon-u jahonimiz bo'lgan farzandimiz ular qo'lida qurolga aylanib qolsa, buning o'zimiz emasmi? Shuning uchun maktab, litsey va kollejlardagi, oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya, birinchi navbatda, davomat masalasiga nihoyatda jiddiy e'tibor berishimiz shart. Bironta o'quvchi yoki talaba uzrsiz o'qishga kelmay qo'ysa, ta'lim maskani ham, oila ham, mahalla, hokimiyat idoralari ham bu borada sergak tortishi, buni favqulodda holat deb baholashi kerak. Ana shunday nazorat tizimi samarali va o'zaro bog'liqlikda ishlaydigan bo'lsa, albatta, biz vaziyatni qo'lga olib, uni ijobiy tomonga o'zgartira olamiz. Yurtboshimiz alohida ta'kidlaganidek, joylarda maxsus hisobga olingan fuqarolarning turmush sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, muammolarini o'rganish, ushbu toifa shaxslar nega radikallashib ketganining sabablarini har tomonlama chuqur tahlil etish lozim. Ana shu ishlarning natijalari bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida qo'llash uchun aniq tavsiya va takliflar ishlab chiqishni bugun hayotning o'zi talab etmoqda. Agar biz shu yo'nalishdagi ishlarni avvalgidek davom ettiradigan bo'lsak, ya'ni umumiy profilaktika ishlarini yoshlar radikal diniy oqim a'zosiga aylanganidan so'ng o'tkazadigan bo'lsak, bunday xavf-xatarga qarshi samarali kurasha olmaymiz.

Ba'zi yoshlarimiz uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo'lib borayotgani, ularda befarqlik, mas'uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko'rishga intilish kabi illatlar paydo bo'layotgani – achchiq bo'lsa-da, haqiqat. Yoki turmush qurgan yoshlar orasida hayotni yengil-elpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib yetmaslik holatlari ham, afsuski, uchrab turibdi. Yosh oilalar orasida arziyas sabablar bilan ajralishlar ko'payib bormoqda. Begunoh bolalar yetim bo'lib, mehr va e'tiborga eng tashna vaqtida ota-ona tarbiyasidan chetda qolmoqda. Yana bir noxush holatni afsus bilan tilga olib o'tish joiz: oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z joniga qasd qilish holatlari borligi kishini qattiq iztirobga soladi. Shu nuqtayi nazardan biz beparvolik, loqaydlik, o'zibo'larchilik illatlaridan xalos bo'lishimiz, shaxsiy manfaatlarimizdan ko'ra Vatan manfaatini ustun qo'yishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.
2. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi.

UCHINCHI RENESANSNING MA'RIFIY VA MA'NAVIY ASOSLARI

Mansurova Malohat Yunus qizi – Navoiy davlat universiteti,

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email:m.malohat@1992gmail.com

Tel: +998 91 330 19 92

Qurolova Fotima Yo'ldi qizi - Navoiy davlat universiteti

Tarix fakulteti Falsafa yo'nalishi 1-kurs talabasi

Tel:+998-33-388-24-07

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy maqsadi davlat va jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishdan iboratdir. Mazkur jarayonda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, yoshlarni har tomonlama yetuk, bilimli, ma'naviyatli va vatanparvar etib tarbiyalash, ularga zamonaviy imkoniyatlar yaratish hamda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

“Renessans” tushunchasi “uyg'onish”, “yuksalish”, “yangilanish” ma'nolarini anglatib, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar va taraqqiyot jarayonlarini ifodalaydi. Xususan, ilm-fan, ta'lim, madaniyat, ma'naviyat va innovatsion texnologiyalar rivoji orqali jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish Uchinchi Renessansning muhim omili hisoblanadi. Shu jihatdan, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson qadri, ilm va ma'rifat turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O'zbekiston strategiyasi” asarida Uchinchi Renessansning asosiy tayanchlari sifatida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalar alohida e'tirof etiladi. Muallif ta'kidlaganidek, bog'cha tarbiyachisi, maktab o'qituvchisi, professor-o'qituvchilar hamda ilmiy va ijodiy ziyolilar yangi uyg'onish davrining tayanch ustunlari hisoblanadi [1].

Demak Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda ta'lim tizimi va ilmiy-ma'rifiy muhit hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagog va ziyolilarning jamiyatdagi nufuzini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim omillaridan biridir[3]. Zero, ilmiy, ma'naviyatli va zamonaviy fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash orqali jamiyatning intellektual salohiyati yuksaladi hamda mamlakatning kelajakdagi barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Shu bois Uchinchi Renessans g'oyasi nafaqat ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti, balki milliy yuksalish va ma'naviy taraqqiyotning muhim strategik asosi hisoblanadi.

Darhaqiqat, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ta'lim tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish hamda yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni ta'lim tizimini

rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlab, yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda [4].

Shuningdek, Uchinchi Renessansni barpo etishda ajdodlarimizning boy ilmiy va ma'naviy merosidan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy-ma'rifiy meros yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning tafakkurini yuksaltirish hamda ilm-fanga qiziqishini oshirishda muhim manba hisoblanadi. Shu bois tarixiy merosni asrab-avaylash va uni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Ma'naviyat, ma'rifat va ta'lim-tarbiya tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan sanaladi. Ayniqsa, yoshlarni vatanparvarlik, bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biridir. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev ma'naviyatni jamiyat taraqqiyotining ruhiy tayanchi sifatida baholab, quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir" [6]. Mazkur yondashuv ma'naviyatning davlat va jamiyat rivojidagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Uchinchi Renessansni barpo etishda ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifatni o'zaro uyg'un holda rivojlantirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday jamiyat taraqqiyoti, avvalo, inson kapitali, ilm-fan rivoji va yosh avlodning intellektual salohiyatiga bog'liqdir. Shu bois Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida aynan inson qadri, sifatli ta'lim va ma'naviy yuksalish masalalari turibdi.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni nafaqat zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega etib tarbiyalash, balki ularda milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik, bag'rikenglik va yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish ham dolzarb vazifa hisoblanadi [7]. Zero, ma'naviy barkamol va mustaqil fikrlaydigan yoshlar jamiyatning eng katta tayanchi va kelajak taraqqiyotining asosiy kuchidir. Ayniqsa, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'rifiy merosi hamda milliy qadriyatlarimizni yosh avlod ongiga singdirish Uchinchi Renessansning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fan va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, pedagog va ziyolilarning jamiyatdagi mavqeini oshirish orqali mamlakatning intellektual salohiyatini yanada mustahkamlash mumkin. Chunki taraqqiyotning asosiy mezon — bu ilmiy, tafakkuri keng va ma'naviy yetuk insonlarni voyaga yetkazishdir.

Demak, Uchinchi Renessans g'oyasi nafaqat tarixiy uyg'unlash konsepsiyasi, balki Yangi O'zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish esa davlat, jamiyat, ta'lim muassasalari, ziyolilar va yoshlarning hamkorligi hamda yuksak mas'uliyatiga bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi O'zbekiston strategiyasi / Sh. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 57.
2. Ma'naviyat asoslari / Q. Nazarov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – B. 112.

3. Pedagogika nazariyasi va tarixi / M. Ochilov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – B. 86.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. Abu Nasr al-Farabi. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
6. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi / Sh. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B. 249.
7. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch / I. Karimov. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 14.

ЁШЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА СИНФДАН ТАШҚАРИ ИШЛАРНИНГ ЎРНИ

**Очилова Фарангиз-
НавДУ магистранти**

АННОТАЦИЯ. Ушбу мақолада бошланғич синфда синфдан ташқари тарбиявий ишларни ташкил қилишнинг мақсад ва вазифалари, ташкил этиш усуллари, ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари ва қизиқишларига қараб ташкил этиладиган тўғарак машғулотларининг аҳамияти ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: синфдан ташқари ишлар, тўғарак машғулотлари, ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари, маънан ва жисмонан баркамол авлод, тарбиявий фаолият.

ANNOTATION. This article discusses the goals and objectives of organizing extracurricular educational activities in primary school, methods of organization, and the importance of group activities organized based on the age characteristics and interests of students.

Key words: extracurricular education, circuit training, age characteristics of students, educational activity

АННОТАЦИЯ. В данной статье раскрывается сущность внеклассной работы, как часть образовательного процесса, которая проводится в свободное от основных занятий время и направлена на развитие личности обучающихся.

Ключевые слова: внеклассное чтение, внеклассная деятельность, внеклассная воспитательная работа, образовательный процесс, свободное от занятий время, развитие личности, спортивно-оздоровительные игры, духовно-нравственное воспитание.

Маънавий-маърифий соҳага инновацион ёндашув табиийки, мустақил фикрловчи эркин шахснинг шаклланишига олиб келади. Натижада ўзининг кадр-кимматини англайдиган, иродаси бақувват, иймони бутун, ҳаётда аниқ мақсадига эга бўлган инсонларни тарбиялаш имконига эга бўламиз. Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёев қабул қилган “Халқ таълими тизимини бошқаришнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонида “...ўқувчиларнинг ўқув, психологик ва жисмоний юкламаларини оптималлаштиришни ҳисобга олган ҳолда ўқув тарбия жараёнига таълимнинг

инновацион шакллари, замонавий педагогик ва ахборот технологияларини, касбга йўналтириш, таълим ва тарбиянинг самарали усулларини жорий этиш”⁶⁰ асосий масалалардан бири эканлиги алоҳида таъкидланган. Бу мақсадларга эришишда синфдан ташқари ишларни ташкил этиш алоҳида аҳамият касб этади.

Синфдан ташқари ишлар - умумий ўрта таълим мактаби ўқув тарбиявий ишининг таркибий қисми, ўқувчиларнинг бўш вақтини ташкил этиш шаклларида бири бўлиб ҳисобланади. Шунингдек, синфдан ташқари ишлар ўқувчиларни баркамол шахс сифатида шакллантириш ва уларни ҳаётга тайёрлашда кенг имкониятлар яратади. Синфдан ташқари ишларга ўқувчилар билан ўтказиладиган ва уларга тарбия ҳамда билим беришга қаратилган турли хил машғулотлар тизими киради. Жумладан, “Она табиатни асраймиз” шиори остида гербарийлар йиғиш, “Касбим-фаҳрим” мавзусида турли касб эгаларининг иш жараёнидаги суратларидан иборат фото альбом тайёрлаш, меҳнат фахрийлари билан учрашувлар ташкил этиш, эртаклар, мактаб кечалари, болалар байрамлари, турли мавзуларга доир кўрик-танловлар уюштириш, кувноқлар ва топкирлар клуби ташкил этиш, сайрлар, спорт ўйинлари, шунингдек, мактабнинг фан олимпиадалари совриндорлари билан суҳбатлар уюштириш, фан тўғаракларини йўлга қўйиш мақсадга мувофиқдир. Жараёнинг тўғри ва оқилона ташкил этилиши ўқувчининг дунёқарашини ўсишига, фанларни пухта ўзлаштиришига, ўз устида ишлашига, ҳулас, маънан ва жисмонан баркамол бўлиб вояга етишига хизмат қилади. Таъкидлаш жоизки, синфдан ташқари ташкил қилинган ишлар ўқувчилар ҳаётидаги тарбиявий фаолиятни тўлдиради. Уларнинг дунёқараши тўғри шаклланишига ва ахлоқий камол топишига қўмаклашади. Назарий билимларнинг амалиёт, ишлаб чиқариш билан боғланишига замин яратади.

Синфдан ташқари олиб бориладиган тарбиявий ишларда қуйидаги иш усулларида фойдаланиш тавсия этилади:

- Оғзаки иш усуллари: китобхонлар конференциялари, газета ва журналлар.
- Кўргазмали иш усуллари: мактаб музейлари, меҳнат қаҳрамонлари хонаси, янги китоблар кўргазмалари ва совриндорлар билан учрашувлар.
- Амалий иш олиб бориш усуллари: сайёҳатлар, олимпиадалар, шанбаликлар ва тўғараклар.

Синфдан ташқари ўқиш дарслари орқали ўқувчиларни миллий ва умуминсоний қадриятларимиз, урф-одат ва анъаналаримиз асосида тарбиялаш ҳар бир ўқитувчининг вазифаси бўлиб ҳисобланади. Тўғарак машғулотларига нисбатан жиддий муносабатни шакллантириш, машғулотларга белгиланган вақтда келиш, тўғарак топшириқларини талаб даражасида бажариш, мактаб ва тўғарак моддий бойликларини эҳтиёт қилишни ўқувчиларга сингдирмоқ лозимдир. Маълумки, синфдан ташқари ишларни тўла қамраб олган тўғараклар бир неча хилда бўлиши мумкин: фан тўғараклари, моҳир қўллар, дурадгорлик, спорт мусобақалари, бадий ҳаваскорлик ва ҳоказо... Лекин уларни ўқувчи ўз қизиқиши, қобилияти, истеъдодидан келиб чиқиб танлаши лозим. Таъкидлаш жоизки, синфдан ташқари ишларни оқилона

⁶⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Халқ таълими тизимини бошқаришнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони. ПФ-5538-сон, 2018 йил, 5 сентябр.

ташкил этиш ва ўтказишда тарбиячининг роли жуда муҳим. Шу боис ўқитувчидан аввало билимдонлик, болажонлик, талабчанлик ва ўз касбига масъулият билан ёндашиш каби фазилатлар талаб қилинади. Ўқитувчи дастлаб тўғараклар фаолияти ҳақида маълумотлар билан таништиради, ўқувчиларга олган маълумотлари асосида танлаш имконияти берилади. Масалан, китобхонлик тўғараги аъзолари билан кутубхонадаларда китоб мутооласи йўлга қўйилади, ўқиб келинган (эртас, ҳикоя, роман,...) китоблар муҳокама қилинади. Бошқа тўғараклар билан ҳам шу тарзда фаолиятли йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, синфдан ва мактабдан ташқари ўқиш дарсларини ташкил қилиш ўқувчилар ҳаётидаги тарбиявий фаолиятни тўлдиради, уларнинг дунёқараши тўғри шаклланишига ва ахлоқий камол топишига кўмаклашади, назарий билимларни амалиёт, ишлаб чиқариш билан боғланишига замин яратади, ўқувчиларда фаолликни, ташкилотчиликни тарбиялайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг таълим тўғрисидаги Қонуни. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.- Т.: “ Шарқ”н 1998.
2. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.- Т.: “ Шарқ”н.1998.
3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. - Т.: 2003.
4. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. - Москва: Педагогика, 1989.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI.....	3
-------------------	---

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA TIZIMLI YONDASHUV

ГИЁҲВАНДЛИКНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ Мамадиярова Малика Таджиевна, Навоий вилояти ҳокими ўринбосари – оила ва хотин-қизлар бошқармаси бошлиғи....	5
--	---

ГИЁҲВАНДЛИККА ҚАРШИ КУРАШНИНГ СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ Ж.Ё.Мавлонов – Навоий инновациялар университети ректори, сиёсий фанлар доктори, профессор.....	8
--	---

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA TIZIMLI YONDASHUVNING IJTIMOIY-IQTISODIY ASOSLARI N.O.Safarova NavDU Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, f.f.d., professor.....	12
---	----

МЕЖДУНАРОДНОЕ ЗНАЧЕНИЕ БОРЬБЫ С НАРКОМАНИЕЙ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ Филиппов Ольгерд Александрович, НУВО «PROFI UNIVERSITY», Навои, Узбекистан, доктор философии по философским наукам (PhD)	14
--	----

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISHDA TIZIMLI YONDASHUVNING IJTIMOIY-IQTISODIY, SIYOSIY VA HUQUQIY ASOSLARI To‘xtamurodova Shahina Olim qizi Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi Falsafa yo‘nalishi 1-kurs talabasi Ilmiy rahbar f.f.d., dotsent Shamsutdinova Nigina Karimovna.....	19
--	----

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA TIZIMLI YONDASHUV: IJTIMOIY TIZIMNING SIMMETRIK VA ASIMMETRIK XUSUSIYATLARI U.R.Bekpo‘latov – Navoiy davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)	21
--	----

YOSHLAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MASALASINING NAZARIY JIHATLARI M.X.Norqobilov, NavDU Tarix kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).....	23
--	----

YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISH: TA’LIM VA TARBIYANING O‘RNI Mansurova Malohat Yunus qizi – Navoiy davlat universiteti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).....	25
--	----

ГИЁҲВАНДЛИК МУАММОСИ ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ Ачилова Мархабо Эшназаровна НавДУ Ижтимоий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси.....	30
БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИДА, ГИЁҲВАНДЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ Туробова Шоира Бахритдиновна “Ижтимоий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси.....	33
IQTISODIYOTNING JADAL RIVOJLANТИРИШДА BANKLAR FAOLIYATINING АҲАМИЯТИ Sharifjonova Gulchehra – Navoiy davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti.....	34
О‘ЗБЕКISTONDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI Ashurov Shodmon Sharofovich – NavDU, Ijtimoiy fanlar kaferdasi katta o‘qituvchisi.....	37
GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISHDA TA'LIM VA TARBIYANING ROLI Abruyeva Charos Tolibjonovna Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti Falsafa yo‘nalishi 1-kurs talabasi Mansurova Malohat Yunus qizi – Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).....	39
GIYOHVANDLIK- GLOBAL MUAMMO SIFATIDA NDU Tillar fakulteti 4- kurs talabasi Bozorava Dilmexra Ilmiy rahbar: NDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi N.M.Suvonova.....	44
GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHNING IJTIMOIY, IQTISODIY XUSUSIYATLARI Jo‘raqulova Nigina Ilhom qizi – Master school o‘quv markazi tinglovchisi.....	46
GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O‘RNI Ikromova M.I., NavDU pediatriya ishi yo‘nalishi talabasi ilmiy rahbar: Achilova M.E. NavDU ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi.....	48
YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIKNING TARQALISH OMILLARI Namozova Fotima, NavDU Aniq fanlar fakulteti 3-kurs talabasi Ilmiy rahbar: Atoyeva Sh.Sh.	50

O‘SMIRLAR ORASIDA GIYOHVANDLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISHDA OILANING O‘RNI Axadjonova Gulruxsor Toxirjon qizi Namangan davlat universiteti psixologi.....	52
YOSHLAR VA GIYOHVANDLIK: MUAMMO VA ECHIM NavDU “Tillar fakul’teti” 4- kurs talabasi Алимова Рафиля Ilmiy rahbar; NDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi N.M.Suvonova.....	55
YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISH: TA’LIM VA TARBIYANING O‘RNI Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti Ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi Shukurullayeva Laylo Ilmiy rahbar: D.Y.Xodjayeva.....	57
YOSHLAR O‘RTASIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIPISH XUSUSIDA Zayniddinova Sevinch NavDU Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fak. 1-kurs talabasi. Ilm.rah.Achilova M.E. NavDU Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi.....	61
YOSHLAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXATROP MODDALAR BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI OLDINI OLISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI Shodmon Ashurov - NavDU Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi.....	63
ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА СОҒЛОМ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ОМИЛИ Эшдавлатов Отаниёз Гаффорович Навоий давлат университети катта ўқитувчиси.....	67
YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISHNIHG AYRIM JIHATLARI NDU Aniq fanlar fakulteti Amaliy matematika bo‘limi 2-kurs talabasi Hosilov Ozodbek Ilmiy rahbar “Ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi Shoirа Turobova.....	73
GIYOHVANDLIKNING OLDINI OLISHGA DOIR TIBBIY YONDASHUVLAR Nayimova Ruxshona Davlatbek qizi NavDU Tabiiy fanlar fak., Pediatriya ishi yo‘nalishi 2-kurs talabasi Ilmiy rahbar: Achilova M.E. Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi.....	74

РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В ПРОФИЛАКТИКЕ НАРКОМАНИИ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Сидирова Жанар Умирбековна

преподаватель кафедры русского языка и литературы

Навоийского государственного университета г. Навои, Узбекистан.....76

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINI

Sobirjonova Marjona, NavDU Tillar fak. 4-kurs talabasi

Ilm.rahbar: Achilova M.E., NavDU katta o'qituvchisi.....80

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHNING IJTIMOIIY HUQUQIIY ASOSLARI

Yusupova Kamola- Navoiy Davlat Universiteti

Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi.....81

MA'RIFATLI SOG'LOM AVLOD – UCHINCHI RENESANS POYDEVORI

UCHINCHI RENESANSNING MA'RIFIY VA MA'NAVIY ASOSLARI:

TA'LIM VA TARBIYA MASALASI

Navoiy Davlat Universiteti Tarix fakulteti

Falsafa yo'nalishi talabasi 1-bosqich talabasi

Qurbonova Malika Salohiddin qizi

Ilmiy rahbar: f.f.d. (DSc), dots. Shamsutdinova Nigina Karimovna.....85

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI

RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN INTEGRATIV METODIK TIZIM

Boboyorov Shuhratjon Suvonqulovich-

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi.....87

SOG'LOM AVLOD-UCHINCHI RENESANS POYDEVORI

Qiyosova Gavhar Tursunovna

NavDU tarix fakulteti tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Shamsutdinova N.K.

Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti f.f.d.(DSc).....93

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING MA'NAVIY VA MA'RIFIY ASOSLARI

Narkulova Shaxnoza Hakimovna

Navoiy Davlat Universiteti tarix fakulteti

Falsafa yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.d., dotsent Shamsutdinova Nigina Karimovna.....95

HIJOMANING BOLALAR SALOMATLIGINI TA'MINLASHDAGI

FOYDA VA ZARARLARI

Nusratova Dilorom O'ktamovna

Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi katta o'qituvchisi.....98

NAVOIY VILOYATIDA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIGA OID TUB ISLOHOTLARNING AMALGA OSHIRILISHI Asadova Mohirabonu Hasanovna, Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o‘qituvchisi.....	101
--	-----

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATI: SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA AMALIY NATIJALARI Nasirov Muhridin Zayniddin o‘g‘li, Osiyo xalqaro universiteti magistranti Ilmiy rahbar: PhD, dotsent M.A.Choriyeva.....	104
--	-----

UCHINCHI RENESANSNING MA’RIFIY VA MA’NAVIY ASOSLARI Mansurova Malohat Yunus qizi – Navoiy davlat universiteti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Qurolova Fotima Yo‘lchi qizi - Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti Falsafa yo‘nalishi 1-kurs talabasi.....	106
---	-----

ЁШЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА СИНФДАН ТАШҚАРИ ИШЛАРНИНГ ЎРНИ Очилова Фарангиз- НавДУ магистранти.....	108
---	-----

“GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA TIZIMLI
YONDASHUVNING IJTIMOIIY, IQTISODIIY, SIYOSIIY VA
HUQUQIIY ASOSLARI”

mavzusidagi

Respublika ilmiy konferensiya to‘plami

22.05.2026

Hajmi 12.5 ^{1/8} bosma taboq. Adadi 50 nusxa.

NavDU Tahririyat va nashriyot bo‘limida chop etildi.

Navoiy shahri Ibn Sino-45.
